

International scientific journal

# MODERN SCIENCE AND RESEARCH

**2023**

ISSN: 2181-3906

**Modernscience.uz**

---

- **Exact Sciences**
- **Natural Sciences**
- **Medical Sciences**
- **Technical Science**
- **Pedagogical Sciences**
- **Social and Humanitarian Sciences**

[www.modernscience.uz](http://www.modernscience.uz)

# «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOLUME 2/ ISSUE 8**

**AUGUST**

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.



**TOSHKENT-2023**

«MODERN SCIENCE  
AND RESEARCH»

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

**XALQARO ILMIY  
JURNAL**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ  
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ**

**INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**BOSH MUHARRIR:  
G'.T.Boymurodov**

**MAS'UL MUHARRIR:  
S.Ergashova**

**JURNAL BIR OYDA BIR  
MARTA NASHR QILINADI.**

**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI  
HUZURIDAGI AXBOROT  
VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYA  
AGENTLIGI**

**TOMONIDAN BERILGAN  
№ 042359 RAQAMLI  
RUXSATNOMAGA EGA.**

**Pardayev Qo'ldosh Uzoqovich**

*Filologiya fanlari doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Tashkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida professori v.b.*

**Hamrayeva Muhayyo Ahmadovna**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti. Turon fanlar akademiyasi faxriy akademigi.*

**Khamdamov Ulugbek Abduvakhobovich**

*O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti "XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" bo'limi mudiri, prof., f.f.d.*

**Khaydarov Mamat Eshkulovich**

*Pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Tashkent Davlat pedagogika universiteti "Uzluksiz talim pedagogika va menejment" kafedrasida professori.*

**Eshmuminov Askar Allamurodovich**

*Filologiya fanlari doktori, dotsent. Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri.*

**Khodjaev Begzod Khudoyberdievich**

*Pedagogika fanlari doktori, professor. Tashkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasida mudiri.*

**Yo'ldashov Murodjon Ravshanovich**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasida o'qituvchisi.*

**Artikov Askar Akbarovich**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Futbol nazariyasi va metodikasi" kafedrasida dotsenti.*

ISSN: 2181-3906

*Jurnaldan maqola ko'chirib  
bosilganda manba  
ko'rsatilishi shart.*

*Jurnal rasmiy sayti:*

[www.modernscience.uz](http://www.modernscience.uz)

**Botirov Mirzokhid Ismonkhojayevich**


*Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

**Abidov Shavkat Usmanovich**

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**Hamrokulov Mahmud Gofurjonovich**

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti sifat menejmenti va  
mahsulotlar xavfsizligi kafedrasi dotsenti*



**@MODERNSCIEN  
CE RESEARCH**

«Modern Science and Research» international scientific journal, 2023. 407 pages.

© Modern Science and Research, 2023

© Authors, 2023

НАСЛЧИЛИК ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИДА ТАНА ВА ҒУНАЖИНЛАРНИ  
ЖАДАЛ ЎСТИРИШ ВА БИРИНЧИ ТУҚҚАН СЕРМАҲСУЛ СИГИРЛАР  
ПОДАСИНИ ЯРАТИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ

Ажимуратов Ахмет

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар  
университети Нукус филиали магистранти

Кошенова Уғилхан Қурбанбаевна

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар  
университети Нукус филиали талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8208865>

**Аннотация.** Ушбу мақолада қорамолчиликка ихтисослашган фермер хўжаликлариде келиб чиқиши бўйича маъқул, яхши ривожланган ургочи бузоқлардан подани тўлдириши гуруҳи ташкил қилиши, уларни мақсадли жадал ўстириб боқиши ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калим сўзлар:** Пода, рацион, конституция, экстерьер, зот, ғунажин.

EFFECTIVE WAYS TO INTENSIVELY GROW BODIES AND HEIFERS ON  
BREEDING FARMS AND CREATE A HERD OF THE FIRST FERTILE COWS

**Abstract.** This article provides information on the organization of a herd replenishment group from well-developed female calves, feeding them purposefully intensively, which is acceptable by Origin on farms specializing in cattle breeding.

**Key words:** Herd, racion, Constitución, exterer, breed, heifer.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИНТЕНСИВНОГО ВЫРАЩИВАНИЯ ТЕЛОК И  
ТЕЛОК НА ПЛЕМЕННЫХ ФЕРМАХ И СОЗДАНИЯ ПЕРВОГО  
ПРОДУКТИВНОГО СТАДА КОРОВ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об организации группы пополнения стада из благоприятных по происхождению, хорошо развитых самок телят на фермах, специализирующихся на разведении крупного рогатого скота, их целенаправленном интенсивном выращивании и выращивании.

**Ключевые слова:** Стадо, рацион, конституция, экстерьер, порода, телка.

Сут қорамолчилигини жадал ривожлантириш, моллар наслини яхшилаш билан уларнинг подасини сифат жиҳатдан тез, қайта тиклашни тақоза этади. Шунинг учун фермер хўжаликлари талабларига мослашган наслдор тана ва ғунажинларни жадал ўстириш республикада катта аҳамиятга эга.

Поладаги сигирлар таркибини йилига 15-20 % сермахсул биринчи туғим сигирлар билан мунтазам алмаштириб бориш подани ёшартириш билан бирга, уларнинг насл ва махсулдорлик кўрсаткичларини жадал ўсишини таъминлайди.

Бу тадбирлар таъминлаш учун фермер хўжалиги пода таркибида сигирлар бош сонига нисбатан 18-20 % ғунажинлар, 20-25 % қочириш ёшидаги таналар ва 25-30 % 1 ёшгача наслдор таналар бўлиши талаб этилади.

Афсуски, республикамизнинг кўпчилиги фермер хўжаликлариде, ёш наслдор молларни ўстиришга етарли аҳамият бермаслиги натижасида уларнинг кунлик ўсиши 250-300 г ни ташкил этиб, 18 ойлигида бор йўғи 200-250 кг тош босиши, улардан подани

тўлдиришда фойдаланиш имкониятларидан маҳрум қилмоқда. Натижада фермер хўжаликлари сигирлар подасига ўз вақтида сермахсул биринчи туққан сигирлар кўчирилмаслиги, қари ва каммахсул сигирларни подадан пучак қилинмаслиги сабабли маҳсулдорликнинг жадал ўсиш кўзга ташланмаётир. Кўпчилик фермер хўжаликлари ўз тана ва ғунажинларини жадал ўстириб сермахсул сигирлар подасини яратиш ўрнига хориждан кўплаб қиммат (5-6 млн. сўм) баҳода тана ва ғунажинлар сотиб олмақдалар.

Ҳар бир фермер ҳам хориж валютасида мол сотиб олиш имкониятига эга эмас, шу боис фермер хўжаликларида ички имкониятларни ишга солган ҳолда ўзи ва қўшни фермерлар, шахсий ёрдамчи ва деҳқон хўжаликлари учун сермахсул I туғим сигирлар ёки ғунажинлар ўстиришни ташкил қилиш керак.

Қорамолчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида келиб чиқиши бўйича маъкул, яхши ривожланган урғочи бузоқлардан подани тўлдириш гуруҳи ташкил қилиниб, улар мақсадли жадал ўстирилиб 16-18 ойлигида йирик зотларда (қора-ола, голштин, швиц) 350-360 кг, кичик зотларда (қизил чўл, бушуев) 320-340 кг тирик вазнга эришганда қочириб, ғунажинларни меъёردа ўстириш эвазига 26-27 ойлигида туғишини таминлаш, кам харажатлар билан сермахсул сигир етиштириш имконини беради.

Бу мақсадда иложи борича фермер хўжаликларида жаҳон илғор чорвачилиги (Исроил, Шимолий Америка, Европа мамлакатлари) тажрибаларидан фойдаланиб (таналарни 13-14 ойлигида қочириб 22-23 ойлигида туғдириш) уларни шароитга қараб мослаб жорий этишни талаб этади.

Фермер хўжаликларида наслчилик ишини тўғри йўлга қўйиш, сигир ва қочириш ёшига етган таналарни суъний уруғлантириш ва жаҳон генофондининг асл намуналаридан фойдаланиб келажакда сермахсул авлод олишни таъминлайди.

Ҳар бир фермер хўжалигининг табиий – иқлим шароити, иқтисодий аҳволига қараб у ёки бу зотни маъкул сақлаш усуллари, озиклантириш хили (типи) ва меъёрини қўллаш имкониятлари мавжуд.

Бу борада республикада қатор илмий тадқиқотлар ўтказилиб ижобий натижалар, яъни зот ва зотдорликдаги, турли жадалликда, рацион типиде ўстирилган I туққан сигирлардан 3400-3900 кг сут соғиб олиш мумкинлиги қайд этилган.

Қорақалпоғистон республикасининг барча туманларининг сут ишлаб чиқаришга ихтисослашган фермер ва деҳқон хўжаликлари шароитида подани тўлдирадиган урғочи таналарни ўстириш ва сермахсул биринчи туғим сигирларнинг ҳолатини ўрганишни талаб этади.

Подани тўлдирадиган урғочи таналарни ўстириш технологияси хўжаликларда ҳар хилда олиб борилади. Бундай технологияларнинг асосий камчиликлари ёш қорамолларни озиклантириш ва сақлаш шароитлари улар организмнинг биологик талаби даражасига тўғри келмаслиги, натижада улар қочириш ёшида тирик вазни бўйича андоза талабларига жавоб бермасдан подани қайта тиклаш ҳусусияти пасаяди. Улардан етиштирилган биринчи туғим сигирларнинг маҳсулдорлиги албатта паст бўлади. Фермер хўжаликларида подани тўлдирадиган ёш қорамолларнинг ўртача кунлик семириш 350 г дан паст бўлиб, урғочи таналар 23-25 ойлигида 340-350 кг тирик вазнда қочирилмоқда.

Шунинг учун ҳам фермер ва деҳқон хўжаликларида подани тўлдирадиган ёш қорамоллар ва биринчи туғим сигирларни ўстириш технологияларини такомиллаштириш

бўйича ҳар томонлама илмий изланишлар ўтказиш маълум илмий ва амалий қизиқиш уйғотади.

Мажмуа илмий изланишларда Ўзбекистонда худудлаштирилган сут йўналишида қорамолларнинг сермахсул подасини ўстириш технологиясини асосий элементлари (тизимлари) ўрганилиб, уларнинг биологик талабларга мос келадиган муайян озиклантириш ва сақлаш шароитлари аниқланади, ғунажинларни туғишга тайёрлаш ва биринчи туғим сигирларни ийдириш жараёнлари уларнинг махсулдорлигини оширишга қаратилади.

Сут ишлаб чиқаришни кўпайтириш, сифатини яхшилаш ва таннархини пасайтириш муаммолари сермахсул биринчи туғим сигирларни ўстириш технологиясини такомиллаштириш самарали усулларини ишлаб чиқиш асосида амалга оширилганлиги учун долзарб бўлиб, халқ хўжалигида катта амалий аҳамиятга эгаллиги ушбу ишни бажаришга асос бўлади.

#### **REFERENCES**

1. Максудов И. Қорамолчилик билан шуғулланувчи фермерлар учун қўлланма. Самарқанд, 1997.
2. Максудов И. Фермер хўжалигида подани тўлдирувчи урғочи таналарни ўстириш. СамҚХИ илмий тўплами, 1997, 118 б.
3. Максудов И, Собиров П.С, Дўстқулов С.Д. Сутчилик хўжалигини ташкил қилиш тажрибасидан. СамҚХИ илмий тўплами, 2001 й, 185-191 б.
4. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.

## CHORVACHILIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

**Ajmuratova Axmet Paraxatovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistranti

**Koshenova Ugilxan Qurbanbayovna**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8208892>

*Annotatsiya.* Biz bu maqolada chorvachilik sohasida texnologiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati haqida, shu bilan birga jamiyat rivoji uchun qo'shayotgan hissasi haqida bayon qilamiz.

*Kalit so'zlar:* chorvachilik, qora mol, texnologiya, innovatsiya, jamiyat, qishoq xo'jaligi.

### THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE LIVESTOCK SECTOR

*Abstract.* We will explain in this article about the role and importance of technology in the field of livestock, and at the same time about the contribution it makes to the development of society.

*Key words:* livestock, black cattle, Technology, Innovation, Society, Winter farm.

### РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЖИВОТНОВОДСТВЕ

*Аннотация.* В этой статье мы расскажем о роли и важности технологий в животноводстве, а также о вкладе, который они вносят в развитие общества.

*Ключевые слова:* животноводство, черный скот, технологии, инновации, общество, сельское хозяйство.

Chorvachilik — qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug'ullanadi; aholini ishchi hayvonlari (ot, ho'kiz, tuya, bug'u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go'sht, yog', tuxum va boshqalar), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo'yna va h.k.), dehqonchilikni organik o'g'it bilan ta'minlaydi. Chorvachilik mahsulotlari va chiqindilaridan ayrim ozuqalar (yog'i olingan sut, go'sht, suyak uni va boshqalar), shuningdek, har xil dori-darmonlar (shifobaxsh zardoblar, gormonal preparatlar va boshqalar) olinadi. Chorvachilikning taraqqiy etishi va mahsuldorligi dehqonchilikning rivojlanishi, yerdan intensiv foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, asalarichilik, cho'chqachilik, quyonchilik, baliqchilik, ipakchilikdan iborat. Jahon mamlakatlarida tabiiy iqlim sharoitlari va ozuqa bazasiga ko'ra chorvachilik rivoji o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jahon chorvachilikda (mln. bosh) qoramol 1338,2; qo'y 1068,6; echki 709,8; buyvol — 158,6; ot — 61,095; xachir — 14,1; eshak — 43,4; tuya — 19,1; cho'chqa — 912,7; tovuq — 14139; kurka — 244 va boshqa boqiladi va ulardan turli mahsulotlar yetishtirish muhim o'rinda turadi (1999). Go'sht yetishtirish hajmi 225,9 mln. t ni, sigir suti yetishtirish 480,6 mln. t ni (yoki har bir sigirdan o'rtacha 2071 kg ni) tashkil etdi. [2.18]

Respublikamizda chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart sharoitlar yaratish, ilmiy-amaliy ishlarni yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish, qishloq joylarining rivojlanishi hamda aholi farovonligini oshirishda, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi



va qishloq joylarda aholi bandligini ta'minlashda fermer va dehqon xo'jaliklarining o'rni muhim rol o'ynaydi.

Bu tadbirlar nafaqat aholi manfaatlarini oshiradi, balki, qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim qadam bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Agrar sohada eng katta muammo - fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. To'g'ri, ularda kuch-g'ayrat, tashabbus, yerga mehr bor, ko'pchiligining ko'zi yonib turibdi. Lekin, afsuski, birgina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz. Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur" deyilgan. [1.64]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi 2020 yil 29 yanvar kungi PQ-4576-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Naslchilik xo'jaliklari maqomining berilishi tartibi to'g'risidagi 2020 yil 19 fevral 100-sonli qaroriga asosan naslchilik xo'jaliklari toifasidagi fermer xo'jaliklarida oliy ma'lumotli zootexnik mutaxassislarini ta'minlanishi ko'rsatib o'tilgan, shunga asosan, ayniqsa, qoramolchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarga zootexnika mutaxassisi shart va zarur deb belgilab berilgan.

Ohirgi yillarda Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi, chorvachilik fermer xo'jaliklariga katta e'tibor qaratilayotganligi, chorvachilikda ozuqa bazasini mustaxkamlashda sug'oriladigan yerlardan oqilona foydalanib, ozuqabop ekinlardan yuqori hosil olish hisobiga ozuqa ishlab chiqarishni ko'paytirish, hamda yangi innovatsion texnologiyalar asosida qo'shimcha jadal usulda gidroponik texnologiyasi asosida yashil ozuqasini yetishtirish masalalarini yechish chorvachilik sohasi xodimlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.

Qaroqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida yuqori mahsuldorlikka erishish ko'p jihatdan ozuqa zahirasining mustahkamligiga bog'liq, bunda kuz, qish va bahor mavsumlarida ekin maydonlarida yetarli ozuqabop ekinlar bo'lmagan davrda yangi innovatsion yuqori samarali jadal (intensiv) usulda avtomatlashtirilgan gidroponik texnologiyasi asosida yashil chorva ozuqasini yetishtirish va chorva hayvonlarini mahsuldorligini oshirish va chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. [3.57]

Ushbu innovatsion texnologiya asosidagi uskunalar yil davomida chorva mollari uchun ozuqa yetishtirib berish xavfsizligini ta'minlaydi. Hamda ushbu mahsulot ishlab chiqarayotgan uskunalar yuqori, sifatli va uzoq yillar davomida ishlash qobiliyatiga ega bo'lib, yil davomida chorva ozuqasini samarali-barqaror-ekologik toza ishonchli ekanligini ta'minlamoqda. Hozirgi kunda gidroponika usulida yetishtirilgan ko'k ozuqalar chorvachilik sohasining barcha tarmoqlarida chorva hayvonlarini oziqlantirishda ayniqsa qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, yilqichilik, quyunchilik va baliqchilik sohalarida keng qo'llanib kelinmoqda. Xulosa qilib aytganda, chorvachilik sohasida innovatsion texnologiyalarni foydalanish bu zamon talabi bo'lib, ularni foydalanish mehnat unumdorligini oshiradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 29 yanvar kungi PQ-4576-sonli qarori.
2. Влияние качества зернопроизводства на эффективность урожая Н.И Тешабоев, Б.К Бобоев - Science and innovation, 2022 г. 18
3. Юқори самарали гидропоник технологияси асосида чорва озукасини ишлаб чиқариш ускуналари ва озиклантириш усуллари, Journal of new century innovations 2022 й Бобоев Б, Бахриддинов Ф, Б Уроков.
4. Чорвачиликни янги инновацион технологиялар асосида ривожлантириш истикболлари, Journal of new century innovations 2022 й Бобоев Б, Бахриддинов Ф, Б Уроков.
5. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.

## JINOYAT SUBYEKTI – JINOYAT TARKIBINING MUHIM ELEMENTI SIFATIDAGI AHAMIYATI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

**Abdunazarova Maxliyo Raximovna**

Jizzax viloyati yuridik texnikumi

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Telefon: +998976448900

[maxliyo.abdunazarova@mail.ru](mailto:maxliyo.abdunazarova@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8208922>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada jinoyat tarkibi va qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchalari hamda mohiyati, jinoiy javobgarlikning asosi sifatida jinoyat tarkibining muhim elementi hisoblangan jinoyat subyektining ahamiyati, bu sohada milliy va xorijiy tajribaning o‘xshash hamda farqli jihatlari ochib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya, jinoyat tarkibi elementlari, jinoyat subyekt, jinoyatda subyekt yoshi, aqli rasolik, aqli norasolik, maxsus subyekt.

## THE SUBJECT OF CRIME-THE IMPORTANCE OF CRIME AS AN IMPORTANT ELEMENT OF ITS COMPOSITION: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

*Abstract.* In this article, the concepts and essence of the structure of the crime and the qualification of the act, the importance of the subject of the crime, which is considered an important element of the structure of the crime as the basis of criminal responsibility, the similar and different aspects of the national and foreign experience in this field are revealed.

*Key words:* composition of crime, qualification, elements of composition of crime, subject of crime, age of subject in crime, sanity, insanity, special subject.

## ЗНАЧЕНИЕ СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ КАК СУЩЕСТВЕННОГО ЭЛЕМЕНТА СОСТАВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

*Аннотация.* В данной статье раскрываются понятия и сущность состава преступления и квалификации деяния, значение предмета преступления, который рассматривается как важный элемент состава преступления как основание уголовной ответственности, выявлены сходные и различные аспекты отечественного и зарубежного опыта в этой области.

*Ключевые слова:* состав преступления, квалификация, элементы состава преступления, субъект преступления, возраст субъекта преступления, вменяемость, невменяемость, специальный субъект.

Ma'lumki, shaxs tomonidan jinoyat sodir etish holatlari insoniyat tarixining har qanday davrida mavjud bo'lgan va o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turgan. Shu tufayli, bugungi kunda dunyo mamlakatlarining barchasida jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Har qanday davlatda jinoiy-huquqiy siyosatni amalga oshirishning dastlabki va muhim bosqichi – bu qonun hujjatlarida jinoyat uchun javobgarlikni belgilashdir. Bundan ko'zlangan maqsad ijtimoiy hayotda sodir etilgan real qilmishning belgilarini jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilariga solishtirish orqali uning qanday jinoyat ekanligini va unga nisbatan qay turdagi jazo tayinlash kerakligini

aniqlash hisoblanadi. Aynan mazkur jarayon “qilmishni kvalifikatsiya qilish” deb nomlanadi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning asosini jinoyat qonunida belgilangan aniq jinoyat tarkibi tashkil etadi. Ya’ni, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ijtimoiy hayotda sodir etilgan real qilmishni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibiga tayanadi.

Jinoyat tarkibi deb – ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo‘lgan obyektiv va subyektiv belgilarning minimal yig‘indisiga aytiladi.

Bu belgilar jinoyat qonuni Maxsus qism normalarida mustahkamlanganligi bois, u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanmog‘i uchun zaruriy belgi bo‘lib hisoblanadi.

Jinoyat tarkibi elementlarini – jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv tomonlarining zaruriy va fakultativ belgilari tashkil etadi.

Jinoyat tarkibi elementlari:

- jinoyat obyekti;
- jinoyatning obyektiv tomoni;
- jinoyat subyekti;
- jinoyatning subyektiv tomoni.

Xususan, V.N.Kudryavsev “Qilmishda jinoyat tarkibi belgilari yig‘indisining mavjudligi bu jinoiy javobgarlikka tortish uchun eng kam va yetarli asoslar borligini anglatadi. Eng kam degani shu ma’nodaki, agar qilmishda jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan kamida bittasining yo‘qligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emasligini anglatadi. Yetarli deganda, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qo‘shimcha ma’lumotlarni (obyektiv va subyektiv belgilardan tashqari) yig‘ishning zarurati yo‘qligidir” degan fikrni ilgari suradi [3]. Shunga o‘xshash fikrlarni milliy huquqshunos olimlarimiz ham bildirishgan. Jumladan, M.Usmonaliyev va P.Bakunov jinoyat tarkibi deganda, jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan muayyan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning jinoiyligini ifodalovchi tomonlar (elementlar) yig‘indisini nazarda tutadi [4]. A.S.Yoqubov va R.Kabulovning fikricha, “Jinoyat tarkibi jinoyat qonunchiligida aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb ta’riflovchi eng kam va yetarli obyektiv hamda subyektiv belgilar yig‘indisidir” [5]. F.Xudoyqulov esa “Jinoyat tarkibi – bu har qanday jinoyatning tashqi va ichki tuzilishini o‘zida namoyon etadigan subyektiv va obyektiv belgilarining minimal va yetarli yig‘indisidir” deb yozadi [6].

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 16-moddasining 2-qismida jinoiy javobgarlikning asosi jinoyat tarkibi ekanligi belgilangan. Unga ko‘ra, “Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi” [2]. Mazkur norma mazmunidan kelib chiqqan holda, sud tergov organlari muayyan qilmishni jinoyat deb topish va uni JK Maxsus qismining biror moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibini aniqlashga e’tibor qaratadilar.

Endi jinoyat tarkibining muhim elementlaridan bo‘lgan jinoyat subyektiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, jinoyatning subyekti - Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan va qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan yoshdagi jismoniy shaxsdir. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etgunga qadar jinoyat qonunida belgilangan yoshga to‘lgan (JKning 17-moddasi), aqli raso (JK 18-moddasi, JK 18<sup>1</sup>-moddasi), jismoniy shaxslar jinoyatning subyekti bo‘la oladi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyat subyektini aniqlash bilan shartlangan kvalifikatsiya qilish qoidalari jinoyat subyektining quyidagi asosiy belgilarini to'g'ri belgilash lozimligi bilan shartlanadi. Ular quyidagilardan iborat, ya'ni jinoyat subyekti: 1) jismoniy shaxs bo'lishi; 2) jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetganligi; 3) aqli raso bo'lishidir.

Demak, bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, jinoyatning subyekti faqat jismoniy shaxs bo'lishi kerak bo'ladi. Bu esa, yuridik shaxslarning jinoyat subyekti bo'lishi mumkinligini inkor etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, jinoyatning subyekti faqat jismoniy shaxslar (inson) bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham hayvonlar yoki boshqa predmetlar yoxud mulk shaklidan qat'i nazar yuridik shaxs maqomiga ega bo'gan korxonalar, muassasa, tashkilotlar jinoyatning subyekti bo'la olmaydilar.

Muayyan turdagi jinoyat subyektini aniqlash insonning ijtimoiy munosabatlar individual sifatida uning kimligi, yoshi, jinsi yoki familiyasi, ismi va otasining ismini belgilab olishni talab etadi. Chunki bunday talablar faqat insonga xosdir. Shaxsning kimligi, yoshi, jinsi yoki familiyasi, ismi va otasining ismini aniqlamay turib, uning javobgarligi to'g'risidagi masalani hal etish mumkin emas.

Shu bilan birga, shaxs haqidagi ma'lumotlarni individuallashtirish uchun uning avvalgi jinoiy faoliyatini ham aniqlash jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va u kvalifikatsiyaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi (masalan, shaxsning sudlanganligi va boshq.).

Ta'kidlash joizki, shaxsning familiyasi, ismi yoki otasining ismi haqidagi ma'lumotlarni aniqlashda, ushbu shaxsning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi yoki fuqarolik pasporti asos qilib olinadi.

Jinoyat subyektining jinoiy javobgarlikka tortilish minimal yoshini nazarda tutuvchi jinoyatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida belgilangan. Mazkur normada nazarda tutilmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishning umumiy yoshi 16 yosh etib belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligiga asosan Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar (JK 17-m. 2-q.), 16 (JK 17-m. 1-q.) va 18 (JK 17-m. 3-q.) yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'zRQ-735-sonli Qonuniga ko'ra 13 yosh jinoyat subyekt yoshidan olib tashlandi. Shu o'rinda xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Rossiya, Moldova, Germaniya va Janubiy Koreya jinoyat qonunchiligini tahlil qilganimizda, subyekt yoshining minimal chegarasi 14 yosh ekanligini ko'rdik. Ammo, Avstraliya jinoyat qonunida bu chegara 10 yosh hisoblanadi. Avstraliya JK 7.1-moddasiga muvofiq, 10 yoshdan kichik bo'lgan bolalar jinoyat uchun javobgarlikka tortilmaydi. 7.2-moddada ta'kidlanishicha, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z xulq-atvorining huquqqa xilofligini anglay olgan taqdirdagina, jinoyat uchun javobgarlikka tortiladi. Demak, qilmishni Avstraliya Jinoyat kodeksidan kelib chiqib, kvalifikatsiya qilishda yuqoridagi jinoyat elementlarining barchasi aniqlanishi lozim.

Jinoyat subyektining yoshini belgilash qoidalari. Jinoyat subyektining yoshi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar (fuqarolik pasporti, tug'ilganlik haqida guvohnoma va boshq.) asosida belgilanadi.

Ayrim hollarda, shaxsda uning tug'ilgan kuni va yilini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qotilgan, nobud qilingan yoki boshqa sabablarga ko'ra bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda shaxsning yoshini hujjatlar asosida tasdiqlovchi ma'lumotlarni boshqa manbalardan, masalan, ichki ishlar

idoralarining pasport bo'limlaridan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlaridan va boshqalardan olish kerak. Agar bunday ma'lumotlar yuqorida qayd etilgan organlarda ham turli sabablarga ko'ra saqlanib qolmagan bo'lsa yoki uni olishning imkoni bo'lmasa, shaxsning ota-onasi yoki yaqin qarindoshlarini (ota-ona, aka-uka, opa-singil, buvi- buva) so'roq qilish yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi holatlar natijasida ham subyektning yoshini aniqlashning imkoni bo'lmasa, buning uchun sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi va uning xulosasi asosidajinoyat subyektining yoshi belgilanadi.

JK 17-moddasining mazmuniga ko'ra, jinoyat subyektini bo'lish uchun shaxsning qonunda ko'rsatilgan yoshga to'lganligi va aqli raso bo'lishi talab qilinadi.

Ammo, aqliy rivojlanishdan orqada qolgan shaxslar aqli norasolar bilan tenglashtirilmaydi. Chunki, ular aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bo'lsa-da, aqli raso hisoblanadilar va shunga ko'ra, ular muayyan jinoyatning subyektini bo'la oladilar. Ammo sudlar bunday shaxslarga jazo tayinlashda ularni javobgarlik yoki jazodan ozod qilish asoslarini ko'rib chiqishlari shart. Lekin bunday shaxslarning javobgarligini hal qilishda sud ularning o'z harakatlari ahamiyatini anglay olish va boshqara olish qobiliyatidan kelib chiqishi kerak.

Amaldagi jinoyat qonunida faqat aqli raso shaxslar javobgarlikka tortilishlari va sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun sudlanishlari mumkinligi qayd etilgan. Demak, aqli rasolik, shaxsni belgilangan yoshga yetishi bilan birga, jinoiy javobgarlik vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 18-moddasining 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxs aqli raso deb topiladi. Yuridik adabiyotlarda, «aqli rasolik» tushunchasi o'zining yuridik mezoniga va o'z navbatida, uning ikki turdagi, ya'ni aqliy (intellektual) va irodaviy belgilariga ega bo'lishi bilan tavsiflanishi lozimligi qayd etilgan.

Aqli rasolikning aqliy (intellektual) belgisi shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglab yetish qobiliyatidan iborat bo'ladi. Irodaviy belgi esa shaxsning o'z xulq-atvorini boshqarish layoqatini anglatadi.

Shaxsni aqli noraso deb topish uchun quyidagi ikki mezonni aniqlash kerak: 1) yuridik (huquqiy); 2) tibbiy (biologik). Shaxsning sodir etgan qilmishi va uning jinoyat sodir etishga bol'gan ruhiy munosabatida ushbu belgilarning aniqlanmaganligi, uni aqli noraso deb topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, shaxsni aqli noraso deb topish uni jinoiy javobgarlikka tortishni inkor etadi.

Aqli norasolikning yuridik mezoni ikki belgidan iborat: aqliy (intellektual) va irodaviy. Aqliy (intellektual) belgi shaxsni o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglamasligini anglatadi. Shaxs ruhiyat (psixika)ining bu xususiyati sodir etayotgan qilmishining faktik xususiyati va uning ijtimoiy mohiyatini tushunish qobiliyati yo'qligini ifodalaydi. Irodaviy belgi shaxsning o'z harakatini boshqara olish layoqatini aks ettiradi.

Aqli norasolik deganda shaxsning ruhiy holatiga ko'ra, sodir etayotgan jinoyatning mohiyatini anglamasligi va uni boshqara olmasligi tushuniladi. Jinoyat kodeksi 18-moddasining 2-qismida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo'lgan, ya'ni surunkali ruhiy kasalligi; ruhiy holati vaqtincha buzilganligi; aqli zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi sababli, o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara

olmagan shaxsning javobgarlikka tortilmasligi belgilangan. Ushbu qoida asosida, aqli norasolik holati jinoiyjavobgarlikni istisno qiladi. Shaxsning aqli norasoligi tibbiy va yuridik mezonlar birligi va majmui bilan aniqlanadi.

Jinoyat subyekti bo'yicha jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat subyektining maxsus belgilarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, maxsus subyektning alomatleri bo'lmagan hollarda bu jinoyat mutlaqo mavjud emasligini bildirsa, boshqa hollarda jinoiy javobgarlik boshqa moddalar bo'yicha mavjud bo'ladi, ya'ni jinoiy- huquqiy kvalifikatsiya o'zgaradi.

Maxsus subyekt belgilarini aniqlash qoidalari. Bir qator jinoyat tarkiblarida jinoyat subyektining umumiy belgilari bilan uning maxsus, qo'shimcha belgilari ham nazarda tutiladi. Qonun chiqaruvchi muayyan jinoyat tarkibida jinoyat subyektining maxsus belgilarini nazarda tutishi, ushbu jinoyat subyektlarining cheklanganligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida maxsus subyekt belgilarini nazarda tutuvchi bir qator jinoyatlar nazarda tutilgan, shuning uchun ham ularni umumlashtirish va tasniflash mumkin.

Jinoyatning maxsus subyekti deb jinoyatning maxsus xususiyatini ifoda etuvchi, jinoiy-huquqiy norma dispozitsiyasida nazarda tutilgan, jinoyat subyektining umumiy belgilari (aqli rasoligi, qonunda belgilangan yoshga yetganligi) dan tashqari qo'shimcha maxsus belgiga ega bo'lgan shaxsga aytiladi.

JK Maxsus qismida shunday normalar borki, shaxsning aqli raso va muayyan yoshga yetganligining o'zi, o'sha jinoyatning subyekti deb hisoblashga asos bo'la olmaydi. Bunday normalarda o'sha jinoyatning asosiy belgilaridan tashqari qonun talab etgan yana boshqa maxsus belgining bo'lishi zarur. Masalan, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining o'ta xavfli retsdivist tomonidan sodir etilganligi uchun JK 104-moddasi 3-qismining «B» bandida javobgarlik nazarda tutilgan. Qilmishni ushbu band bilan kvalifikatsiya qilish uchun shaxs albatta, o'ta xavfli retsdivist huquqiy maqomiga ega bo'lishi kerak, undan boshqa shaxs mazkurjinoyatning subyekti bo'la olmaydi. Boshqaruv tartibiga qarshi alohida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarda ayblash uchun shaxs, albatta, qonunga muvofiq mansabdor bo'lishi kerak. Shaxsni harbiy jinoyatlarda ayblash uchun u albatta, harbiy xizmatchi bo'lishi kerak va hokazo.

Jinoyatning maxsus subyekti o'z mazmuniga ko'ra, turli-tumandir. Maxsus subyektlar sodir etadigan jinoyatlarda boshqa shaxslar jinoyatning bajaruvchisi sifatida jinoyatning subyekti bo'la olmaydilar. Jinoyatning maxsus subyekti belgilari jinoiy-huquqiy normaning dispozitsiyasida tavsiflanadi yoki undan bevosita kelib chiqadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ijtimoiy xavfli qilmish sifatida e'tirof etilgan har bir jinoyat bo'yicha jinoyat subyektining jinoiy- huquqiy belgilarini to'g'ri aniqlash jinoyatlarga to'g'ri huquqiy baho berishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda subyekt yoshiga kiritilgan o'zgartirishni ham ijobiy baholab, uni yetakchi xorijiy davlatlar tajribasiga muvofiq deb hisoblaymiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi;

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 1994-yil 22-sentabr, // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi;
3. Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификация преступлений. М., 20074. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.—T.: «Nasaf», nashriyoti, 2010. – B. 553.;
4. Yakubov A., Kabulov R. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – B. 374.;
5. Xudayqulov F.X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ular (subyektiv va obyektiv) belgilarining o‘zaro munosabati: instrumental tahlil va taklif // Huquqiy tadqiqotlar jurnali // – 2021. – T. 6. – №. 11.;
6. Уголовный кодекс Российской Федерации // <https://www.consultant.ru> = ht814952 (июня 13, 1996 года).;
7. Avstraliya jinoyat kodeksi // <https://www.refworld.org> = hh5687312 (1995). (The criminal code of the South Korea // <https://www.refworld.org> = hh5687312 (1995)



## IQLIM O'ZGARISHI DAVRIDA KIYIM DETALLARINI TANLASH VA OB-HAVOGA MOS QULAY KIYIMLAR DIZAYNINI YARATISHNI METODOLOGIK ASOSLARI

Bakiyeva Surayyoxon

Umarxodjayeva Manzuraxon

Qarashbayeva Barnoxon

Andijon tuman 1-son kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8208937>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi davrida kiyim detallarini tanlashning ahamiyati muhokama qilinadi va qulay, ob-havoga mos kiyimlarni loyihalashning uslubiy asoslari keltirilgan. Bu iqlim o'zgarishiga ta'sirini tushunish, tegishli matolarni tanlash, shamollatish va nafas olish, izolyatsiya va issiqlik, suvga chidamlilik, ultrabinafsha nurlaridan himoya qilish va barqaror dizayn amaliyotlarini o'z ichiga olish zarurligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** iqlim o'zgarishi, kiyim detallari, ob-havoga mos kiyimlar, qulay kiyim, barqaror dizayn, matolar, shamollatish, izolyatsiya, suvga chidamlilik, ultrabinafsha nurlaridan himoya qilish, ekologik toza, mas'uliyatli moda, ongli iste'mol.

### METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE SELECTION OF CLOTHING DETAILS AND THE CREATION OF A COMFORTABLE WEATHER-FRIENDLY CLOTHING DESIGN IN THE ERA OF CLIMATE CHANGE

**Abstract.** This article discusses the importance of choosing clothing details in times of climate change and provides methodological foundations for designing comfortable, weather-friendly clothing. It emphasizes the need to understand the impact on climate change, choose appropriate fabrics, include ventilation and breathing, insulation and heat, water resistance, UV protection, and sustainable design practices.

**Key words:** climate change, clothing details, weather-friendly clothing, comfortable clothing, sustainable design, fabrics, ventilation, insulation, water resistance, UV protection, environmentally friendly, responsible fashion, conscious consumption.

### МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДБОРА ДЕТАЛЕЙ ОДЕЖДЫ В ПЕРИОД ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА И СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОГО ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ, СООТВЕТСТВУЮЩЕГО ПОГОДЕ

**Аннотация.** В этой статье обсуждается важность выбора деталей одежды во время изменения климата и дается методическая основа для создания удобной, подходящей для погоды одежды. Он подчеркивает необходимость понимания воздействия изменения климата, выбора подходящих тканей, включая вентиляцию и воздухопроницаемость, изоляцию и тепло, водонепроницаемость, защиту от ультрафиолета и методы устойчивого проектирования.

**Ключевые слова:** изменение климата, детали одежды, одежда, подходящая для погоды, удобная одежда, экологичный дизайн, ткани, вентиляция, изоляция, водонепроницаемость, защита от ультрафиолета, экологичность, ответственная мода, сознательное потребление.

Iqlim o'zgarishi butun dunyo bo'ylab ob-havo sharoitlarini o'zgartiradigan asrda dizaynerlar va iste'molchilar uchun kiyim tanlashning qulaylik, funkcionallik va ekologik

barqarorlikka ta'sirini hisobga olish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Haddan tashqari harorat, oldindan aytib bo'lmaydigan ob-havo va fasllarning o'zgarishi yangi me'yorga aylanganda, moslashuvchan va ob-havoga mos kiyimlarga ehtiyoj hech qachon katta bo'lmagan.

Yuqori harorat va namlik bo'lgan hududlarda shamollatish va nafas olish qulay kiyim uchun asosiy omil hisoblanadi. Strategik shamollatish teshiklari, mash panellari va nafas oladigan matolarning kiritilishi havo oqimini oshirishga yordam beradi va qizib ketish xavfini kamaytiradi, bu esa egasining salqin va qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Sovuq iqlim sharoitida sovuq shamol va muzlash haroratidan himoya qilish uchun to'g'ri izolyatsiya zarur. Dizaynerlar tana issiqligini samarali ushlab turish uchun termal astarlar, shamolga chidamli matolar va sozlanishi yopilishlar kabi xususiyatlarni birlashtirishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi davri uchun kiyimlarni loyihalashda birinchi qadam maqsadli hududlarning o'ziga xos iqlim va atrof-muhit sharoitlarini tushunishdir. Dizaynerlar o'rtacha harorat, namlik, yog'ingarchilik va mavsumiy o'zgarishlarni hisobga olishlari kerak. Ushbu omillarni chuqur tushunish kiyim egalariga maksimal qulaylikni ta'minlaydigan zarur kiyim detallari va materiallarini aniqlashga yordam beradi.

To'g'ri matoni tanlash ob-havoga mos kiyim tayyorlashda juda muhimdir. Paxta, zig'ir va jun kabi tabiiy tolalar issiqroq sharoitda nafas olish va qulaylikni ta'minlaydi, poliester va neylon kabi sintetik materiallar esa sovuq havoda izolyatsiya va himoya bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, tencel yoki qayta ishlangan polyester kabi innovatsion barqaror matolar kiyim ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish uchun afzal ko'rilishi kerak.

Ekstremal ob-havo hodisalari va to'satdan yomg'ir yog'ishi bilan suvga chidamli yoki suv o'tkazmaydigan materiallarni kiritish juda muhimdir. Bu xususiyatlar kutilmagan yomg'ir yoki qor yog'ishi paytida egalarini quruq va qulay saqlashga yordam beradi.

Iqlim o'zgarishi ozon qatlamiga ta'sir qilganda, ultrabinafsha nurlanish yanada muhim tashvishga aylanadi. Dizaynerlar zararli nurlardan himoya qilish, terining shikastlanishi va sog'liq uchun potentsial xavflarni oldini olish uchun ultrabinafsha nurlaridan himoya qiluvchi matolar va quyoshdan himoya qiluvchi texnologiyalarni o'z ichiga olishi kerak.

Iqlim o'zgarishi davrida ekologik jihatdan ongli dizayn va ishlab chiqarish juda muhimdir. Dizaynerlar ekologik toza materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va dumaloq moda tushunchalarini qabul qilish kabi barqaror amaliyotga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Axloqiy ishlab chiqarish jarayonlari va adolatli mehnat amaliyoti ham mas'uliyatli va iqlimga mos moda sanoatiga hissa qo'shadi.

Iqlim o'zgarishi davrida dizaynerlar uchun kiyim-kechak yaratishda ko'p qirrali va abadiylik tushunchasini birinchi o'ringa qo'yish juda muhimdir. Fasllar o'rtasida muammosiz o'tishi va o'zgaruvchan ob-havo sharoitlariga bardosh bera oladigan kiyimlar nafaqat shkafni doimiy yangilab turish ehtiyojini kamaytiradi, balki barqaror moda madaniyatiga ham hissa qo'shadi. Klassik va abadiy dizaynlar modadan chiqib ketish ehtimoli kamroq bo'lib, uzoq muddatli kiyinishni rag'batlantiradi va moda sanoatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytiradi. Nafaqat hozirgi ob-havo tendentsiyalariga mos keladigan, balki kelajakdagi iqlim o'zgarishiga mos keladigan kiyimlarni loyihalash orqali sanoat modaga yanada mas'uliyatli va bardoshli yondashuv yo'lida muhim qadam tashlashi mumkin.

Iste'molchilarga ob-havoga mos kiyim tanlash haqida bilim berish iqlim o'zgarishi davrida bir xil darajada muhimdir. Marketing kampaniyalari, ta'lim tashabbuslari va aniq yorliqlash orqali

dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilar mijozlarga kiyim sotib olayotganda ongli qarorlar qabul qilishda yordam berishlari mumkin. Kiyim ishlab chiqarilgan o'ziga xos ob-havo sharoiti, parvarish bo'yicha ko'rsatmalar va barqaror xususiyatlar haqida ma'lumot berish iste'molchilarni iqlimga mos tanlovlarga yo'naltirishi mumkin. Bundan tashqari, ongli iste'mol kayfiyatini rag'batlantirish, qaerda sifatli, chidamlilik, va atrof-muhit ta'siri tez va bir martalik moda ustidan qadrlanadi, bizning o'zgaruvchan iqlim ehtiyojlari bilan hizalar mas'ul moda iste'mol madaniyatini mustahkamlash qiladi. Birgalikda ishlash orqali moda sanoati va iste'molchilar iqlim o'zgarishi davrida barqaror va qulay kiyim kelajagiga yo'l ochishlari mumkin.

**Xulosa qilib aytganda**, iqlim o'zgarishi sharoitida kiyim-kechak sanoati kiyim-kechak nafaqat moda, balki funktsional, moslashuvchan va ekologik jihatdan barqaror bo'lishini ta'minlab, dizaynga yondashuvini moslashtirishi kerak. Mintaqaviy iqlim naqshlarini tushunish, mos matolarni tanlash va o'ylangan tafsilotlarni o'z ichiga olgan holda, dizaynerlar o'zgaruvchan ob-havo sharoitida qulaylik va himoyani ta'minlaydigan kiyimlarni yaratishi mumkin. Bundan tashqari, moda sanoatining atrof-muhitga ta'sirini yumshatish uchun barqaror dizayn amaliyotini qo'llash juda muhimdir. Iste'molchilar sifatida ob-havoga mos, ekologik toza kiyimlarni tanlash ham yashil va iqlimni anglaydigan kelajakni targ'ib qilishda muhim rol o'ynashi mumkin.

#### REFERENCES

1. Peach S. Can fast fashion be sustainable? Yale Climate Connections, July 21 2020. <https://yaleclimateconnections.org/2020/07/can-fast-fashion-be-sustainable/>.
2. Drew D, Yehounme G. The Apparel Industry's Environmental Impact in 6 Graphics. World Resources Institute. 5 July 2017. <https://www.wri.org/blog/2017/07/apparel-industrys-environmental-impact-6-graphics>.
3. Cartner-Morley J. Stella McCartney to launch UN charter for sustainable fashion. Guardian, 29 November 2018.
4. Pookulangara S, Shephard A. Slow fashion movement: understanding consumer perceptions—an exploratory study. J Retail Consumer Serv 2013; 20:200–6.
5. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ

## “ГАП БЎЛАКЛАРИ” МАВЗУСИНИ АҲАМИЯТЛИ ТОМОНЛАРИ

Турдикулова Кумушой Махмудовна

Гулистон давлат университети Ўзбек тилшунослиги  
кафедраси магистранти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8209005>

**Аннотация.** Мазкур мақола ўзбек тилшунослиги муаммоларига, хусусан, гап бўлақларининг талқини масалаларига эътибор қаратади. Тадқиқотнинг мақсади ўзбек тилшунослигида гап бўлақлари мақомининг белгиланиши мезонларига муносабат билдиришдан иборат.

**Калим сўзлар:** гап, гап бўлақлари, эга, кесим, аниқловчи, тўлдирувчи, ҳол.

### SIGNIFICANT FACET OF THE TOPIC” GAP FRAGMENTS”

**Abstract.** This article focuses on the problems of Uzbek linguistics, in particular, on the issues of interpretation of sentence fragments. The purpose of the study is to react to the criteria for the designation of the status of sentence fragments in Uzbek linguistics.

**Key words:** sentence, sentence fragments, possession, cross section, determinant, complement, case.

### ЗНАЧИМЫЕ АСПЕКТЫ ТЕМЫ” ФРАГМЕНТЫ ПРЕДЛОЖЕНИЯ”

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблемам узбекского языкознания, в частности вопросам толкования частей речи. Цель исследования – дать ответ на критерии определения статуса частей речи в узбекском языкознании.

**Ключевые слова:** предложение, фрагменты предложения, притяжательный падеж, причастие, определитель, дополнение, падеж.

Гап таркибида тобе боғланиб маълум сўроққа жавоб бўлувчи сўз ёки сўзлар бирикмаси гап бўлаги дейилади. Масалан, *Ўқитувчимизга гул бердим*. Бу гапда учта гап бўлаги бўлиб, биринчиси (кимга?) *тўлдирувчи*, иккинчиси (нима(ни)?) *тўлдирувчи*, учинчиси (нима қилди?) *кесим* вазифасида келяпти<sup>1</sup>. Гапларни бўлақларга ажратиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Гапдаги сўзлар бир-бири билан ўзаро боғланган бўлиб, бу сўзларнинг ҳар бири гап таркибида бирор грамматик вазифани бажаради: Масалан: *Биз пахта режасини бажардик* (*биз*: олмош – эга; *бажардик*: феъл – кесим; *пахта*: от – аниқловчи; *режасини*: от – тўлдирувчи). Бунда мустақил сўзлар кўзда тутилади. Англашиладики, гап бўлақлари билан сўз туркумлари орасида маълум боғланиш бор. Гап бўлақлари синтактик категория бўлиб, гап таркибидаги элементларнинг ўзаро муносабатини, бу муносабатнинг характерини, гапнинг грамматик жиҳатдан қандай бўлақларга ажралишини, сўзнинг гапдаги ролини кўрсатади. Демак, бундай грамматик муносабатда гап бўлақларининг алоқасини, боғланишини кўрамиз<sup>2</sup>.

Ҳамма гапларнинг синтактик қурилиши ҳам гап бўлақларига ажратилавермайди. Бу нутқнинг асосини ташкил этувчи дискурс, яъни матн билан, матннинг серкирра ва мураккаблиги билан боғланади, албатта.

<sup>1</sup>Маҳкамов Н., Ерматов И. Тилшунослик терминларининг изохли lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013. – В. 38.

<sup>2</sup>Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Университети ва педагогика институти филология факультети талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 68.

Гап грамматик шаклланган, интонацион тугалликка эга бўлган, нисбий тугал фикр билдирадиган сўзлар комплексидан ёки айрим бир сўздан ташкил топади. *Гап бўлаклари* тушунчаси бирдан ортиқ сўздан ташкил топган гапларга татбиқ қилинади. Ёлғиз бир сўздан иборат бўлган гапларда (*бас, ҳа, йўқ* типидаги сўз-гапларда) гапнинг бўлаклари тўғрисида сўзлаш мумкин эмас<sup>3</sup>. Чунки гапнинг бўлаклари гап таркибидаги сўзларнинг маълум қонун-қоидалар асосида ўзаро боғланишидан ҳосил бўлган синтактик бутунликнинг қисмларидир.

Нутқ, уни ташкил этувчи матн орқали объектив олам нарса-ҳодисалари, уларнинг ўзаро муносабатлари инъикос этилади: объектив олам ва унинг нарса-ҳодисалариаро муносабатлари нутқ, матн воситасида лисоний жабҳага кўчирилади. Шу боис нутқ маъносида қўлланувчи “тил”ни “объектив олам кўзгуси” дейилади. Объектив оламнинг ижтимоий ва табиий ҳодисалари тил, унинг бирликлари, шу жумладан, *гап бўлаклари* орқали ҳам инъикос этилади. Масалан, гап орқали жамиятнинг энг кичик ячейкаси саналмиш *оила* инъикос этилади<sup>4</sup>. Маълумки, *оила* кичик бир кишилиқ жамоасидир. Бу жамоани *ота, она* ва *фарзандлар* ташкил қилади. Оиланинг бу аъзолари бири бошқаси билан ҳар хил тавсифдаги тобелиқ муносабатида бўладилар. Оиланинг *ота, она* ва *фарзандлар* каби аъзолари ва уларга хос ижтимоий муносабатлар *гап бўлаклари* орқали лисоний жабҳага кўчирилади: *гап* оиланинг, *гап бўлаклари* оила аъзоларининг лисоний жабҳадаги акслари, суратларидир.

Дарҳақиқат, эга *отанинг*, кесим *онанинг*, иккинчи даражали бўлақлар *фарзандларнинг* лисоний жабҳага кўчирилган аксларидир.

Демак, *оила* ва унинг аъзолариаро қандай муносабатлар бўлса, гап ва гап қурилишининг вазифавий бирликлариаро ҳам ўшандай муносабатлар амал қилади. Фарқи шундаки, *оила* ва унинг аъзолариаро боғланиш ва муносабатлар инсониятга хос *ижтимоий характерга* эга бўлса, гап ва унинг гап бўлаклариаро муносабатлар *лисоний характерга* эга бўлади.

Маълумки, юқорида ҳам айтилганидек, гап нутқий ҳодиса, унинг таркиби бири бошқасидан фарқ қилувчи турлари кўп. Нутқда *бир товушга, товушлар бирикмасига, бир сўзга* тенг келувчи *гаплар* ҳам бўлади. Бундай лисоний ҳодисалар, гарчанд гап ҳисобланса-да, уларнинг таркиби гап бўлаклари мақомидаги вазифавий бирликларга ажратилмайди. Масалан, “*Баҳор. Табиат гулдан либос кийган*” нутқий парчаси иккита мустақил гапдан ташкил топган. Буларнинг “*Табиат гулдан либос кийган*” шаклидагиси эга (*табиат*), кесим (*либос кийган*) ва воситали тўлдирувчи (*гулдан*) сингари вазифавий бирликларга, яъни гап бўлақларига ажратилади. Бу гап таркибида бири бошқасини тақоза этувчи лисоний муносабатдошлиқ бор: эга (*табиат*) мослашув алоқаси ва предикатив муносабатга кўра кесимни (*либос кийган*), кесим келишикли бошқарув алоқаси ва объектли муносабатга кўра, воситали тўлдирувчини (*гулдан*) тақоза этиб, уларни бошқараётир. Матннинг “*Баҳор*” сўзи билан ифодаланган жумласида эса, бири бошқасини лисоний жиҳатдан тақоза этувчи вазифавий бирликлар йўқ, шунингдек, “*баҳор*” сўзи, гарчанд фонетик жиҳатдан шаклланган тўлақонли гап ҳисобланса-да, унга, шаклига қараб, эга мақомини бериш мумкин эмас (чунки “*баҳор*” сўзи “*Баҳор йилнинг энг гўзал фаслидир*” гапида эга

<sup>3</sup>Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 114.

<sup>4</sup>Бердиалиев А. Ўзбек тили синтаксиси. Олий ўқув юрти ўзбек тили ва адабиёти бакалаврлари учун қўлланма. – Хужанд: Раҳим Жалил, 2014. – 168 б.

вазифасида ажратилади). “Баҳор. Табиат гулдан либос кийган” нутқий парчасидаги “Баҳор”ни эга деб бўлмайди, негаки унинг “эга”лигини тақоза этувчи лисоний корреляти – кесим йўқ.

Айрим адабиётларда *синтактик алоқа* гап бўлақларининг асосий белгисидир<sup>5</sup> дейилса, бошқа адабиётларда *синтактик алоқа* гапнинг бўлақлари билан *ундалма* ва *кириш сўзлар* ўртасидаги фарқни аниқлаш учун имкон беради, деб қайд этилган. Ундалма ва кириш сўзлар гап таркибидаги сўзлар билан синтактик алоқага киришмайди. Шунга кўра, улар одатда гапнинг бўлақлари ҳисобланмайди<sup>6</sup>.

“*Белгиланган қурилиш объектига этиб келдик. Ишляяпмиз*” матни ва унинг синтактик қурилишига эътибор берайлик. Бу нутқ парчасининг биринчи “*Белгиланган қурилиш объектига этиб келдик*” гапида кесим (*этиб келдик*), ўрин ҳоли (*қурилиш объектига*) сингари гап бўлақларига ажралади. Бу гап таркибидаги ўрин ҳоли (*қурилиш объектига*) кесим (*этиб келдик*) га келишкли бошқарув воситасида тобеланган, улараро релятив (ҳолли) муносабат мавжуд.

Кўшма гаплар тизимида, қайси турга мансублигидан қатъий назар, унинг предикатив қсмлари кўпинча кесим шаклидаги бир сўздан иборат (яъни бир бош бўлақли гаплар) характерида бўлади. Бундай жумлалар таркибининг кесим шаклидаги предикатив қисми гап бўлақларига ажратилмайди. Масалан, *Олам аҳли, билингизким, иш эмас душманлик* (А.Навоий). *Кимки икки кема учин тутса, гарқ бўлур* (А.Навоий) жумлаларининг биринчиси “бош гап+эргаш гап” андозасида воқеланган эргаш гапли кўшма гапдир. Бу полипредикатив жумла синтактик қурилишининг биринчи компоненти (*билингиз*) бош гап тавсифидаги вазифавий бирликдир. У шаклан кесимга ўхшайди. Иккинчи жумла эса, “эргаш гап+бош гап” тартибида тузилган синтетик тип эргаш гапли кўшма гапдир<sup>7</sup>. Бу полипредикатив жумланинг иккинчи компоненти эргаш гап тавсифидаги вазифавий бирликдир, бу ҳам шаклан кесимга ўхшайди. Бироқ гап бўлақлари таҳлилида, гарчи кесим шаклида бўлса-да, биринчи жумла таркибидаги *билингиз...*, иккинчи жумла таркибидаги *гарқ бўлур* сўзларини гап бўлаги (яъни кесимлар) сифатида ажратиш хато ҳисобланади. Чунки бу сўзларнинг (*билингиз, гарқ бўлур*) мазкур гаплар таркибида кесимлигини тақозо этувчи ё эга, ё тўлдирувчи, ё ҳол сингари бирорта ҳам функционал корреляти йўқ. Таркиби бирор-бир гап бўлаги шаклида бўлса-да, гап бўлаги мақомида ажратилмайдиган гаплар нутқда (хусусан, жонли ва бадий нутқда) ниҳоятда кўп учрайди. Масалан:

1. Айтдим, келади.
2. Изладим, йўқ.
3. Келсанг, майли.
4. Бораман, кутиб тур.

Бу жумлаларнинг *биринчиси* воқеа-ҳодиса кетма-кет юзага келадиган воқеа-ҳодисаларни, *иккинчиси* зид маъноли воқеа-ҳодисаларни, *учинчи* биринчи қисмининг

<sup>5</sup>G'olomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi. Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2012. – B. 292.

<sup>6</sup>Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 115.

<sup>7</sup>Бердиалиев А., Шеронов Б. Ўзбек тили синтаксиси. – Хужанд, 2011. – Б. 45.

маъноси иккинчисига шартни ва *тўртинчиси* кетма-кет юзага келувчи воқеа-ҳодисаларни билдирувчи боғланган қўшма гапларнинг боғловчисиз муқобилларидир<sup>8</sup>.

Уларнинг предикатив бирлик характеридаги ҳар икки компонентлари ҳам кесим шаклидаги бир сўз билан ифодаланган. Бироқ бу боғловчисиз қўшма гапларнинг таркиби *гап бўлаклари* бўйича таҳлил қилинмайди.

Гап таркибидаги *эга* шаклидаги сўзни расман лисоний *эга* мақомида ажратиш учун, уни мослашув алоқаси ва предикатив муносабатга кўра тақоза этувчи кесим бўлиши керак. Кесим шаклидаги сўз шаклининг расман лисоний кесимлик мақоми учун, юқорида ҳам айтилганидек, *ё эга*, *ё тўлдирувчи*, *ё ҳол* шаклидаги сўз (*ёки сўз бирикмаси*) бўлиши, албатта, шарт. Аниқловчи мақомидаги иккинчи даражали бўлакнинг (*қаратқич аниқловчи*, *сифатловчи аниқловчи*, *изоҳловчи бўлишидан қатъий назар*) белгиланиши учун *эса*, *аниқловчи шакли* ва *мавқеидаги сўзларни тобелантирувчи* от орқали ифодаланган сўзнинг (*қаралмиш*, *сифатланмиш*, *изоҳланмиш*) албатта бўлиши шарт ва зарур. Тўлдирувчи ва ҳол шаклидаги сўз шакли *ёки сўз бирикмасининг* расман лисоний мақомда ажратилиши шу сўз шакллари ва сўз бирикмалари мавжуд бўлган жумла таркибида тўлдирилмиш ва ҳолланмиш (*тўлдирувчи* ва *ҳолни бошқарган кесимлар*) характеридаги бўлакнинг, яъни кесимнинг бўлиши, албатта, талаб қилинади<sup>9</sup>.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, гапни бўлақларга, бўлақларни функционал турларга ажратиш табиий заруратдир. Акс ҳолда гапни грамматик аспектда ўрганиш ғояси йўқолади.

## REFERENCES

1. Бердиалиев А. Ўзбек тили синтаксиси. Олий ўқув юрти ўзбек тили ва адабиёти бакалаврлари учун қўлланма. – Хужанд: Раҳим Жалил, 2014. – 168 б.
2. Бердиалиев А., Шеронов Б. Лисоний ортиқчалик ва гап бўлақларининг ажратилиши. – Хужанд, 1998. – 80 б.
3. Бердиалиев А., Шеронов Б. Ўзбек тили синтаксиси. – Хужанд, 2011. – 172 б.
4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013. – 144-b.
5. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
6. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Университети ва педагогика институти филология факультети талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б.
7. G'lomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi. Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2012. – 380-b.
8. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). Science and innovation, 2(B3), 30-33.

<sup>8</sup>Бердиалиев А., Шеронов Б. Лисоний ортиқчалик ва гап бўлақларининг ажратилиши. – Хужанд, 1998. – 80 б.

<sup>9</sup>Бердиалиев А. Ўзбек тили синтаксиси. Олий ўқув юрти ўзбек тили ва адабиёти бакалаврлари учун қўлланма. – Хужанд: Раҳим Жалил, 2014. – Б. 68.

9. Ganieva, M. (2023, June). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
10. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЌЗ САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 12
11. Ганиева, М. А., Муродинова, Н. Р., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Трудности при изучении многозначных глаголов русского языка учащимися-узбеками средних общеобразовательных школ. Проблемы педагогики, (3 (35)), 108-109.
12. Kizi, G. M. A., & Kizi, B. L. A. (2018). The diversities in terminology of relationship. Достижения науки и образования, (9 (31)), 22-23.
13. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.



## СОВРЕМЕННЫЙ ВЗГЛЯД В ИЗУЧЕНИИ ПАТОЛОГИИ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ

**А.С.Ильясов**

Доктор биологических наук

**Б.С.Умаркулов**

**Г.А.Умаркулова**

**У.И.Ёдгоров**

Бухарский медицинский институт,  
Эндокринолог Республиканского центра эндокринологии  
Джизакского филиала  
Семейная поликлиника г.Джизака  
Бухарский инновационный медицинский институт

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8210121>

***Аннотация.** Современный взгляд в изучении патологии щитовидной железы. Патология, связанные с нарушением деятельности щитовидной железы на территории Узбекистана имеют широкое распространение, так как патология развивается в результате нарушения баланса в окружающей среде химических элементов, в частности йода, который имеет значение для нормальной жизнедеятельности организма, а также из-за расхождений в пропорциях между микро и макроэлементами, находящимися в почве. Клинически тиреотоксикоз проявляется угнетением, исхуданием, тремором конечностей, туловища, языка, слабостью мышц, офтальмопатией, одышкой, учащением дыхания, тахикардией и беспокойным сном, увеличением щитовидной железы. Учёные всего мира создают новые комбинации лекарственных средств, но все-таки проблема тиреотоксикоза до сих пор остается глобальной проблемой, требующее дальнейшего морфопатологических изучений внутренних органов при моделировании патологии щитовидной железы.*

***Ключевые слова:** щитовидная железа, гипотиреоз, гипертиреоз, тиреотоксикоз, болезнь Грейвса, морфология, крысы.*

## MODERN VIEW IN THE STUDY OF PATHOLOGY THYROID GLAND

***Abstract.** Modern view in the study of pathology thyroid gland. Pathology associated with thyroid disorders in Uzbekistan are widespread, as the pathology develops as a result of a violation of the balance of chemical elements in the environment, in particular iodine, which is important for the normal functioning of the body, as well as due to discrepancies in the proportions between micro- and macroelements found in the soil. Clinically, thyrotoxicosis is manifested by depression, emaciation, tremor of the limbs, trunk, tongue, muscle weakness, ophthalmopathy, shortness of breath, increased breathing, tachycardia and restless sleep, an increase in the thyroid gland. Scientists around the world are creating new combinations of drugs, but still the problem of thyrotoxicosis is still a global problem that requires further morphopathological studies of internal organs in modeling thyroid pathology.*

***Key words:** thyroid gland, hypothyroidism, hyperthyroidism, thyrotoxicosis, Graves' disease morphology, rats.*

**Введение.** Патологии связанные с нарушением деятельности щитовидной железы на территории Узбекистана имеют широкое распространение, так как патология развивается в результате нарушения баланса в окружающей среде химических элементов, в частности йода, который имеет значение для нормальной жизнедеятельности организма, а также из-за расхождений в пропорциях между микро - и макроэлементами, находящимися в почве. Тиреотоксикоз клинически проявляется угнетением и тремором конечностей, туловища, языка, слабостью мышц, офтальмопатией, одышкой, учащением дыхания, тахикардией, и беспокойным сном, увеличением щитовидной железы.

Повышение уровня гормонов щитовидной железы может вызвать многочисленные состояния, (Ди Джироламо 2018) которые варьируются от легких случаев до опасных для жизни заболеваний. Гипертиреоз не является распространенным фактором риска венозного тромбоза, многие исследования выявили связь между гипертиреозом и тромбоэмболией.

Исследование гипертиреоз и факторы риска сердечно-сосудистых заболеваний (П. Иглесиас 2022) показали, что распространенность гипертиреоза чаще встречалась у женщин (*в 2,48 раза*), чем у мужчин, и увеличивалась с возрастом. По данным авторов в 2019 г. у 384182 человек из них 300243 женщины (78,1%) был диагностирован гипертиреоз, что составляет 1,0% населения с проблемами со здоровьем.

Когда рассматривалась вся популяция, распространенность артериальной гипертензии (34,90% против 19,9%; дислипидемии (34,47% против 21,57%; диабет (12,88% против 8,12%; и курение (10,89% против 7,61%; были значительно ( $p < 0,0001$ ) выше среди населения с диагнозом гипертиреоз по сравнению с лицами без этого диагноза. Эти существенные различия сохранялись как у женщин, так и у мужчин.

Изучением Р. Хасанато и Дж. А. Мира (2017) было выявлено, что большинство пациентов, из которых были женщинами (80%), тогда как (20%) были мужчинами, средний возраст выявленных пациентов составил ( $42,3 \pm 14,5$  года; диапазон 18–80 лет). Из всех больных у 3-х (1%) больных был тромб головного ветвя (ТГВ), у 3 (1%) —тромбоэмболия легочных артерий (ТЭЛА), у 2 (0,7%) — церебральная эмболия. Уровень тиреотропного гормона (ТТГ) имеет значительную связь с общим риском ТГВ, ТЭЛА и церебральной эмболии.

Гипертиреоз является распространенным заболеванием (С. Де Лео и С.Ю. Ли 2016) с глобальной распространенностью 0,2–1,3%. Когда возникает клиническое подозрение на гипертиреоз, его следует подтвердить биохимическими тестами (например, низкий уровень ТТГ, высокий уровень свободного тироксина (FT<sub>4</sub>) или высокий уровень свободного трийодтиронина (FT<sub>3</sub>). Если гипертиреоз подтверждается биохимическими исследованиями, необходимо провести нозологическую диагностику, чтобы выяснить, какое заболевание вызывает гипертиреоз.

По мнению Л.Е. Бравермана и др. (2016) полезными инструментами являются антитела к рецептору ТТГ, антитела к пероксидазе щитовидной железы, УЗИ щитовидной железы и сцинтиграфия. Гипертиреоз чаще всего вызывается гипертиреозом Грейвса (70%) или токсическим узловым зобом (16%). Гипертиреоз также может быть вызван подострым гранулематозным тиреоидитом (3%) и лекарственными препаратами (9%), такими как амиодарон, ингибиторы тирозинкиназы и ингибиторы контрольных точек иммунного ответа.

Болезнь Грейвса характеризуется диффузным увеличением и повышенной активностью щитовидной железы, которые могут сопровождаться другими физическими симптомами. Среди них депрессия может резко ухудшить качество жизни пациентов, однако ее распространенность при Болезнь Грейвса не получила должного внимания.

Некоторые исследования установили сильную корреляцию между Болезнь Грейвса и повышенным риском депрессии, хотя данные текущего исследования остаются ограниченными. Резюме механистических представлений о Болезнь Грейвса и депрессии подкрепило возможные пути, которыми этот болезнь способствует депрессии.

В этом обзоре мы впервые обобщили клинические данные, подтверждающие повышенную распространенность депрессии при Болезнь Грейвса. Все больше доказательств указывает на то, что данная патология способствует развитию депрессии с помощью различных механизмов, включая запуск аутоиммунных реакций, индицирование гормональных нарушений и влияние на ось щитовидная железа-кишечник-микробиом-мозга Ифэй Сун и др. (2023).

В настоящее время гипертиреоз Грейвса предпочтительно лечат анти тиреоидными препаратами. Однако, рецидив гипертиреоза после 12–18-месячного курса анти тиреоидных препаратов возникает примерно у 50% больных. Моложе 40 лет, наличие  $FT_4$  концентрации, которые составляют 40 пмоль/л или выше, наличие ТТГ-связывающих ингибирующих иммуноглобулинов выше 6 ЕД/л и наличие размера зоба, эквивалентного или превышающего степень 2 по ВОЗ до начала лечения анти тиреоидными препаратами увеличиваются риск рецидива. Длительное лечение анти тиреоидными препаратами (*т.е. 5-10 лет лечения*) осуществимо и связано с меньшим количеством рецидивов (15%), чем краткосрочное лечение (*т.е. 12-18 месяцев лечения*). Токсический узловый зоб в основном лечат радиоактивным йодом ( $^{131}I$ ) или тиреоидэктомия и редко лечится радиочастотной абляцией. Тейлор П.Н (2018).

По данным Дж. Коорнстра и М.Н.Керстенса (2021) деструктивный тиреотоксикоз обычно протекает легко и преходяще, и только в тяжелых случаях требуется применение стероидов. Особое внимание уделяется пациенткам с гипертиреозом, которые беременны, имеют COVID-19 или имеют другие осложнения (*например, фибрилляцию предсердий, тиреотоксический периодический паралич и тиреотоксический криз*). Гипертиреоз связан с повышенной смертностью. Прогноз может быть улучшен при быстром и устойчивом контроле гипертиреоза. Ожидается, что новые инновационные методы лечения болезни Грейвса будут нацелены на В-клетки или рецепторы ТТГ.

Исследование Петруленене и Лауцявичюс А (2018) показывает, что диагноз гипертиреоза в значительной степени связан с основными показателями скорости клубочковой фильтрации у населения Испании, обращающегося за первичной медико-санитарной помощью, независимо от пола пациентов. Эта ассоциация исчезает у пациентов в возрасте 65 лет и старше с диагнозом диабет.

По мнению Э. Сёнмез (2019) среди пациентов 367 имели явный гипертиреоз. Показатели свТ3, свТ4 и СКФ снизились, в то время как уровни мочевины, креатинина и ТТГ значительно увеличились после достижения эутиреоза ( $p < 0,0001$  для всех). Корреляционный анализ показал, что  $r$  СКФ при гипертиреозе ( $r$  СКФ) и  $fT_3$  при гипертиреозе ( $fT_3h$ ) ( $r = 0,210$ ,  $p < 0,0001$ ) и  $fT_4$  при гипертиреозе ( $fT_4h$ ) ( $r = 0,176$ ,  $p <$

0,0001), значительно коррелировали. рСКФ не отличалась между группами с явным гипертиреозом и субклинической группой гипертиреоза

Мы наблюдали значительное снижение показателей р СКФ после того, как пациенты достигли эутиреоидного состояния. У некоторых из этих пациентов значения были ниже 60 мл/мин/1,73 м<sup>2</sup>, что означает, что гипертиреоз может маскировать легкую почечную недостаточность. О.Булур и Д.Т.Эртугрул (2019).

Роль гипертиреоза в ремоделировании печени у крыс. была изучена Е.Л Холодковой и соавторами (2012г). По ходу исследования был сделан вывод: результатом хронического воздействия повышенной концентрации тиреотропного гормона на организм крыс проявляется значительными патоморфологическими изменениями ткани печени, характеризующиеся признаками ремоделирования. При этом развитие фиброзных изменений печени по типу неполного септального цирроза больше характерно для самцов экспериментальных животных. Последующие иммуногистохимические исследования позволят выявить механизмы возникновения фиброза. Существует необходимость проведения подобных экспериментов для определения динамики возникновения фиброзных изменений печени

Известно, что заболевания щитовидной железы влияют на метаболизм головного мозга и когнитивные функции, хотя восстановление вызванных щитовидной железой функциональных изменений головного мозга после лечения остается неясным. Мы стремились исследовать изменение функциональной связи мозга и его корреляцию с нейропсихологическими переменными у пациентов с гипертиреозом до и после антитиреоидного лечения с использованием метода функциональной магнитно-резонансной томографии (rsfMRI) в состоянии покоя. Это последующее исследование rsfMRI предыдущей работы, которое показало нарушение функциональной связи мозга у пациентов с гипертиреозом по сравнению со здоровым контролем. Мы включили rsfMRI и нейропсихологические данные 21 пациента с гипертиреозом из исходной группы из 28 пациентов до и после антитиреоидного лечения в течение 30 недель. Анализ функциональной связности и нейропсихологические показатели сравнивались с использованием парных t-тестов у пациентов в начале исследования и при последующем наблюдении. У пациентов отмечалось улучшение некоторых показателей памяти ( $p < 0,05$ ) и исполнительных, зрительно-пространственных и моторных ( $p < 0,001$ ) функций после лечения, а также повышение функциональной связности в областях правой лобно-теменной сети, левой лобной - парietальной сети и сети режима по умолчанию (DMN) ( $p < 0,05$ ). При последующем наблюдении функциональная связность правой лобно-теменной сети показала значительную положительную корреляцию с оценкой памяти распознавания объектов. Общие результаты свидетельствуют о том, что антитиреоидных терапии карбимазолом улучшает функциональную связь в некоторых сетях состояния покоя у пациентов с гипертиреозом. М. Кумар и др. (2021).

Заболевания, связанные с нарушением деятельности щитовидной железы на территории Узбекистана имеют широкое распространение, так как патология развивается в результате нарушения баланса в окружающей среде химических элементов, в частности йода, который имеет значение для нормальной жизнедеятельности организма, а также из-за расхождений в пропорциях между микро и макроэлементами, находящимися в почве.

Клинически тиреотоксикоз проявляется угнетением, исхуданием, тремором конечностей, туловища, языка, слабостью мышц, офтальмопатией, одышкой, учащением дыхания, тахикардией и беспокойным сном, увеличением щитовидной железы. Учёные всего мира создают новые комбинации лекарственных средств, но все-таки проблема тиреотоксикоза до сих пор остается глобальной проблемой, требующее дальнейшего морфопатологических изучений внутренних органов при моделировании патологии щитовидной железы. А.С.Ильясов; Б.С.Умаркулов; Г.А.Умаркулова (2023)

Выводы: анализ литературы показывает, что ученые вкладывают огромные усилия в изучение патологии щитовидной железы в особенности тиреотоксикоза и его лечения, но патоморфология паренхиматозных органов и других желез внутренней секреции при гипертиреозе остаются до конца не изученными.

### REFERENCES

1. Тейлор П.Н., Альбрехт Д., Шольц А. и др. Глобальная эпидемиология гипертиреоза и гипотиреоза. Нат Рев Эндокринолог. 2018;14(5):301-316.
2. Юдиарто Ф.Л., Мулиади Л., Моэльянто Д., Хартоно Б. Нейропсихологические данные у пациентов с гипертиреозом. Rev Endocr Metab Disord. 2017 март; 18 (1): 131-144 - [PubMed](#).
3. Де Лео С., Ли С.Ю., Браверман Л.Е. Гипертиреоз. Ланцет. 2016; 388: 906–18. – ЧВК - [PubMed](#).
4. Хасанато Р., Мира Дж. А., Аль-Шахрани Н., Альфулайи Н., Альмутаири А. Заболеваемость щитовидной железой у взрослых женщин из Саудовской Аравии, посещающих больницу третичного уровня в Эр-Рияде. Эпидемиол (Саннивейл) 2017; 7:286.
5. Гармендиа Мадариага А., Сантос Паласиос С., Гильен-Грима Ф., Галофре Х.С. Заболеваемость и распространенность дисфункции щитовидной железы в Европе. Метаанализ. J Clin Endocrinol Metab. 2014;99:923–31. - [PubMed](#).
6. Идда М.А., Махария Б.Н., Нг'вена А.Г., Кетер А., Офулла А.В. Уровни гормонов щитовидной железы и гематологических показателей у пациентов с заболеваниями щитовидной железы в Учебно-справочной больнице Мои, Западная Кения. ISRN Эндокринолог. 2013;2013:385940. – ЧВК - [PubMed](#).
7. Диес Дж.Дж., Иглесиас П.Мед Клин (Барк).2023 21 апреля; 160 (8): 333-340. doi: 10.1016/j.medcli.2022.09.022. Epub 2022 15 декабря.PMID:
8. Мукеш Кумар., Мулиади Л., Моэльянто Д., Хартоно Б. Нейропсихологические данные у пациентов с гипертиреозом. Акта Мед Индонес. 2016;38(1):6-10.
9. Эзги Сёнмез,Октай Булур, Дерун Танер Эртугрул, Кубилай Шахин, Эсин Беян, Курсат Даль Эндокринный.2019 июль; 65 (1): 144-148. doi: 10.1007/s12020-019-01903-2.
10. Петруленене Ж., Лауцявичюс А., Петрилайте М., Маскелюнайте Д., Пуронойте Р., Ковайте М., Калибайтайте И., Ринкунене Е., Дженкявичюте В., Касюлявичюс В.Здоровье липидов Дис. 2018 19 апреля;
11. Koornstra JJ, Kerstens MN, Hoving J, Visscher KJ, Schade JH, Gort HB, Leemhuis MP.Нет J Med. 2021 ноябрь;55(5):215-21. doi: 10.1016/s0300-2977(99)00066-2.PMID: 10593131

12. Ифэй Сун, Andersen S, Latif R, Nagayama Y, Barbesino G, Brito M, et al. Болезнь Грейвса. *Nat Rev Dis Primers* (2020) 6 (1): 52. doi: 10.1038/s41572-020-0184-y
13. Чикатьелло, АГ; Ди Джироламо, Д.; Дентис, М. Метаболические эффекты внутриклеточной регуляции гормона щитовидной железы: старые игроки, новые концепции. *Передний. Эндокринология*. 2018, 9, 474.
14. Ломбарди, А.; Морено, М.; Де Ланге, П.; Иосса, С.; Бузиелло, РА; Goglia, F. Регуляция митохондриальной активности скелетных мышц с помощью гормонов щитовидной железы: внимание на «старый» трийодтиронин и «появляющийся» 3,5-дйодтиронин. *Передний. Физиология*. 2015, 6, 237.
15. Гао, Ф.; Чжан, Дж. Контроль качества митохондрий и нейродегенеративные заболевания. *Нейрональный сигнал*. 2018, 2, NS20180062.
16. Венедиктова, Н.И.; Мащенко, О.В.; Таланов, Э.Ю.; Белослудцева, Н.В.; Миронова Г.Д. Энергетический обмен и окислительный статус митохондрий печени крыс в условиях экспериментально индуцированного гипертиреоза. *Митохондрия* 2020, 52, 190–196.
17. А.С.Ильясов; Б.С.Умаркулов; Г.А.Умаркулова (2023). профилактические и лечебные мероприятия при тиреотоксикозе, и его отрицательное воздействие на внутренние органы. *Ветеринарная медицина. Самарканд*. 2023. 146-148 стр.
18. А.С.Ильясов, д.б.н.; У.И.Ёдгоров, ассистент, Бухарский инновационный медицинский институт. СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ВНУТРЕННИХ ОРГАНОВ И СИСТЕМ КРЫС НА ФОНЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ГИПО - И ГИПЕРТИРЕОЗА. *Ветеринарная медицина. Самарканд*. 2023. 62-63 стр.

## AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANISHIDA XIZMAT KO'RSATISHNING MUXIM STRATEGIK XUSUSIYATLARI

Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich

Namangan davlat universtiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8210341>

**Annotatsiya.** Elektron axborot almashinuviga kompyuter texnologiyalardan foydalanish, interaktiv video, tezkor bank va investitsiya xizmatlari, uyda xarid qilish, elektron pochta va ma'lumotlar bazasi almashinuvlari kiradi. Ushbu texnologik o'zgarishlar natijasida ko'plab mamlakatlar xalqaro miqyosda iqtisodiy raqobatlashish uchun telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va yangilashga e'tibor qaratmoqdalar. Shuning uchun telekommunikatsiya sohasi xorijiy investorlarga juda istiqbolli bozorni taklif etadi, bu ham davlat tomonidan tartibga solinishi, ham ko'p millatli biznes imkoniyatlarini kengaytirishi bilan bog'liq hisoblanadi. Ushbu tayyorlangan maqolada aholiga ko'rsatilgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlarini tahlillari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** telekommunikatsiya, infratuzilma, keng polosali, yuqori tezlikdagi internet, iqtisodiy o'sish, aloqa, axborot, noshirlik xizmati, mobil xizmati, infokommunikatsiya.

### IMPORTANT STRATEGIC FEATURES OF SERVICE IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES

**Abstract.** Electronic information exchange includes the use of computer technology, interactive video, instant banking and Investment Services, Home Shopping, email and database exchanges. As a result of these technological changes, many countries are focusing on developing and upgrading telecommunications infrastructure to compete economically internationally. Therefore, the telecommunications sector offers a very promising market to foreign investors, which is considered both to be regulated by the state and to expand the capabilities of multinational business. This prepared article covers the analysis of communication and information and communication services provided to the population.

**Keywords:** telecommunications, infrastructure, broadband, high-speed internet, economic growth, communication, information, publishing service, mobile service, infocommunication.

### ВАЖНЫЕ СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОКАЗАНИЯ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** Электронный обмен информацией включает использование компьютерных технологий, интерактивное видео, мгновенные банковские и инвестиционные услуги, покупки на дому, электронную почту и обмен базами данных. В результате этих технологических разработок многие страны сосредоточились на развитии и модернизации своей телекоммуникационной инфраструктуры для экономической конкуренции на международном уровне. Таким образом, телекоммуникационная отрасль предлагает иностранным инвесторам очень перспективный рынок, который считается связанным как с государственным регулированием, так и с расширением возможностей многонационального бизнеса. В данной подготовленной статье освещается анализ предоставляемых населению услуг связи и информационно-коммуникационных услуг.

*Ключевые слова: телекоммуникации, инфраструктура, широкополосный доступ, высокоскоростной интернет, экономический рост, связь, информация, издательские услуги, мобильная связь, инфокоммуникации.*

**Kirish.** Bizning hozirgi asrimiz "Axborot inqilobi" deb ta'riflangan sayyoramizga ulkan o'zgarishlar va innovatsiyalar olib kelgan sanoat rivojlanishining uzluksizligi bo'ylab yangi davrni olib keldi. Aloqa va kompyuter sanoatining yaqinlashishi tufayli bir vaqtlar jismoniy shaklda almashinadigan ma'lumotlar endi elektron shaklda uzatilmoqda. Hozirgi vaqtda telekommunikatsiya tizimlari va tarmoqlariga asoslangan zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanmaydigan tarmoq texnologiyalarini ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ta'minlaydigan harakatlantiruvchi kuch mavjud emas.

Globalashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Axborotlashtirish jarayoni amalga oshiriladigan zamonaviy texnologiya sivilizatsiyaning rivojlanishi axborot jamiyatini global miqyosda ishlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali jamiyatning barcha tizimlarida axborot resurslarini shakllantirish va iste'mol qilishni o'z ichiga olgan yangi ijtimoiy voqelik sifatida qabul qilishga yordam beradi. Axborot va bilim zamonaviy jamiyatning axborot resursini tashkil qiladi. Moddiy, shu jumladan texnik resurslardan farqli o'laroq, axborot resursi deyarli tugamaydi, uning zaxiralari faqat jamiyat rivojlanishi va iste'mol darajasi bilan ortadi. Ushbu resurs sub'ektlarning o'ta ijodiy intellektual mehnati natijasida shakllanadi va ilmiy bilimlarni jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga kiritish shaklidir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni quyidagilar yordamida sifatni yaxshilash sifatida talqin qilinishi kerak.

Jamiyatni axborotlashtirish, shuningdek, shaxsning ijodiy salohiyatini va uning axborot muhitini sezilarli darajada oshirishga yordam beradigan ijtimoiy intellektualizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida har yili axborotlashtirish masalalariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. AKT sohasini rivojlantirishni tartibga soluvchi yangi qonunlarning qabul qilinishi bilan birgalikda mamlakatda O'zbekistonning axborot jamiyatiga aylanish yo'lida rivojlanishiga hissa qo'shadigan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonni axborotlashtirishning yutuqlari va yaqin kelajakda nima qilish kerakligi haqida ushbu maqolada batafsil tahlillar bilan to'xtalamiz.

**Metodlar.** Aloqa va axborot texnologiyalari bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa ko'plab tarmoqlariga qaraganda ancha jadal va samarali rivojlanmoqda. Hozirgi vaqtda ushbu sohaning iqtisodiyotimiz uchun ahamiyati shundaki, u barcha sohalarda taraqqiyotning kaliti bo'lib xizmat qiladi va "xom ashyo" dan "innovatsion" relslarga o'tishda asosiy rollardan birini o'ynashi mumkin. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotini sezilarli darajada o'zgartirishi, odamlarning hayot sifatini yaxshilashi va raqamli tengsizlikni bartaraf etish kabi ustuvor vazifalarni hal qilishda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Strategiya o'z vaqtida hujjat edi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotda innovatsion yo'lni bosib o'tmoqda. Aynan iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sohasi bo'lgan axborot texnologiyalari sohasi O'zbekistonda ichki iqtisodiyot o'sishining innovatsion modelini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biriga aylanishi mumkin.



Shunday qilib, jamiyatning barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va ulardan keng foydalanishga asoslangan axborot jamiyatini rivojlantirish iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini, odamlar turmush farovonligini oshirish va xavfsizlikni mustahkamlashning umumiy vazifasining bir qismi bo'lib qolmoqda.

Tahlilchilar 2023 yilda global miqyosda elektronika va gadjetlarga talab pasayishda davom etishini taxmin qilmoqda. 2022 yilga nisbatan pasayish 5,1 foizni tashkil qilishi mumkin, yakuniy natija esa 685,6 milliard dollarni tashkil etadi. Mutaxassislar fikricha, IT-sanoatning boshqa barcha segmentlarida o'sish kuzatiladi.

Shunday qilib, dasturiy ta'minot sohasida sotuvlar 9,3 foizga - 856 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda. IT xizmatlari yiliga 1,31 trillion dollar - plus 5,5 foiz daromad keltiradi. Aloqa xizmatlarida xarajatlar 1,42 trillion dollar miqdorida qoladi. Data-markazlar (*Ma'lumotlarning yagona bazasi turli axborotni kerak bo'lganida bir-biri bilan taqqoslashi va undan foydalanishi mumkin. Masalan, qutqaruv xizmatiga qo'ng'iroq qilinganida jabrlangan kishining joylashgan joyi haqida, kasalxonaga yotqizilganida esa – uning tibbiy daftarchasi haqida ma'lumot olish mumkin. Ko'chada kimdir to'pponchadan o'q uzganida esa axborot gumonlanuvchi shaxsning kameradan olingan rasmi bilan avtomatik tarzda politsiyachilarga kelib tushishi mumkin.*) uchun tizimlarni yetkazib berish yiliga 0,7 foizga oshib, 213,9 milliard dollarni tashkil etadi.

Umuman olganda, 2023-yilda AKT bozori hajmi 4,5 trillion dollarga yetishi mumkin, bu 2022-yilga nisbatan qariyb 2,4 foizga o'sgan.

Dasturiy ta'minot narxining o'sishi bilan bir qatorda IT xizmatlari bozori ham o'sib bormoqda. Masalan, Gartner tadqiqotiga ko'ra, konsalting xarajatlari 2023-yilda 264,9 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu 2022-yilga nisbatan 6,7 foizga ko'p.

Axborot texnologiyalari orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimining joriy etilishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorligi samaradorligini, xizmatlarning mavjudligini oshirish, hujjatlarni qayta ishlash jarayonida fuqarolar duch keladigan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, axborotlashtirishning yangi darajasiga erishish imkonini berib, hokimiyatlarning ochiqligi va shaffof xizmat turlarini kashf etishga zamin yaratildi.

Hozirgi vaqtda Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) insoniyatning ob'ektiv faoliyatining har qanday sohasida qo'llaniladi. Qaranki, dunyo bo'ylab 2023 yil boshiga kelib 7,83 mlrd aholidan jami 4,66 mlrd insonlar faol internetdan foydalanuvchilar hisoblanadi, bu dunyo aholisining 59,5 foiziga teng hisoblanadi. Ushbu foydalauvchilarni 92,6% mobil quрилmalar yordamida butun jahon Internet tarmog'iga kiradi.

2023 yil holatiga ko'ra, AQSh mintaqasi global axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bozori ulushining qariyb 36 foizini egallagan bo'lsa, Yevropa Ittifoqi va Xitoy ikkinchi va uchinchi yirik mintaqalar qatoriga kirib, ularning har biri jaxon bozori ulushining 11 foizdan ko'p qismini egallashga muvaffaq bo'ldi.

AKT sohasiga ta'rif berar ekanmiz-bu radio, televidenie, uyali telefonlar, kompyuter va tarmoq uskunalari, sun'iy yo'ldosh tizimlari va boshqalarni o'z ichiga olgan har qanday aloqa moslamasini, shuningdek, videokonferensaloqa va masofaviy o'qitish kabi turli xil xizmatlar va jihozlarni o'z ichiga olgan soyabon atamasi bilan nomlash mumkin bo'ladi. Xabarlarini yuborish

qulayligiga hissa qo'shgan aloqa texnologiyalarining to'rtta asosiy turi mavjud: telefon, radio, televizor va internet hisoblanadi.

Aholiga ko'rsatilayotgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish hajmi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 21-noyabrdagi PQ-4022-sonli qarori hamda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 21-noyabrdagi PQ-4024-sonli qarorlarini tegishli bandlarini ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning samarasi deyish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, insoning axborotlashtirish sohasida haqiqiy inqilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda, buning natijasida esa umumjahon axborotlashgan hamjamiyati shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konvergentsiyasi negizida axborotni uzatish hamda iste'molchiga yetkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotganligi tashkil etadi. Oqibatda XXI asr-axborotlashgan jamiyat asri deb e'tirof etildi, ya'ni axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanmokda.

Shu sababli ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar hamda iqtisodiy islohotlarning bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yo'nalish nafaqat respublikani axborotlashgan jamiyatga aylantirish uchun xizmat qiladi, balki axborot kommunikatsiyalar rivojining hozirgi davrdagi asosiy mazmuni shundaki, u mamlakat iqtisodini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish uchun o'ziga xos yetakchi tarmoq rolini o'ynaydi. So'nggi yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining rivojlanishi hayotimizning ko'p sohaslariga ta'sir ko'rsatdi. Barcha sohalarda raqqamlashtirishning kirib kelishi, yuqori sur'atdagi taraqqiyot butun sanoatning rivojlanishida, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolimiz uchun katta rol o'ynaydi.

**Metodlar.** Ta'kidlash lozimki, yana bir raqqamlarga e'tiboringiz qaratmoqchiman, 2023 yilda dunyo bo'ylab taxminan 4,9 milliard kishi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotgan bo'lsa, ijtimoiy media foydalanuvchilari soni esa dunyo bo'ylab rekord darajada ya'ni 4,9 milliard kishiga yetdi. Jahon ijtimoiy media bozori 2022 yilda jami 193,5 milliard dollardan 2023 yilga kelib 231,1 milliard dollarga o'sdi va yillik yillik o'sish sur'ati 19.4% ni tashkil etmoqda.

Dunyo mamlakatlari tajribasida ilmiy tadqiqotlar, IT texnologiyalar, startap g'oyalar, kompyuter savodxonligiga juda katta e'tibor beriladi. Faqatgina ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalar orqali yuqori iqtisodiy o'sishga erishishimiz mumkin.

O'tgan asrda olamshumul kashfiyotlar ko'p jihatdan insonning intellektual salohiyatiga asoslanib amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi davrda ilm-fan zamonaviy AKT yordamida shakllanmoqda. Vaqt o'tishi bilan bir-biridan juda uzoq masofada joylashgan turli xil tarmoqlarni birlashtirish zarurati tug'ildi. Internet shu tarzda tug'ila boshladi, bu aslida tarmoqlar orasidagi tarmoq (tarjima: o'zaro yoki o'rtasida, net - tarmoq). Ya'ni, hammamizga ma'lumki, internet mahalliy tarmoqlarni bitta global tarmoqqa birlashtiradi. Bunday tarmoq bozorda talabga yega bo'lib, Internetning jadal rivojlanishiga olib keldi. Bundan tashqari, ushbu tarmoqning imkoniyatlari nafaqat ma'lumotlarni, balki ovoz va videoni ham uzatishga imkon beradi. Haqiqiy vaqtda ovozli va video aloqani ta'minlaydigan Global xizmatlar paydo bo'ldi (masalan, Skype va

boshqalar.). Ya'ni, Internet an'anaviy telefon aloqasini o'z funksiyalarida siqib chiqara oldi. Global tarmoqqa asoslangan IP-telefoniya ovozli aloqani arzon, ba'zan yesa bepul qilish imkonini beradi! Internet hali ham aloqa sifati orqali ko'p narsalarni orzu qiladi.

Tijorat tashkilotining strategiyasi-bu uning asosiy maqsadlari va ushbu maqsadlarga erishishning asosiy usullari to'plamidir. Boshqacha qilib aytganda, kompaniyaning strategiyasini ishlab chiqish uning faoliyatining umumiy yo'nalishlarini aniqlashni anglatadi. Sizga ayrim ma'lumotlarni taxlillari bilan tanishtirib o'tamiz.

**-Facebook bu-**eng yirik ijtimoiy tarmoq sayti bo'lib, undan har oyda 3 milliardga yaqin odamlar foydalanadi. Bu dunyo aholisining taxminan 37% Facebook foydalanuvchilari ekanligini anglatadi. E'tiborlisi shundaki, 200 milliondan ortiq biznes (asosan kichik biznes) Facebook vositalaridan foydalanadi va yetti milliondan ortiq reklama beruvchilar o'z bizneslarini Facebook da faol ravishda targ'ib qilishadi, bu esa ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etishni istagan har qanday inson uchun bu juda xavfsiz garov bo'ladi.

**-YouTube bu-**foydalanuvchilar kuniga bir milliard soatlik videolarni tomosha qiladigan video almashish platformasi hisoblanadi. Ikkinchi yirik ijtimoiy media sayti bo'lishdan tashqari, YouTube ko'pincha uning bosh kompaniyasi Googledan keyin ikkinchi yirik qidiruv tizimi deb ataladi.

**-WhatsApp bu-** 180 dan ortiq mamlakatlardagi odamlar tomonidan ishlatiladigan xabar almashish dasturi. Dastlab, odamlar o'z oilalari va do'stlariga matnli xabarlarni yuborish uchun foydalanishgan bo'lsa, hozirda odamlar biznes bilan aloqa qilishni boshladilar. Vasapp biznes platformasi korxonalariga mijozlarni qo'llab-quvvatlash va xaridlari to'g'risida mijozlar bilan yangilanishlarni baham ko'rish imkonini bermoqda. Kichik biznes uchun Vesapp Business ilovasi mavjud, korxonalar esa Vesapp Business API-dan foydalanishlari mumkin. Eng ko'p ishlatiladigan xabar almashish platformasi sifatida, vasapp biznes uchun ajoyib mijozlarga xizmat ko'rsatish kanali bo'lishga ham ulgurdi.

**-Instagram bu-**vizual ijtimoiy tarmoq platformasi sifatida Instagram sizning mahsulotlaringiz yoki xizmatlaringizni fotosuratlar yoki videolar bilan namoyish qilish joyidir. Ilovada siz uzoqroq shakldagi videolar uchun fotosuratlar, videolar, hikoyalar, haqiqiy, hayotiy videolar va IGTV kabi keng doiradagi tarkibni baham ko'rishingiz mumkin bo'ladi. Bu tarmoqdan dunyodagi 2 mlrd odamlarni muammolarini bartaraf etish uchun xizmat qilmoqda.

**-Wechat bu-**2011 yilda Xitoyning eng yirik texnologik kompaniyalaridan biri bo'lgan Tencent tomonidan chiqarilgan. Hozirda 1,26 mlrd odamlar foydalanmoqda. Vechat Vesapp va Messenger singari, Vechat ham dastlab xabar almashish ilovasi bo'lgan, ammo u hammasi birmabir platformaga aylangan. Xabar va qo'ng'iroq tashqari, foydalanuvchilar onlayn xarid qilishi, xarajatlarni to'lash, oziq-ovqat sotib olish, pul o'tkazish, rezervasyon qilish, kitob taksi, va yana boshqa xizmatlardan ham foydalanishi mumkin.

**-Tiktok bu-** (Xitoyda Doujin nomi bilan tanilgan) qisqa shakldagi video almashish ilovasi hisoblanadi. Bu tarmoqdan hozirda dunyodagi 1 mlrd odamlar foydalanmoqda. Ushbu tarmoq 2017 yilda ishga tushirilganiga qaramay, bu dunyodagi eng tez rivojlanayotgan ilovalardan biri va yaqinda Google-ni eng ko'p tashrif buyurilgan internet-sayt sifatida ortda qoldirdi. Tiktok foydalanuvchilarga 15 dan 60 soniyagacha bo'lgan videolarni yaratish va almashish imkonini beradi va ilovada videolarni yaxshilash va ularni yanada jozibali qilish uchun ovoz effektlari, musiqa parchalari va filtrlarning keng kataloglari mavjud. Siz labda sinxronlash, raqs va

qiyinchiliklardan tortib DIY fokuslari va bo‘yanish darsliklariga qadar deyarli barcha qiziqishlarga oid videolarni topishingiz mumkin bo‘ladi.

Qarangki, AQSHdagi Tiktok foydalanuvchilarining taxminan 47,4% 10-29 yoshdagilarni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, Sina-weibo-573 mln, Telegram-550 mln, Snapchat-557 mln, Kuaishou-573 mln, Qzone-553,5mln, Pinterest-444 mln, Twitter-238 mln, Reddit-430 mln, LinkedIn-424 mln, Quora-300 mln, Discord-150 mln, Twitch-140 mln, Tumblr-135 mln, Mastodon-2,5 mln odamlar shu tarmoqlarda hozirgi kunda foydalanib kelmoqdalar.

**Munoazara.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, so‘nggi yillarda bu borada erishilgan natijalar xususida ushbu maqolamizda batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Dastlab o‘tgan yetti yil davomida sohadagi o‘zgarishlar, islohotlar, erishilgan natijalarga e‘tibor qaratsak.

O‘tgan 2016 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan AKT sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli yangilanish va islohotlar, ularning natijalari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, aholiga ko‘rsatilgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish hajmi 2015 yilda 5,2 trillion so‘mni tashkil etgan holos.

2016-2022 yillarda axborot-kommunikatsiya sohasini yanada rivojlantirish borasida olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, davlat boshqaruv organlari, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining IT-xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, IT-tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmini kengaytirish, narxlarni kamaytirish va sifatni yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida xizmatlar hajmi 2016 yilda 6,8 mlrd trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2022 yilda bu ko‘rsatkich 24.5 trillion so‘mga (2016 yilga nisbatan 74,3 foizga o‘sgan) yetkazildi.

**Aholiga ko‘rsatilgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish hajmi**

(mlrd so‘m hisobida) 1-jadval


№	Ko‘rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Jami</b>		<b>6</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>13</b>	<b>17</b>	<b>24</b>
1.	Noshirlik xizmatlari	382,6	468,6	584,1	617,8	741,3	836,2	1 600,7
2.	Televidenie va dasturlari kino-videofilmlar ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo‘yicha xizmatlar	39,0	46,9	74,9	123,2	89,5	169,8	244,7
3.	Teleradioeshittirish va dasturlar tuzish bo‘yicha xizmatlar	183,5	257,3	377,5	439,3	650,9	696,7	833,1
4.	Telekommunikatsiya xizmatlari	5 421,5	6 946,8	8 389,1	8 624,0	10 233,7	11 957,3	14 660,7

5.	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	187,7	325,5	666,1	698,2	1 428,2	2 721,5	4 652,9
6.	Axborot sohasidagi xizmatlar	92,5	151,6	240,9	389,2	708,7	1 373,6	2 516,0

Bu ko'rsatkichlardan shuni ko'rish mumkinki, 2016 yilga nisbatan 2022 yilga kelib noshirlik xizmati 76,1 foiz, televidenie va dasturlari kino-videofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmati 84,1 foiz, teleradioeshittirish va dasturlar tuzish bo'yicha xizmati 78,1 foiz, telekommunikatsiya xizmatlari 63,0 foiz, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmati 96,0 foiz, axborot sohasidagi xizmat esa 96,3 foizga oshganligini tahlillardan ko'rishimiz mumkin.

**Aholiga noshirlik va televidenie va dasturlari kino-videofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlarining solishtirma taxlili**

(mlrd so'm hisobida) 1-rasm



Endi biz ushbu ko'rsatilgan xizmatlarni aholi jon boshiga taqsimlanishini tahlil etamiz. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, aholiga ko'rsatilgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlari 2016 yilda 199,7 ming so'm bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 694,8 ming so'mni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2016 yilga nisbatan 2022 yilda 3.4 barobarga yoki 347,9 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Bu ko'rsatilgan xizmatlarda yetakchi bo'lgan xizmat turi albatta aholiga telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish tarmog'i bo'lib, ya'ni aholi jon boshiga 2016 yilda 171,7 ming so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 415,7 ming so'mni tashkil etganligini taxlillardan ko'rish mumkin.

**Aholiga ko'rsatilgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlarini aholi jon boshiga taqsimlanishi**


(ming so‘m hisobida) 2-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Jami</b>		199,7	255,2	316,4	327,5	408,6	513,8	694,8
1.	Noshirlik xizmatlari	12,1	14,6	17,9	18,6	21,9	24,2	45,4
2.	Televidenie va dasturlari kino-videofilmlar ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo‘yicha xizmatlar	1,2	1,5	2,3	3,7	2,6	4,9	6,9
3.	Teleradioeshittirish va dasturlar tuzish bo‘yicha xizmatlar	5,8	8,0	11,6	13,2	19,2	20,2	23,6
4.	Telekommunikatsiya xizmatlari	171,7	216,3	256,9	259,3	301,8	346,0	415,7
5.	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	5,9	10,1	20,4	21,0	42,1	78,7	131,9
6.	Axborot sohasidagi xizmatlar	2,9	4,7	7,4	11,7	20,9	39,7	71,3


Eng e‘tiborli jixati shundan iboratki, 2016 yilda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar axoli jon boshiga hisoblanganda 5,9 ming so‘m bo‘lsa, 2022 yilga kelib bu ko‘rsatkich 131,9 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2016 yilga nisbatan 2022 yilda 22.1 barobarga yoki 221,9 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

#### Aholiga teleradioeshittirish va dasturlar tuzish va telekommunikatsiya xizmatlarining solishtirma taxlili

(mlrd so‘m hisobida) 2-rasm



**Aholiga kompyuter dasturlashtirish va axborot sohasidagi xizmatlarini solishtirma taxlili**  
(mlrd so'm hisobida) 3-rasm



Bu ko'rsatkichlar orqali maqolada aholini axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdagi bandligi holati ham o'rganildi. O'rganishlarda 2016 yilda jami 34 ming 478 nafar axoli axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish sohasida band bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 60 ming 462 nafarni tashkil etdi.

**Aholiga ko'rsatilgan aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlarida band bo'lgan aholi soni tarkibi**


(ming nafar hisobida) 3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
1.	Iqtisodiy faol aholi soni	14022,4	14357,3	14641,7	14876,4	14797,4	14980,7	15038,9
2.	Ish bilan band bo'lgan aholi soni	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2
3.	Aloqa va axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi aholi soni	34,5	37,9	40,2	47,7	50,2	53,8	60,5
4.	Jami iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan (foiz) hisobida	0,002	0,003	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004

5.	Jami iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan (foiz) hisobida	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004
----	---	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------

Ayonki, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish, telekommunikatsiya tizimlari va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan qator ishlar amalga oshirilib, soha ravnaqi ta'minlanmoqda.

(ming nafar hisobida) 4-rasm



Hozirgi kunda telekommunikatsiyaning ba'zi ilovalari: telefon aloqasi (analog, raqamli, mobil), telegraf aloqasi, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, faks aloqasi, hujjatli telekommunikatsiya, raqamli integral xizmat ko'rsatish tarmoqlari, keng polosali va aqlli tarmoqlar, dasturiy ta'minot bilan boshqariladigan raqamli kommutatsiya tizimlari, telekommunikatsiya korxonalarini boshqarishning integral axborot tizimlari, mobil tarmoqlar, mahalliy tarmoqlar, global tarmoqlar, sun'iy yo'ldosh tarmoqlari kirishi hammamizga kundek ravshan ma'lumotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda axborot infratuzilmasining umumiy rivojlanish darajasi, davlat ishlab chiqarish va davlat boshqaruvida yangi texnologiyalardan foydalanish hali ham dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan past. Bundan tashqari, zamonaviy aloqa texnologiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirar ekanmiz, raqamli tafovut deb ataladigan muammo hali ham hal etilmaganligini unutmasligimiz kerak - yirik shaharlar va qishloq joylarda, shu jumladan chekka aholi punktlarida aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidagi farqsh juda ham katta tafovutni tashkil etadi. Shu sababli, O'zbekistonning barcha aholisiga axborot jamiyatining afzalliklaridan



foydalanish imkoniyatini berish uchun axborotlashtirish infratuzilmasini - telekommunikatsiya va aloqaning boshqa turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

**Xulosa.** Shuni yana bir bor ta'kidlashni istardimki, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim manbalaridan biridir. Butun mamlakat bo'ylab zamonaviy xizmatlarning mavjudligi ko'p jihatdan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholining hayot sifatini, davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish va milliy xavfsizlik samaradorligini belgilaydi.

O'z navbatida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sanoatini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlar butun O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin va O'zbekistonga qisqa vaqt ichida dunyoning texnologik jihatdan rivojlangan kuchlari orasida munosib o'rin egallashga imkon beradi.

Taxlillardan shuni ko'rish mumkinki, ushbu tarmoqni mamlakatimizdagi o'rni juda katta ahamiyatga ega lekin umumiy ish bilan band aholi sonida ushbu tarmoqni ulushi juda ham past ahvolda qolmoqda.

Misol uchun rivojlangan mamlakatlarni aholisini AKT sohasida ishlovchilar sonini jami ishlovchilar sonidagi ulushini tahlil etilganda

Shunday ekan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish yanada rivojlantirish bu iqtisodiyot rivojlanishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Bu orqali aholining bandligini oshishiga ham erishiladi.

Ushbu tayyorlangna maqoladig ma'lumotlar uni tahlillaridan shuni ko'rib quyidagi takliflarni qilish mumkin bo'ladi.

-axborot texnologiyalari sohasini O'zbekiston iqtisodiyotining to'laqonli tarmog'iga aylantirish, yuqori samarali ish o'rinlarini yaratish va yuqori texnologiyali va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash;

-mehnat unumdorligini oshirish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlarini yuqori sifatli axborot texnologiyalari bilan ta'minlash;

-davlat, sanoat va fuqarolarning yuqori darajadagi axborot xavfsizligini ta'minlash.

-axborot texnologiyalari sohasida aholining savodxonligini oshirish;

-axborot texnologiyalari sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi davlat organlarining sanoat birlashmalari, klasterlar, platformalar va boshqa birlashmalar bilan o'zaro hamkorligini takomillashtirish;

-davlat va davlat ishtirokidagi kompaniyalar buyurtmasi orqali mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish;

-axborot xavfsizligini ta'minlash;

-davlat ma'lumotlar bazalarini keng miqyosda ochish;

-elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish;

-elektron hujjat aylanishini rivojlantirish;

-ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazlarini rivojlantirish;

-keng polosali internetga kirishni rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Аминев, А. В. Основы радиоэлектроники: измерения в телекоммуникационных системах [Электронный ресурс]: учеб. пособие для СПО / А. В. Аминев, А. В. Блохин; под общ. ред. А. В. Блохина. — Москва : Издательство Юрайт, 2018. — 223 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
2. Адаменко, М.В. Основы классической криптологии: секреты шифров и кодов [Электронный ресурс] / М.В. Адаменко. — Электрон. дан. — Москва : ДМК Пресс, 2016. — 296 с. — Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book>
3. Берлин, А.Н. Абонентские сети доступа и технологии высокоскоростных сетей [Электронный ресурс] : учебное пособие / А.Н. Берлин. — Электрон. дан. — Москва : 2016. — 276 с. — Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book/>
4. Дибров, М. В. Компьютерные сети и телекоммуникации. Маршрутизация в ip-сетях в 2 ч. Часть 1 [Электронный ресурс] : учебник и практикум для СПО / М. В. Дибров. — Москва : Юрайт, 2017. — 333 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
5. Дибров, М. В. Компьютерные сети и телекоммуникации. Маршрутизация в ip-сетях в 2 ч. Часть 2 [Электронный ресурс] : учебник и практикум для СПО / М. В. Дибров. — Москва : Юрайт, 2017. — 351 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
6. Гостев, И. М. Операционные системы [Электронный ресурс]: учебник и практикум для СПО / И. М. Гостев. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2017. — 164 с. — (Серия : Профессиональное образование). — — Режим доступа: <https://www.biblioonline.ru>
7. Гаврилов, М. В. Информатика и информационные технологии : учебник для СПО / М. В. Гаврилов, В. А. Климов. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2017. — 383 с. — (Серия : Профессиональное образование). — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
8. Информационные технологии и управление предприятием [Электронный ресурс] / В. В. Баронов, Г. Н. Калянов, Ю. Н. Попов, И. Н. Титовский. — Электрон. текстовые данные. — Саратов : Профобразование, 2017. — 327 с. — Режим доступа: <http://www.IPRBOOKS>
9. Катунин, Г. П. Основы инфокоммуникационных технологий [Электронный ресурс] : учебник / Г. П. Катунин. — Электрон. текстовые данные. — Саратов : Ай Пи Эр Медиа, 2018. — 797 с. — Режим доступа <http://www.IPRBOOKSshop.ru>
10. Камский, В.А. Защита личной информации в Интернете, смартфоне и компьютере 21 [Электронный ресурс] : учебное пособие / В.А. Камский. — Электрон. дан. — СанктПетербург : Наука и Техника, 2017. — 272 с. — Режим доступа: <https://e.lanbook.com//>
11. Коротков, Э. М. Менеджмент [Электронный ресурс] : учебник для СПО / Э. М. Коротков. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Юрайт, 2017. — 640 с. — Режим доступа: <https://www.biblioonline.ru>
12. Корниенко, В. Т. Основы построения радиоэлектронных подсистем комплексных систем безопасности [Электронный ресурс] : учебное пособие / В. Т. Корниенко. — Электрон. текстовые данные. — Саратов : Ай Пи Эр Медиа, 2018. — 140 с. — Режим доступа: <http://www.IPRBOOKS>

13. Моченов, А. Д. Цифровые системы передачи [Электронный ресурс] : учебник / А. Д. Моченов, В. В. Крухмалев. — Электрон. дан. — Москва : УМЦ ЖДТ, 2017. — 336 с. — Режим доступа: <https://e.lanbook.com>
14. Нестеров, С. А. Информационная безопасность [Электронный ресурс] : учебник и практикум для СПО / С. А. Нестеров. — Москва : Юрайт, 2018. — 321 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
15. Организация производства в 2 ч. Часть 1 : учебник для СПО / И. Н. Иванов [и др.] ; под ред. И. Н. Иванова. — Москва : Юрайт, 2018. — 404 с. — Режим доступа : [www.biblio-online.ru/book/](http://www.biblio-online.ru/book/)
16. Организация производства в 2 ч. Часть 2 : учебник для СПО / И. Н. Иванов [и др.] ; под ред. И. Н. Иванова. — Москва: Издательство Юрайт, 2018. — 174 с. — Режим доступа : [www.biblio-online.ru/book/](http://www.biblio-online.ru/book/)
17. Организация производства : учебник и практикум для СПО / Л. С. Леонтьева [и др.] ; под ред. Л. С. Леонтьевой, В. И. Кузнецова. — Москва: Издательство Юрайт, 2017. — 305 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
18. Построение коммутируемых компьютерных сетей [Электронный ресурс] : учебное пособие / Е. В. Смирнова, И. В. Баскаков, А. В. Пролетарский, Р. А. Федотов. — Электрон. текстовые данные. — Москва : Интернет-Университет Информационных Технологий (ИНТУИТ), 2016. — 428 с. — Режим доступа: <http://www.IPRBOOKS>
19. Полякова Т. А. Организационное и правовое обеспечение информационной безопасности [Электронный ресурс] : учебник и практикум для СПО / Т. А. Полякова, А. А. Стрельцов, С. Г. Чубукова; отв. ред. Т. А. Полякова, А. А. Стрельцов. — Москва : Юрайт, 2018. — 325 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
20. Производственный менеджмент [Электронный ресурс] : учебное пособие / А. В. Назаренко, Д. В. Запорожец, Д. С. Кенина [и др.]. — Электрон. текстовые данные. — Ставрополь : Ставропольский государственный аграрный университет, 2017. — 140 с. — Режим доступа: <http://www.IPRBOOKSs>
21. Родина, О.В. Волоконно-оптические линии связи [Электронный ресурс] : руководство / 22 О.В. Родина. — Электрон. дан. — Москва : Горячая линия-Телеком, 2016. — 400 с. — Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book>
22. Румынина, А. А. Правовое обеспечение профессиональной деятельности [Текст] : учебник для студентов СПО / А. А. Румынина – 10-е изд., стер. — Москва: ИЦ Академия, 2014. — 224 с
23. Скляров, О. К. Волоконно-оптические сети и системы связи [Электронный ресурс] : учебное пособие / О. К. Скляров. — Электрон. дан. — Санкт-Петербург : Лань, 2018. — 268 с. — Режим доступа: <https://e.lanbook.com>
24. Семенов, А. Б. Структурированные кабельные системы [Электронный ресурс] : учебник / А. Б. Семенов, С. К. Стрижаков, И. Р. Сунчелей. — Электрон. текстовые данные. — Саратов : Профобразование, 2017. — 640 с. — Режим доступа: <http://www.IPRBOOKSshop.ru>
25. Голиков, А. М. Транспортные и мультисервисные системы и сети связи. Часть 1 [Электронный ресурс] : учебное пособие / А. М. Голиков. — Электрон. текстовые

- данные. — Томск : Томский государственный университет систем управления и радиоэлектроники, 2015. — 102 с.— Режим доступа: <http://www.iprbooks>
26. Трофимов, В. В. Информатика в 2 т. Том 2 [Электронный ресурс] : учебник для СПО / В. В. Трофимов; под ред. В. В. Трофимова.— Изд. 3-е, перераб. и доп. — Москва : Юрайт, 2018. — 406 с. — Режим доступа: <https://www.biblio-online.ru>
27. Хамадулин, Э. Ф. Основы радиоэлектроники: методы и средства измерений [Электронный ресурс] : учеб. пособие для СПО / Э. Ф. Хамадулин. — Москва : Издательство Юрайт, 2018. — 365 с. — Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru>

## BANKLARDA TO'LOV TIZIMI

Nafasov O'ralbek Sobir o'g'li

Toshkent moliya institute Bank ishi fakulteti,  
1- kurs BIA-70 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8210682>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada to'lov tizimlari turli shakllarda tashkil etishda, aholiga va xo'jalik sub'ektlariga o'z pul mablag'larini o'tkazib berishni ta'minlash, to'lov tizimining usullari, oldiga qo'yilgan bir qator talablar va hisob-kitoblarni «Bank-Mijoz» tizimi orqali o'tkazish tartibi haqida ma'lumot berilib yetarlicha yondashuv bilan ochib berilganligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** To'lov tizimi, tannarx, «Bank-Mijoz» tizimi, deshifratsiya, rekvizitli nazorat.

## PAYMENT SYSTEM IN BANKS

**Abstract.** This article shows that when organizing payment systems in different forms, it is revealed with a sufficient approach to ensuring the transfer of funds to the population and economic entities, with information about the methods of the payment system, a number of requirements and the procedure for conducting calculations through the "Bank-client" system.

**Keywords:** payment system, cost, "Bank-client" system, deciphering, requisite control.

## ПЛАТЕЖНАЯ СИСТЕМА В БАНКАХ

**Аннотация.** В данной статье показано, что при организации платежных систем в различных формах, обеспечении перечисления денежных средств населению и хозяйствующим субъектам, о методах платежной системы, о ряде требований, предъявляемых к ней, и о порядке перевода расчетов через систему «банк-клиент» раскрывается достаточный подход.

**Ключевые слова:** платежная система, себестоимость, система «Банк-клиент», дешифрование, реkvизитный контроль.

## KIRISH

Bugungi kunda Iqtisodiyot rivojlanishida, respublikamiz faoliyat yuritayotgan banklarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hech biri bank xizmatini chetlab o'tib faoliyat yurita olmaydi, o'zaro hisob-kitoblarni bank yordamisiz o'tkaza olmaydi. Shu sababli bank tizimini mustaxkamlash, ularning erkinligini oshirish yo'lida isloxotlarga xukumat miqyosida e'tibor berib kelmoqda. Chunki bank tizimida o'tkazilayotgan islohotlar nafaqat banklarning, balki butun iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga asos bo'ladi. Hozirgi kunda to'lov tizimining turli usullaridan kelib chiqish orqali respublikada «Bank-Mijoz» tizimi amaliyotga keng tadbiriq etilmoqda. Bu tizimda bank mijozlari to'g'ridan-to'g'ri ofis yoki uyidan turib to'lovlarni amalga oshirilishi ko'zlangan. Bank xizmatining bu yangi ko'rinishi pul mablag'larining boshqarilishini faollashtirish bilan birga bank mijozlari sonining oshishiga, sifati yaxshilanishiga, bank va mijoz o'rtasidagi moliyaviy faoliyatni yanada rivojlantirishga olib keladi.

## ASOSIY QISM

Shu aytish kerakki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi respublikada faoliyat yuritayotgan banklarning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bundan ko'rinib turgan asosiy maqsad avvalambor, «Moliya-bank tizimini isloh qilish siyosatini takomillashtirish, uning ko'proq aniq-oydinligini ta'minlash, iqtisodiyotda to'lovlar va xisob-

kitoblar mexanizmini mustaxkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishi» lozimligi belgilab berilgan edi. Shu o'rinda aytish mumkinki «To'lov tizimi bu - iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha sub'ektlar o'rtasida pul mablag'larining qonun-qoidalar va usullar asosida harakatlanishini ta'minlovchi dastur yoki mexanizmdir».

Agar aholiga va xo'jalik sub'ektlariga o'z pul mablag'larini bir bankdagi hisobvaraقدan boshqa bank hisob varag'iga tez o'tkazib berishni ta'minlash kerak bo'lsa ya'ni hisob-kitob qilayotgan firmalar turli bank xizmatidan foydalansalar, u holda to'lovni bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazish uchun ma'lum bir to'lov tizimidai foydalanishga to'g'ri keladi. Bu to'lov tizimi arzon, qulay shu bilan birga xavfsiz bo'lishi ham albatta asosiy ahamyatga kasb etadi.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLIL**

To'lov tizimining ishtirokchilari asosan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, hukumat, banklar va boshqa moliyaviy institutlar bo'lishi mumkin. To'lov tizimidan banklar ham foydalanadilar. Banklar to'lov tizimidan o'z faoliyatlari bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha pul o'tkazishda, shu bilan birga mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha pul o'tkazishda foydalanadilar. Qanday usulda foydalanishdan qat'iy nazar to'lov tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

➤ to'lovning boshlanishi, ya'ni to'lovchi o'z bankiga pulni o'tkazib berish to'g'risida topshiriq beradi.

➤ to'lov tizimining ishtirokchi banklari o'rtasida to'lov hujjatlarining almashishi, ko'pincha bu operatsiya kliring deb yuritiladi.

➤ bosqich - to'lov tizimining ishtirokchi banklari o'rtasida hisob-kitob o'tkazish, ya'ni to'lovchi banki pul o'tkazib berishi lozim. Bundan tashqari, banklar uchinchi ishtirokchi orqali, unda o'z hisobvaraqlarini ochish orqali hisob-kitob qilishlari mumkin. Bu holda ko'pincha uchinchi tomon rolini Markaziy bank bajaradi.

➤ bosqich – to'lovlarni qabul bilan bog'liq operatsiyalarni yakunlash.

Yuqoridagi talqindan shuni tkidlash mumkinki to'lov tizimi majburiyatlarni ushlab turish imkoniyatini beradi.

To'lov tizimiga mexanizm sifatida qarab uning oldiga qo'yilgan bir qator talablarni ko'rib chiqadigan bo'lsak:

**Birinchidan**, to'lovchi va pul oluvchilarning huquqlari aniq belgilangan bo'lishi kerak;

**Ikkinchidan**, pul mablag'larining o'tkazilishi huquqiy tomondan belgilangan bo'lishi lozim, ya'ni qonun bilan mustahkamlangan tartiblar amaliyotga to'la tadbiiq etilishi lozim;

**Uchinchidan**, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lishi kerak;

**To'rtinchidan**, kam xarajatli bo'lishi, tannarx hisobga olinishi lozim;

**Beshinchidan**, yo'qotishlar va qonunbuzarliklarning oldini olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Agar yuqoridagi sanab chiqilgan talablarga javob bersa, bunday to'lov tizimi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda bank tizimi rivojlanib borgan sari banklar tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanmoqda, ularga yangi bank xizmatlari taklif etilmoqda. Shulardan biri yangi texnologiya bo'lib hisoblangan «Bank-Mijoz» dasturi bo'yicha hisob-kitoblar tizimi keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Bank mijoz dasturiy majmuasining ishlashi bank bilan mijoz o'rtasida kommunikatsion aloqa tarmog'i orqali faylda ma'lumotlar almashinuviga asoslangan. Mijozlar bilan ma'lumotlarni

almashish uchun bankda mijozlar uchun pochta qutisi tashkil qilinadi, unga parol va identifikator orqali kiriladi. Mijozlarning so'rovlarini qayta ishlash, ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish avtomatlashgan holda amalga oshiriladi.

Bank mijoz dasturining asosiy vazifalari bilan yondashadigan bo'lsak quyidagi bir qancha misollarni ko'rishimiz mumkin.

- elektron pul hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;
- so'rovnamlar va xabarnomalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish;
- kerakli ma'lumot va hisobot shakllarni qayta ishlash;
- kerakli ma'lumot va hisobot shakllarini bosmadan chiqarish;
- ma'lumotlarni arxivlash.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda keling "Bank mijoz" dasturi orqali bankning ish tartibini ko'rib chiqamiz. Bankda xar bitta mijozga alohida pochta qutisi tashkil etiladi. Mijozlardan kelib tushgan barcha axborotlar dasturiy ravishda deshifratsiya qilinib, rekvizitli nazoratdan o'tadi va bankning ma'lumotlar bazasiga "kiritilgan" maqomi ostida tushiriladi. Pul hujjatlari o'rnatilgan tartibda tekshirilgach, ular tasdiqlanadi va bankning amaliyot kuniga qayta ishlash uchun yuboriladi, keyin esa elektron to'lovlar tizimi bo'yicha oluvchiga jo'natiladi. Mijozning hisobvarag'ida mablag'lar yo'q bo'lgan hollarda, pul hujjatlari bilan butun fayl qayta ishlashdan chiqarib tashlanadi va mijozning pochta qutisiga qaytariladi. Elektron to'lovlar tizimi orqali kelib tushgan pul hujjatlari ijro etilgandan so'ng mijozning pochta qutisiga joylashtiriladi. Kun davomida mijozlardan olingan barcha ma'lumotlar arxivlanadi va o'rnatilgan tartibda saqlanadi.

Quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'lov xizmatlari jumlasiga kiradi:

- bank hisobvarag'idan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish va amalga oshirish;
  - naqd pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga, shu jumladan uchinchi shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish uchun qabul qilish;
  - to'lovchi tomonidan bank hisobvarag'ini ochmagan holda to'lovni amalga oshirish uchun naqd pul mablag'larini qabul qilish;
  - elektron pullarni chiqarish va qoplash;
  - bank kartalarini chiqarish;
  - elektron pullarni va bank kartalarini realizatsiya qilish;
  - elektron pullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lovlarni qabul qilish va bu to'lovlarga ishlov berish;
  - elektron shakldagi to'lovlarga ishlov berish va to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni bankka berish yoki mazkur to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qabul qilish;
  - pul o'tkazmalari tizimi orqali pul mablag'larini qabul qilish va amalga oshirish.
- Quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'lov xizmatlari jumlasiga kirmaydi:

- to'lovchi qaysi shaxs oldida to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining ishtirokisiz amalga oshiriladigan majburiyatlarga ega bo'lsa, o'sha shaxsga to'lovni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan naqd pul mablag'larini berish;
- banknotlarni, tangalarni va qimmatliklarni inkassatsiya qilish;
- bank hisobvarag'ini ochmagan holda naqd chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish;

➤ uchinchi shaxslar ishtirokisiz qabul qilingan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan benefitsiar foydasiga o'tkazishni amalga oshirish chog'ida yuridik shaxs bo'lgan benefitsiar, yakka tartibdagi tadbirkor va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi o'rtasidagi axborot-kommunikatsiyaga oid va texnologik hamkorlikni ta'minlash.

### **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy bank to'lov, hisob-kitob munosabatlarini tashkil qilish funksiyasini bajara turib moliya va to'lov tizimini barqarorligini ta'minlash, to'lov tizimini samarali bo'lishiga erishish, pul-kredit siyosatini o'tkazish kabi masalalarni hal qilishni o'z oldiga qo'yadi.

Tijorat banklari uchun iqtisodiy me'yorlarning urnatilishi – bu avvalo Markaziy bank tomonidan samarali bank nazoratini olib borishga erishish, tijorat banklari faoliyatida vujudga keladigan muammolarni oldindan aniqlash va barqaror bank tizimini yaratishda muhim vositadir.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni. (1995 y. 26 dekabr).
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi»gi Qonuni. (1996 y. 25 aprel).
3. O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo tqg'risida»gi Qonuni. 2003 y. 11 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va respublika hamda mahalliy byudjetlarga to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. 1998 y. 4 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari tqg'risida»gi Qarori. 2005 y. 15 aprel.
6. Elektron axborotlarni muxofaza qilish tqg'risidagi Nizom.
7. Abdullaeva Sh. Z. Pul, kredit va banklar. - T., 2005 y.
8. Abdullaeva Sh. Z. Bank ishi. - T., 2005 y.
9. Afonina S. V. Elektronnie dengi: - SPb.: Piter, 2001.



## G'AZNACHILIK TIZIMI IJROSINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Ochilov Pirmqul Shamsiddin o'g'li

Toshkent moliya instituti talabasi

E-mail: [pirmqulochilov007@gmail.com](mailto:pirmqulochilov007@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8210738>

**Annotatsiya.** Bugungi kunda davlat budjeti g'azna ijrosini tashkil etish borasidagi Yurtboshimiz qarorlarining ijrosi doirasida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb etgan holda davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish imkonini beruvchi davlat budjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** g'aznachilik tizimi, boshqarish tizimi, g'azna ijrosi, budjet jarayoni.

## THE CONTENT AND ESSENCE OF THE EXECUTION OF THE TREASURY SYSTEM

**Abstract.** Today, within the framework of the implementation of the decisions of the head of the state budget on the organization of the Treasury, a complex of measures has been developed to organize a single integrated information system of the state budget Treasury execution, which allows you to concentrate all the revenues of the state budget on a single treasury account and make a.

**Key words:** treasury system, management system, Treasury execution, budget process.

## СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ИСПОЛНЕНИЯ СИСТЕМЫ КАЗНАЧЕЙСТВА

**Аннотация.** Сегодня в рамках исполнения решений Главы государства по организации казначейского исполнения государственного бюджета разработан комплекс мер по созданию единой интегрированной информационной системы казначейского исполнения государственного бюджета, позволяющей консолидировать все доходы государственного бюджета на единый казначейский счет с привлечением заемных средств Азиатского банка развития и других международных финансовых организаций и осуществлять с него оплату расходов.

**Ключевые слова:** система казначейства, система управления, казначейство, бюджетный процесс

Bizga ma'lumki, G'aznachilik tizimining bajarilishi deganda hukumat yoki tashkilot doirasida byudjet rejalari amalga oshirish va davlat moliyasini boshqarish jarayoni tushuniladi. Bu byudjet ijrosi, kassalarni rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, davlat qarzini boshqarish, moliyaviy hisobot va boshqalar kabi turli vazifalarni o'z ichiga oladi. G'aznachilik tizimi davlat mablag'laridan samarali va samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarni muammosiz amalga oshirish uchun banklar va sotuvchilar kabi tashqi hamkorlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. G'aznachilik tizimining mazmuni va mohiyati tashkilotning o'ziga xos ehtiyojlari va ustuvor yo'nalishlariga qarab o'zgarishi mumkin, ammo uning asosiy maqsadi o'zgarishsiz qolmoqda - davlat mablag'larini mas'uliyatli va shaffof boshqarishni ta'minlash. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat

budjetining g'azna ijrosiga bosqichma-bosqich o'tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o'zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda- ishlashini ta'minlash zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda davlat budjetining g'azna ijrosini samarali tadbiiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham kengqamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini davlat budjeti g'azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko'rishimiz mumkin.

Davlat budjetining g'azna ijrosi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat budjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, budjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda budjet-moliya va budjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

Avvalo, budjet jarayoni tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, budjet jarayoni - budjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishi bilan bog'liq bo'lgan davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda boshqa budjet jarayoni ishtirokchilarining maqsadli faoliyatidir. Uning mazmuni mamlakatning davlat va budjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning budjet huquqlari bilan belgilanadi.

Byudjet jarayoni budjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Byudjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini

moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash nisbatlarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Davlat budjetining g'azna ijrosi - davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag'alpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyasini boshqarish - davlat o'z vazifalarini samarali bajarishini ta'minlash, moliyaviy resurslarni safarbar qilishda ma'lum samaraga erishish, yagona tizim asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish va nihoyat iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko'riladigan tadbirlar yig'indisidir.

Davlat budjeti g'azna ijrosi deganda davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqami orqali davlat budjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

"G'aznachilik tizimi" atamasi kontekstga qarab turli xil narsalarni anglatishi mumkin. Biroq, umuman olganda, bu odatda hukumatning g'aznachilik departamenti tomonidan moliyani boshqarish uchun, jumladan, byudjetlashtirish, buxgalteriya hisobi, pul mablag'larini boshqarish va qarzlarni boshqarish uchun foydalaniladigan tizimlar va jarayonlar to'plamiga ishora qiladi. G'aznachilik tizimining asosiy maqsadi davlat o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur mablag'larga ega bo'lishini va bu mablag'lardan samarali va samarali foydalanilishini ta'minlashdan iborat.

G'aznachilik tizimining bajarilishi deganda tizimning turli jihatlarini amalga oshirish va ularning to'g'ri ishlashini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar tushuniladi. Bunga g'aznachilik bo'limi tomonidan qo'llaniladigan dasturiy ta'minot tizimlarini ishlab chiqish va ularga xizmat ko'rsatish, xodimlarni ushbu tizimlardan foydalanish bo'yicha o'qitish, mablag'lar va moliyaviy operatsiyalarni to'g'ri boshqarish va monitoringini ta'minlash uchun ichki nazorat va tartiblarni o'rnatish kiradi.

Xulosa qilib aytganimizda, samarali g'aznachilik tizimini amalga oshirish har qanday hukumat yoki tashkilotning moliyaviy barqarorligi va muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Mablag'larning to'g'ri boshqarilishini va hisobini ta'minlash orqali g'aznachilik tizimi tashkilotlarga moliyaviy maqsadlariga erishishda va manfaatdor tomonlarning ishonchini saqlab qolishda yordam berishi mumkin.

#### REFERENCES

1. Byudjet g'azna ijrosi hisobi: Darslik / S.Mexmonov, I. Qo'ziyev, A. Kuliboyev, A.Ostonokulov; –T.: 2020. 252 b.
2. “G’aznachilik asoslari” fanidan o’quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018
3. A.Sh. Kuliboyev “Byudjet g’azna ijrosi hisobi” fanidan O’quv-uslubiy majmua. —T.: TMI, 2019
4. <https://lex.uz/acts/-1139941>

## O'ZBEK VA QORAQALPOQ DUTORLARINING RIVOJ TOPISHI VA ULARNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI.

Gaybullaeva Xurliman Nurabillaevna

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali 3 - kurs talabasi

[hurliman591@gmail.com](mailto:hurliman591@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8213399>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq milliy cholg'ulari bo'lgan dutor sozi, ularning tarixi, ularning turlari, ijro uslublari, hozirgi vaqtda dutor sozlarini rivojlanib va jahonga tanitishda hissa qo'shayotgan ustozlar va ularning o'quv uchun darsliklari haqida so'z etiladi.

**Kalit so'zlar:** Ustoz, dutor, olamoynaq dutor, musiqa, shtrix, diapazon, madaniyat, asarlar, kompozitor, konservatoriya, sozanda, baxshi.

### THE DEVELOPMENT OF UZBEK AND KARAKALPAK DUTORS AND THEIR PECULIARITIES.

**Abstract.** This article tells about the dutar, which is the Uzbek and Karakalpak national instrument, their history, their types, performance styles, teachers who contribute to the development and introduction of the dutar into the world, and their textbooks.

**Key words:** Teacher, dutar, alamoynaq dutar, music, culture, works, composer, conservatory, soloist, baqshi.

### РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКИХ И КАРАКАЛПАКСКИХ ДУТОРОВ И ИХ ОСОБЕННОСТИ.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о дутар, который является узбекским и каракалпакским национальным инструментом, их истории, их видах, стилях исполнения, педагогах, которые способствуют развитию и внедрению дутар в мир, и их учебники.

**Ключевые слова:** Педагог, дутар, аламойнак дутар, музыка, штрих, диапазон, культура, произведения, композитор, консерватория, солист, бахши.

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, cirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin: umumiy o'rta ta'lim muassasalarida: mazkur qarorga ro'yxatda keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi; musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u

ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi; notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi; Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'minlanishi lozim bo'lgan milliy musiqa cholg'ulari

Ro'yxati:

1. Dutor
2. Do'mbira
3. Doira
4. Tanbur
5. Rubob
6. G'ijjak
7. Nay

Mazkur qarorga ro'yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi; musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi<sup>10</sup>.

**Dutor** – o'zbek an'anaviy chertim cholg'u sozlaridan biri. Uzoq o'tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o'rin egallab kelayotgan dutor, ayni paytga kelib an'anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy oldi. An'anaviy yakkanavoz cholg'u sifatida shakllandi va yetakchi cholg'ular qatoriga kirdi.

Dutorning tarixiy shakllanishi uzoq o'tmish va boshqa cholg'ular bilan uyg'unlik jihatlar borib taqalsada musiqiy risolalarda XV asrdan boshlab ta'riflanib keladi. "Farobiy (IX asr) ma'lumotlariga qaraganda Xuroson tanburi o'zining ko'plab belgilari bilan zamonaviy dutorni eslatadi". Lekin, dutorni o'z nomi va uning barcha (shakli, tarkibiy, ijroviy) imkoniyatlari bilan ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Xusayniy o'zining musiqa ilmiga bag'ishlangan "Qonuni ilm va amali musiqiy" nomli risolasida bayon etgan<sup>11</sup>. Darhaqiqat, unda ikkita torli va ularning oralig'i kvarta intervalini tashkil etuvchi, dastasiga bog'langan pardalari o'n bittani tashkil etuvchi dutor cholg'u asbobi ta'riflanadi.

Dutor O'rta Osiyoning o'zbek, turkman, tojik, qoraqalpoq xalqlari orasida keng ommalashgan cholg'udir. Qayd etish joizki, har bir xalq dutorining oz bo'lsada o'ziga xoslik jihatlari mavjuddir<sup>12</sup>. Dutor - ikki torli cholg'u asbobidir. Odatga ko'ra, tut daraxtidan tayyorlanadi. Cholg'u ikki asosiy qismlarga bo'linadi: a) kosaxona (rezonator); b) dasta. Cholg'uning kosasi 10-12 ta yupqa qovurg'achalarning bir-biriga birlashtirib yopishtirish orqali hosil qilinadi va uning ustki qism maxsus qopqoq bilan qoplanadi. Cholg'uning kosasida torlar ilinadigan maxsus moslama, ya'ni ilgichlar o'rnatiladi. Dutorning dastasi cholg'u jussasiga qarab belgilanadi. Unda 14-15 ta pardalar mavjud bo'lib, ular ichak, zamonaviy jarayonda jilka (sun'iy ip) dan boylanadi va torlari ipakdan eshilib tayyorlanadi. An'anaviy dutor pardalari diatonik tovushqator tarkibida joylashgan. Dastaning boshlanish qismida esa, ikkita maxsus quloqlar joylashgan. Quloqlar iplarni tortish va cholg'uni sozlash uchun qo'llaniladi. Cholg'uda ovoz

<sup>10</sup> Mirziyoyev.Sh O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori.

<sup>11</sup> Xodjayeva.R "XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK" (DUTOR) "Musiq" Toshkent - 2020. B.13.

<sup>12</sup> Xodjayeva.R "XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK" (DUTOR) "Musiq" Toshkent – 2020 B.14.

tarannumini sof holda taralishi uchun ikkita xarrak oʻrnatiladi. Cholgʻuning yuqori qismida joylashgan xarrak shayton xarrak deyiladi va birinchi parda bilan quloqlar mobaynida joylashadi. Pastki xarrak maxsus shaklda yasaladi va cholgʻuning sozlanishiga koʻra qopqoq ustiga oʻrnatiladi<sup>13</sup>.

Oʻzbek aholisining dutori 6 turga boʻlinadi. Bugunga kelib, dutor sinfida shulardan toʻrt turli koʻrinishdagi, yaʼni milliy dutor, dutor alt, dutor sekunda va dutor prima kabilarini oʻrganish maqsadga yarasha ekanligi dalillangan. Bu yuqorida yoritilgan dutorlarning diapazoni ikki yarim oktavani tashkil etadi, sozlanishi yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Kichik oktava re, lya yoki re, sol notalariga sozlanadi. Dutor ijrosidagi chap qoʻl barmoqlarining holatiga applikatora deyiladi. Kuyni bezash uchun yozilgan qoʻshimcha melodic shakllar melizm deyiladi. Quyidagi melizmlarga izohli misollar keltiriladi:

- **Uzun forshlag** - asosiy nota choʻziminin yarmisi hisobiga ijro etiladi.

- **Qisqa forshlag** - asosiy nota choʻzilish va oʻzidan avvalgi nota choʻzimi hisobiga ijro etiladi.

- **Qoʻsh forshlag** - 2 ta qisqa forshlagtan iborat boʻlib, oʻzidan avvalgi nota choʻzimi hisobina ijro etiladi.

- **Trel** - asosiy ovozning oʻzidan yuqorigi tovush bilan almashib turilishi: *tr – trel*.

- **Mordent** - 2 turli boʻladi:

1) yuqoridagi yordamchi tovush bilan asosiy pardaning takrorlanishi.

2) pastki yordamchi tovush bilan asosiy pardaning takrorlanishi.

- **Gruppetto** - 3, 4, baʼzida 5 lik tovushdan iborat melodik bezak.

- **Nola** - bunda barmoq bilan pardani qattiq bosib, balandlik darajasini bitta meʼyorda koʻtarib, tushirib, bezab, ijro qilinadi<sup>14</sup>.

Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq dutorchi sozandalari Mahmud Yunusov, Gʻulomjon Qoʻchqorov, Faxriddin Sodiqov ... kabilar doimo xalqimiz eʼzozida boʻlib kelganlar<sup>15</sup>.

Dutorning xarraki juda past boʻlgani uchun koʻp dutorchilarimiz chalgan vaqtda qoʻllarini taxtaga tekkizib dutorning mazasini qochiradi. Bu kunlarda bizning eng mashhur dutorchimiz Samarqandlik Xoji Abdulaziz qoʻlini taxtaga urmay chalgani uchun uning dutorini havas bilan tinglaydilar<sup>16</sup>.

Milliy musiqamiz oʻz oldiga bir xaziyna. Qoraqalpoq xalqiga tegishli boʻlgan gʻayri oddiy naqshlarga boy sehrli navolarimiz, bizning afsonaviy tariximizni, urf-odatlarimiz, qaygʻusin, quvonchin oʻz bagʻriga olganidek seziladi. Milliy navolarimizni xalq bilan birga ajratish mumkin emas, ular bir-biriga yaqin oʻrtoq. Shuning uchun bu milliy navolarimiz ustoz-shogird sistemasi orqali shu davrgacha yetib kelgan. Qoraqalpoq xalqining olamoynoq dutori qoʻshni xalqlari boʻlgan oʻzbek, turkman, qozoq xalqlarining “dutor” va “doʻmbira” deb atalgan cholgʻulari bilan oʻxshash joylari, shuning bilan birga oʻziga hos oʻzgachaligi ham bor. Olamoynoq dutorining oʻzgachaligi shundaki: birinchidan, dutor dastasidagi pardalarning oʻzgachaligi (masalan, oydin parda, shirvon pardalari); ikkinchidan, qattiq eshtiladigan tovushning, tembrining oʻzgachaligi;

<sup>13</sup> Xodjayevara.R “XALQ CHOLGʻULARIDA IJROCHILIK” (DUTOR) “Musiq” Toshkent – 2020 B.14.

<sup>14</sup> Muhamedova.G.M “DUTOR DARSLIGI” “OʻQITUVCHI” Toshkent – 2005. B.8.

<sup>15</sup> Xodjayevara.R “XALQ CHOLGʻULARIDA IJROCHILIK” (DUTOR) “Musiq” Toshkent – 2020. B.15.

<sup>16</sup> FITRAT “OʻZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI” “Fan” Toshkent – 1993. B.29.

uchinchidan, olamoynaq dutorning o'ziga yarashgan ko'rinishi va bezak naqshlaridagi o'zgachaliklar hisoblanadi. Masalan; dutorning bo'ynidagi suyakka o'yilgan milliy naqshlar "olamoynaq" deb atalishiga sabab bo'lgan; to'rtinchidan, tovush xonasining, dastasining o'lchamlari, tuzilishi (formasi) va dastadagi pardalarning o'lchamlaridagi o'zgachaligi. Olamoynaq dutorini yasashda ustalar tut yog'ochidan foydalanishgan va ikki usulda yasashgan, biri qazma dutor bo'lsa, ikkinchisi tilma (qurama) dutor. Qazma dutorning tovush xonasini bir butun tut yog'ochidan o'yib chiqishadi. Tilma (qurama) dutorning tovush xonasini tut yog'ochini tilip, keyin shu tilmalarni bir-biriga qurashtirib yasaladi<sup>17</sup>. Olamoynaq dutori ota-bobolarimiz Berdaq, Ajiniyoz, Musa baxshi, Esjan baxshi, Amet baxshi, Hurliman qiz baxshi va hozirgi vaqtda G.Utemuratov, T.Qalliev, shu kabi ko'pgina baxshi-sozandalarimizning qo'lidan o'tgan, milliy madaniyatimizning bir qismini tashkil qiluvchi cholg'usi hisoblanadi<sup>18</sup>.

"Qoraqalpoq xalq kuylari XIX asr Evropa olimlarining diqqatini tortib, ular haqida fikr berganlari haqida ma'lum. (A.F.Eyxgori, V.A.Uagenskiy). Qoraqalpoq musiqalarini o'z oldiga yig'ib, notalashtirish ishlari XX asrning 20-30-yillari qo'lga olinadi. Mashhur kompozitor A.Zataevich qoraqalpoq xalq kuylarini yozib olib, ular haqida ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari qoraqalpoq xalq kuylari V.Shafrannikovning 1941- yilgi va 1959- yili "Karakalpakskie narodnie pesni" nomli Moskvada nashr ettirilgan kitobida biroz keng turda notalar tanishtirildi. V.Shafrannikovdan boshqa qoraqalpoq xalq kuylarin A.Xalimov, A.Sultanov, J.Shamuratov, M.Jiyemuratov va boshqa kompozitorlar boshchiligida qo'lga olingan". Qoraqalpoq xalq kuylari ustida ko'plab izlanishlar olib borgan birinchi olim san'at fanlarining nomzodi T.Adambaeva edi. Uning "Revolyuciya'ga shekemgi qoraqalpaq muzikasi" (Nukus, 1976 y.) nomli kitobida qoraqalpoq musiqasining tarixi, izlanilishi, kompozitor faoliyati, qoraqalpoq xalq kuylari va cholg'ulari, qoraqalpoq musiqasining ijrochilari, baxshichilik hunarining o'zgachaligi kabi bizning musiqa madaniyatimiz haqida chuqur ilmiy analiz qilgan mehnatlaridan hisoblanadi<sup>19</sup>.

Qoraqalpoq xalq kuylarini notaga tushirishda yangi olim D.Allanazarovning "Qaraqalpaq xalq sazlarini" kitobi hisoblanadi (Nukus, 2002 y). D.Allanazarov bugungi kunda qoraqalpoq xalq musiqasini notaga tu'shirip, uni keng jamiyatga yetkazishda katta xizmat ko'rsatayotgan ustozlarimizdan biri. Qoraqalpoq dutor kuylaridan "Qara jorga", "Nama basi", "Sayra duwtar", "Das nama", "Jaman shiganaq", "Siy perde", "Mirin tomen", "Ilme sultan" va yana boshqa asarlar dalil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek va qoraqalpoq dutorlarining bir-birining farqi va o'xshashlik taraflari mana shular bo'lib, hozirgi kunda xalq musiqamizni yanayam rivojlanib takomillashishida va kelajak avlod uchun manba bo'lib qolishi uchun yuqori darajali ustoz-professorlarimiz tamonidan ilmiy kitoblar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar ishlanib qoraqalpoq olamoynaq dutori va o'zbek milliy dutorimiz, dutor-alt,prima dutorlarining butun jamiyat va qo'shni xalqlarg'a tanitib, targ'ibot qilib kelishmoqda

<sup>17</sup> D.ALLANAZAROV, I. JUMANIYAZOV, B. QALMENOV "QARAQALPAQ MILLIY ALAMOYNAQ DUWTAR SAZENDESHILIGI SABAQLI'G'I" 1- klass, "G.Gulom" Toshkent – 2011. B.9.

<sup>18</sup> MUSIQA SAN'ATIDA IJROCHILIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari to'plami 10- may 2022- yil, "Duwtar saz asbabinin turleri ham atqariv metodlari". B.281.

<sup>19</sup> D.Allanazarov "QARAQALPAQ SAZLARI"(DUWTAR) "BILIM" Nökis – 2004. B.4.



## REFERENCES

1. Sh. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori.
2. Xodjaeva R. “Xalq cholgularida ijrochilik” (Dutor). Toshkent, “Musiqqa” nashriyoti, 2020.
3. Muhamedova G.M. “Dutor darsligi” Toshkent, “O‘qituvchi”, 2005.
4. FITRAT “O‘ZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI” Toshkent “Fan” 1993-yil.
5. D.ALLANAZAROV, I. JUMANIYAZOV, B. QALMENOV “QARAQALPAQ MILLIY ALAMOYNAQ DUWTAR SAZENDESHILIGI SABAQLI’G’I” 1- sinf, “G‘.G‘ulom” Toshkent 2011.
6. MUSIQA SAN’ATIDA IJROCHILIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI: AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari to‘plami 10- may 2022- yil, “Duwtar saz asbabinin turleri ham atqariv metodlari”.
7. D.ALLANAZAROV “QARAQALPAQ SAZLARI”(DUWTAR) “BILIM” – 2004.
8. АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 60-66.
9. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
10. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA" GULAYIM". International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.
11. Tajimuratova, S. (2023). FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY. Modern Science and Research, 2(5), 196-203.

## ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛҚЫНЫҢ МИЛЛИЙ САЗ АСАБАБЫ ҚОБЫЗ ХӘМ ЖЫРАУ НАМАЛАРЫ

Кудайбергенов Нурсултан Пахратдин улы  
УДСМИ-Нф халық дәретиушилиги кафедрасы  
фольклор хәм этнография қанигелиги  
3-курс студенти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8214769>

**Аннотация.** Бул мақалада Қарақалпақ халқының миллий саз асабабы қобыз хәм жырау намалары, Атқарыушылық өнери хәмде атқарыушылар жырау, бақсы, қыссахан, сазенде, қосықшылары олардың тарийхы хаққында сөз етилген.

**Гилт сөз:** қобыз хәм жырау, Сопнаслы Сыпыра жырау, «Едиге», Қобыз, «Алпамыс», «Қырық қыз».

## THE NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS OF THE KARAKALPAK PEOPLE ARE KOBIZ AND JIROV TUNES

**Abstract.** This article talks about the national musical instruments of the Karakalpak people, kobiz and jirov tunes, performance skills and the history of performers, jirov, bakhshi, kissakhan, sozanda, and spoon-makers.

**Key words:** Qobiz and Jirov, Soppasli sipira Jirov, "Edige", Qobiz, "Alpamis", "Qiriqqiz".

## НАЦИОНАЛЬНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ КАРАҚАЛПАКСКОГО НАРОДА – НАПЕВЫ КОБИЗ И ЖИРОВ.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о национальных музыкальных инструментах каракалпакского народа, напевах кобиз и джиро, исполнительском мастерстве и истории исполнителей, джиро, бахши, киссахан, созанда, ложковых певцов.

**Ключевые слова:** Кобиз и Жиров, Сопнасли сипира Жиров, «Эдиге», Кобиз, «Алпамис», «Кырик Кыз».

1887 йилда биринчи доимий чет еллик талабалар, ака-ука Еастлаке Кодоканда дзюдо билан шуғулланишни бошладилар. 20-аср бошларида АҚСХ, Франция, Буюк Британияда дзюдо клублари пайдо бўлди. 1903 йилда япониялик дзюдочи Ёшиаки Ямашита АҚШ президенти Теодор Рузвелт учун дзюдо техникасини намойиш қилди ва кейин икки йил давомида АҚШ денгиз академиясида дзюдодан дарс берди.

1904 йилда Кано ўз шогирдлари Цунежиро Томида ва Мицуё Маедани дзюдони ривожлантириш учун АҚШга юборди. Улар Вест-Пойнт ва Оқ уйда бир қатор намойишлар уюштирдилар. Кейин Мицуё Маеда Америка бўйлаб яккахон гастрол сафарига чикди, турли услубдаги курашчиларга қарши кураш олиб борди ва охир-оқибат Бразилияга жойлашиб, Бразилия жиу-жицусининг асосчисига айланди.

1910 йилдан бери Гунжи Коизуми Лондонда доимий истиқомат қилади ва 1918 йил 26 январда у ерда жанг санъатларини ўрганиш бўйича "Будоквай" (Будоквай) ташкилотини очади.

1929 йилда Кодоканга ташриф буюрган Рабиндранат Тагорнинг илтимосига биноан Кано Ҳиндистоннинг Бомбей университетига дзюдо ўқитувчисини юборади.

1929 йилда Германияда Англиянинг Будоквай клуби дзюдочилари ва Франкфурт-Майн ва Висбаден клублари спортчилари ўртасида дзюдо бўйича биринчи Йеуропа халқаро мусобақалари бўлиб ўтди. Бу учрашувлар клублар ўртасидаги турнир сифатида бошланган

бўлса-да, 1932 йилга келиб улар тўлиқ миқёсдаги халқаро мусобақалар даражасига кўтарилди.

Мамлакатимизда спорт Тизимини такомиллаштириш, ватан килиб тарбиялаш равнакини таъминлайдиган ёш авлодни тарбиялаб вояга етказиш, ўзбек спортчиларини янада баркамол Ва соғлом масалаларига бугунги кунда катта эътибор берилмоқда. Бу борада муҳим қадамлардан бири Ўзбекистонда илк бор "Кадрлар тайёрлаш бўйича миллий дастур" ҳамда "Таълим тўғрисида"ги қонуннинг қабул қилиниши ва шу жумладан "Болалар спорти жамғармаси"нинг ташкил этилиши катта аҳамиятга эга. Маълумки, спортчининг спорт маҳоратини изчиллик билан ўсиши ва катта спортдаги ғалабасининг узок муддатга сақланиб қолиши ва Янада шаклланиши факатгина юксак жисмоний ва функционал патенциалга боғлиқдир. Лекин, бундай сифатларга эришиш нихоятда эҳтиёткорлик, Машғулот юктамаларини аста-секинлик билан, "тулкинсимон" йўналишда ошира бориш эвазига амалга оширилиши мумкин.

Албатда, бу жараён узлуксиз ва мунтазамлик ҳамда машғулот юктамаларини шуғулланувчи "объектнинг функционал имкониятларига мос тарзда қўллаш тамоиллари асосида янада самарали ва жадалрок кечади. Аммо шуни эътироф этиш жоизки айрим спорт мураббийларининг тезда натижага эришиш учун спортчи хали етарли жисмоний ва функционал захирага эга бўлмасдан ҳажми ва шиддати "катта" бўлган машғулот юктамаларини қўллашга ружу қўйганлар. Натижада куни келиб ушбу жараён, бўлажак спортчини спортдан умуман четлашиб қолишига сабаб бўлиши мумкин. Сўзсиз, малакали спортчиларни етиштиришда жисмоний ва функционал тайёргарликнинг аҳамияти нихоятда катта. Айниқса, спорт маҳоратини шакллантиришда жисмоний сифатларини ўрни бекиёсдир. Лекин, бу сифатларни дастлабки ўргатиш жараёнида мақсадга мувофиқ жиддий назорат остида амалга ошириш даркор.

Шу жумладан белбоғли курашда ҳам ЮКОРИ спортчиларнинг тайёргарлигини такомиллаштириш билан боғлиқ муаммоларни бошқариш муҳим аҳамият касб этади. Бу нарсага спортчиларни ва уларнинг тайёргарлигини чуқур ва хар томонлама ўрганиш асосида оптимал режалаштириш билан эришиш мумкин. Педагогик тадқиқотнинг мақсади, юкори малакали спортчиларни мусобақа фаолиятини ривожлантиришга йўналтирилган жисмоний машқлар самарадор-лигини ўрганишдан иборат. Маълумки стандарт машқлар канчалик режали килиб қўлланилмасин спортчиларда салбий кайфият, тез чарчаш, кизикишни сусайиши каби ҳолатларга олиб келиши азалдан исбот қилинган. Шунинг учун йўналтирилган жисмоний машқларни айланма тезланишларга оид машқлар билан бирга қўллаш ёрдамида тезкор-куч ва чидамлилиқни сифатларини ривожлантириш ҳамда уларни техник маҳоратга таъсир этишини ўрганиш.

Мусобақа фаолиятини ривожлантириш ва малакали курашчиларни маҳоратини ошириш учун биринчи галда машғулот услубини, методикасини такомиллаштириш зарурдир. Машғулот услубини, методикасини такомиллаштириш учун жаҳон чемпионатларини, осий чемпионатларини ва халқаро мусобақаларни мунтазам кузатиб бориш билан биргалиқда янги қўлланган усуллар устида ишлаш спортчининг мусобақа фаолиятида муҳим аҳамият касб этади. Хулоса килиб шуни айтиш мумкинки мусобақаларни мунтазам кузатиб бориб, янги қўлланган усулларга қарши усуллар ишлаб чиқиб, мана шу усулларни машғулот жараёнида шакллантириб бориш юкори малакали

спортчиларни мусобака фаолиятини кескин шаклланишига ёрдам беради. Бунинг учун ҳар бир мураббий ўтказилган мусобакаларни бевосита кузатиб қўлланилаётган ЯНГИ усулларни канчалик ахамиятлигини ва тўғрилигини спортчиларга етказиб бориши зарур.

Ўзбекистон дзюдо федерацияси 1972 йилда ташкил етилган бўлиб, 1992 йилда қайта ташкил етилган. Ўшандан буён мамлакатимиз дзюдочиларининг халқаро майдонларда нафақат юқори спорт натижаларини қўлга киритиши, балки баркамол, жисмонан бақувват ёшларни тарбиялаш ҳам федерациянинг устувор вазибаларидан бири ҳисобланади. Иккинчисига еришишда асосий компонентлардан бири спортдир. Дзюдонинг Олимпия интизоми мамлакатдаги енг машҳур спорт турларидан биридир. Республикамиз бўйлаб 20 мингдан ортиқ киши дзюдо билан шуғулланади, уларнинг салмоқли қисми адолатли жинс вакиллари дир. Қизлар нафақат республика ва халқаро миқёсдаги мусобакаларда қатнашмоқда, балки медалларни ҳам қўлга киритмоқда. Бугунги кунда республикада уларнинг сони 400 дан ортиқ бўлиб, республикамизнинг барча ҳудудларида дзюдо бўйича сексиялар муваффақиятли фаолият юритмоқда. Ҳар бир вилоят ўз чемпионатларига мезбонлик қилади, бунинг натижасида енг кучли дзюдочилар бош Республика турнири – мамлакат чемпионатида курашиш ҳуқуқини қўлга киритади.

#### REFERENCES

1. Kodokan Judo: The Essential Guide to Judo by Its Founder Jigoro Kano - Jigoro Kano
2. The Pyjama Game: A Journey into Judo - Mark Law
3. Judo Formal Techniques: A Complete Guide to Kodokan Randori No Kata - Tadao Otaki and Donn F. Draeger
4. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). *Science and innovation*, 2(B3), 30-33.
5. Ganieva, M. (2023, June). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
6. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.

## CHET TILI FANLARINI O'QITISHDA ELEKTRON LUG'ATLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Nazarova Shohida Ismatovna

Qarshi MII akademik litseyining nemis tili o'qituvchisi

Qodirova Gulora Xudaynazarovna

Qarshi MII akademik litseyining nemis tili o'qituvchisi

Suyunov Bekzod Hasan o'g'li

Qarshi MII akademik litseyining nemis tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8217858>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda elektron lug'atlardan foydalanishning samaradorligi, uning mamlakatimizdagi istiqbollari hamda qog'oz va elektron lug'atlarning ijobiy va salbiy tomonlari keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* elektron lug'at, samaradorlik, elektron lug'at, qog'oz lug'at, matn, tarjimon, izohli lug'at, maxsus qurilmalar, internet.

## PROSPECTS FOR THE USE OF ELECTRONIC DICTIONARIES IN THE TEACHING OF FOREIGN LANGUAGE SUBJECTS

*Abstract.* This article presents the effectiveness of the use of electronic dictionaries in teaching foreign languages, its prospects in our country and the pros and cons of paper and electronic dictionaries.

*Key words:* electronic dictionary, efficiency, electronic dictionary, paper dictionary, text, translator, annotated dictionary, special devices, internet.

## ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЕЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

*Аннотация.* В данной статье представлена эффективность использования электронных словарей при обучении иностранным языкам, его перспективы в нашей стране, а также плюсы и минусы бумажных и электронных словарей.

*Ключевые слова:* электронный словарь, эффективность, электронный словарь, бумажный словарь, текст, переводчик, толковый словарь, специальные устройства, интернет.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan ta'lim tashkilotlarida xorijiy til darslarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan texnik vositlar bilan jihozlanmoqda, o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, o'quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o'rganishini tashkil etish borasida amaliy ishlar qilindi.

O'quvchilarni xorijiy tillarga o'qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan ta'lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta'lim shakllarini keng qo'llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tillarda o'qitish amaliyoti bosqichma bosqich joriy etilmoqda, o'quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlash borasida izchil chora tadbirlar belgilangan.



Shuningdek, davlatimiz rahbarining chet tillarini o'qitishda ilg'or xorij tajribasini dars mashg'ulotiga joriy etish to'g'risidagi ko'rsatmalariga muvofiq ko'plab amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ushbu maqolada xorij tillarini o'qitishda elektron lug'atlardan foydalanish istiqbollari va samoradorlik tendensiyalarining tahlili keltirilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshirish va umuman, o'quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar inson hayotining ko'plab sohalarini, jumladan, ta'limni soddalashtirish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'qituvchilarga o'quv jarayonini optimal tarzda qurish imkonini bermoqda.

Talabalar chet tilini o'rganishda foydalanishlari uchun eng mos va samarali bo'lgan manbalarga misol tariqasida zamonaviy elektron lug'atlarni ham olish mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar elektron lug'atlarning amaliy samaradorligini tushunishga olib keladi, ammo qog'oz versiyalarini to'liq almashtirish tavsiya etilmaydi, chunki an'anaviy lug'atlar bilan ishlash talabalarda fikrlash jarayonining boshqa shakllarini, xususan, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Darslarda matndan nusxa ko'chirish (onlayn tarjimon bilan ishlash uchun), elektron lug'atlar bilan ishlash, turli xil Internet resurslaridan (portallar, platformalar, podkast va vodkast omborlari va boshqalar) foydalanish, o'quv va ma'lumot almashish kabi imkoniyatlardan foydalanish. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kasbiy ma'lumot materialni taqdim etish va o'zlashtirishni qiziqarli va shuning uchun samarali bo'lishiga imkon beradi, bu an'anaviy qog'oz tashuvchilarni to'liq va (yoki) qisman almashtirish imkonini beradi. Elektron lug'atlarni kontekst ichida va undan tashqarida so'zlar, iboralar va idiomatik iboralar (leksik birliklar) haqida ma'lumot olish imkonini beruvchi ma'lumotnomalar to'plami, chet tilini o'qitish vositalari sifatida tavsiflaydi. Albatta, elektron lug'atlar kengroq imkoniyatlarga ega bo'lib, ularning yuqori pedagogik salohiyatini belgilaydi, jumladan, an'anaviy qog'oz versiyalari bilan solishtirganda.

Tadqiqot natijasida talabalar – bo'lajak mutaxassislariga chet tilini o'rgatishda elektron lug'atlardan foydalanishning quyidagi afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) qidiruvning tezligi va qulayligi o'quv jarayonida vaqtni tejash imkonini beradi;
- 2) lug'at bazasini doimiy ravishda to'ldirish mavjud, ya'ni elektron lug'atlar atama va eskirgan so'zlarning xulosalarini muntazam yangilab turishni ta'minlovchi dinamik resursdir. Olimlar bu haqiqatni elektron lug'atlar va an'anaviy lug'atlar o'rtasidagi tub farq bilan alohida ta'kidlashadi;
- 3) elektron lug'atlar moslashuvchan, ya'ni ularning funktsionalligi muayyan fan sohasiga (moliya, informatika, tibbiyot, fizika, huquq va boshqalar) moslashtirilishi mumkin;
- 4) yuqorida aytib o'tilganidek, o'rganilayotgan resurs turli xil elektron qurilmalarda ishlatilishi mumkin, bu sizga lug'atdan istalgan vaqtda, o'rnatilgan dasturiy ta'minot yoki Internetga kirish imkonini beradi;
- 5) elektron lug'atning muhim afzalligi multimedia elementlaridan (audio fragmentlar, tasvirlangan chizmalar, videolar va boshqalar) foydalanish hisoblanadi;
- 6) e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim xususiyat - elektron lug'atlarda siz ma'lum bir so'z ishlatiladigan juda ko'p shartlarni qo'yishingiz mumkin, ya'ni ko'pgina internet resurslarida tarjima, qo'llash misollari va tilga mos keladigan shakllanishning turli shakllari ko'rsatilgan. Yuqorida aytilganlar elektron lug'atlarning asosiy afzalligi ularning imkoniyatlarining ko'pligi va

xilma-xilligi haqida dastlabki xulosa chiqarishga imkon beradi. Onlayn lug'atlardan foydalanish ta'limning muhim qismi bo'lib, ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va faol leksik va grammatik kompetentsiyani o'zlashtirish imkonini beradi. Ammo ushbu vositani sinab ko'rishdan oldin, o'qituvchining o'zi ma'lum bir talabalar guruhini tayyorlash yo'nalishini va o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, keyinchalik eng mos manbani tanlash uchun turli xil elektron lug'atlarning asosiy turlari va xususiyatlarini o'rganishi kerak. Eng qiziqarli va foydali dasturlar talabalarning kasbiy terminologiya bilan ishlash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi va umuman olganda, ularning chet tilini o'rganishga bo'lgan ta'lim motivatsiyasini oshiradi.

Bugungi kunda, tarjimonlar o'z faoliyat jarayonlarini elektron lug'atlardan foydalanishga o'tishmoqda. Lug'atlar asosan matnlarni yoki ilmiy qo'llanma, badiiy asarlarni bir tilidan ikkinchi tilga yoki ma'lum bir tilning qadimgi zamondagi tillarini bugungi zamonga moslashtirish orqali ishlatiladi. Lug'atlarning bir qator turlari mavjud bo'lib, ular tarjima, izohli lug'at uchun keng foydalaniladi.

Dastlabki lug'atlar qog'oz shaklida paydo bo'lgan bo'lib, ular o'zida bir nechta qulayliklar bilan birgalikda kamchiliklarni ham o'z ichiga olgan. Qog'oz lug'atlar haqida so'z yuritadigan ular quyidagi afzalliklarni o'z ichiga oladi: - mutaxassislar tomonidan tuzilgan ishonchli axborot manbalariga asoslanadi; - ko'zlar uchun yaxshiroq (1) - kitob orqali bajarish isonlatga yaxshi kayfiyati baxsh etadi va hkz. Endilikda qog'oz lug'atlarning kamchiliklariga to'xtaladigan bo'lsak; Ular: - tezlik sifatining pastligi; - tez tez yangilab turmasligi; - qog'oz lug'atlarning hajmi kattaligi va olib yurishga noqulayligi. Yuqorida ta'kidlanganidek, qog'oz shaklidagi lug'atlar yordamida tarjima qilingan matnlar ko'p vaqtini talab qilgan, va vaqtdan yutqazish esa boshqa hildagi lug'atlarning tashkil etilishiga turtki bergan. Natijada esa, omma ahliga elektron lug'atlar namoyon etilgan. Elektron lug'atlar har birimizga qulay imkoniyatlarini taqdim etib kelmoqda. Hattoki, har bir o'rganish jarayonida o'z lu'atini ham tashkil etsa bo'ladi.

Bu kabi amaliy ishlar esa, ko'plab o'rganuvchilariga ko'plab tanlovlardan ko'proq ma'nosi chiqadigan tarjimadan foydalanish imkonini yaratdi va bu orqali barcha o'rganuvchilari sezilarli darajada o'z imkoniyatlarini rivojlanish imkoniyatlarini qo'lga kiritishmoqda. Agar biz elektron lug'atlarni huddi qog'oz lug'atlar kabi tahlil qiladigan bo'lsak, Unda ham foydali va kamchilik jihatlari mavjudligiga Amin bo'lishingiz turgan gap . Chunki dunyoda hech bir narsa mukammal emas va har bir narsaning o'z foydali va kamchilik jihatlari mavjuddir. Elektron lug'atlarning foydali jihatlari:

- vaqtining tejalishi;
- tanlov imkoniyatining kengligi;
- transkripsiyaning o'z ichiga olishi;
- lug'atning hajmi bo'ylab bir vaqtining o'zida qidirilishi.

Elektron lug'atlarning kamchiliklari:

- ulardan foydalanish uchun biror bir qurilmaning talab etilishi;
- internetning ishtirokisiz amalga oshmasligi;
- inson ko'ziga zarar qilishi;
- barcha ma'lumotlarning ham ishonarli bo'lmasligi.

Yuqorida elektron lug'atlarning ta'lim tizimida qo'llanishining foydali va kamchiliklar bayon etilgan. Endilikda, ushbu ikki tommonni ham alohida izohlab o'tamiz. Har doim elektron

lug'atlardan foydalanar ekanmiz, bu foydalanish jarayonida biz vaqtimizning tejalishi uning asosiy yutuqlaridan ekanligini bod - bod takrorlaymiz. Tejalgan vaqtdan esa, boshqa bir ishlarni amalga oshirishda foydalansa bo'ladi. Bu bilan biz ikki barobar ko'fsentga ega bo'lamiz. Elektron lug'atlardan foydalanish afzalliklaridan keyingi o'rinni esa tanlov imkonining kengligi bilan izohlaymiz. Bu esa o'rganuvchiga va o'rgatuvchiga ma'lum bir so'zining shu matndagi mazmunga to'g'ri tushmaydigan hollarda boshqa manbalardan qidira olish imkonini yaratadi. Transkripsiyaning mavjudligi esa Nur ustiga a'lo Nur bo'ldi deya ayta olamiz, chunki bu jarayonida o'rganuvchilariga biram to'la yangi so'zlarining qanday talaffuz qilinishi xususida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishadi olishadi. So'nggi afzalliklarmizdan biri esa, lug'at tarkibiy qismining naqadar ko'p ekanligiga qaramasdan, bir vaqtining o'zida qidira olishlik imkoniyatidir. Har bir narsaning ikki tomoni bor bo'lganidek, elektron lug'atlarning ta'lim tizimida qo'llanishining yetarlicha kamchilik jihatlari yo'q emasdir. Ulardan biri esa, elektron lug'atlardan foydalanish uchun ma'lum bir qurulmaning zarur bo'lishi va internet aloqa tizimining zarurligidir. Hozirgi paytda, afsuski, yurtimizda internet tarmoqlarning butun hudud bo'ylab tarqalmaganligi va tezlikning biroz yetishmasligi soha yuzasida yetarlicha kamchiliklarni keltirib chiqarishi turgan gapdir. Bugungi asosiy mavzumizning oxirgi kamchiliklaridan biri esa, sog'lig'imizga zarar ko'rsatishidir. Bu zarar ayniqsa ko'zlarimizga zarari ayniqsa namoyon bo'lad. Shuning uchun ba'zi ota - onalar bolalarning ma'lum bir til o'rganishsa elektron lug'atlardan ko'ra qog'oz lug'atlardan foydalanishlarini afzal bilishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir hayotimizga foyda keltiradigan obyekt o'z o'rnida teskari ta'siri ham bordir. Shuning uchun ham har bir qilgan ishimizda tartibli bo'lib, ko'proq foydali jihatlari biz tomonida ishlatishga imkon berib, salbiylarini esa uzoqlashtirishimiz zarurdir.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori 19.05.2021 yildagi 312-son
2. Jamol Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi" Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik Toshkent – 2012
3. "Examining the Context of E-Dictionary Use in Language Studies" Tetiana Vakaliuk, Oksana Chernysh, Raul Ferrer-Konill, Karaferye Figen Zhytomyr Polytechnic State University January 2021 Conference: International Conference on New Trends in Languages, Literature and Social Communications (ICNTLLSC 2021)
4. Rabinovich F.M. Chet tili darslarida nazorat//Maktabda chet tili. M., 1987. No 1
5. Minyar-Beloruhev R.K. Chet tillarni o'qitishda nazorat nazariyasi savollari//Maktabda chet tili. M., 1984. 6-son 64-67-betlar.
6. Podlasy I.P. Pedagogika. M.: Ma'rifat, 1996 yil
7. Xutorskoy A.V. Zamonaviy didaktika. SPb., 2001 yil.
8. A Gorchev.Yu. Nazorat ob'ektlari, darajalari va usullari//Maktabda chet tili. M., 1984. 6-son 68-72-betlar.
9. Klychnikova ZI. Chet tilida o'qishni o'rgatishning psixologik asoslari. M., 1983 yil
10. Bim I. L. Chet tillarini fan sifatida o'qitish metodikasi va maktab darsligi muammolari. M., 1974 yil

11. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). *Science and innovation*, 2(B3), 30-33.
12. Ganieva, M. (2023, June). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).

## MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA O'QUV VAZIFALARINI DIFFERENSIALLAB O'QITISH TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH MASALALARI

A.E.Ochilov

p.f.f.d.(Phd), Qarshi davlat universiteti,  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8226877>

**Annotatsiya.** Maqolada differenziallashtirib o'qitishning ahamiyati, uning tashkil etilishi, turlari va ijobiy jihatlari, differenziallashtirib o'qitishda mustaqil ta'limning o'rni, differenziallashtirib o'qitishning mazmuni, shakli, vosita va metodlarini ishlab chiqish kabilar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, uzluksiz, uzviylik, fan dasturi, pedagogik texnologiya, tamoyil, metod, vosita, shakl, tabaqalashtirib o'qitish, ilmiy tadqiqot, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, mustaqil ta'lim, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, grafik, loyiha, maket, model.

### ISSUES OF INTRODUCING THE TECHNOLOGY OF DIFFERENTIATED TEACHING OF EDUCATIONAL TASKS IN THE TEACHING OF MATHEMATICS

**Abstract.** The article talks about the importance of differentiated teaching, its organization, types and positive aspects, the role of independent education in differentiated teaching, the content, form, development of means and methods of differentiated teaching.

**Keywords:** knowledge, skill, qualification, the State educational standard, the curriculum, continuity, coherence, the training program of a subject, pedagogical technology, the principle, method, form, means, the differentiated training, scientific research, democratization, humanization, self-education, seminar, practical occupation, laboratory work, the schedule, project, model, maket.

### ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ УЧЕБНЫМ ЗАДАЧАМ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

**Аннотация.** В статье говорится о значении дифференцированного обучения, его организации, видах и положительных сторонах, роли самостоятельного обучения в дифференцированном обучении, разработке содержания, формы, средств и методов дифференцированного обучения.

**Ключевые слова и понятия:** знание, навык, квалификация, Государственный образовательный стандарт, учебный план, непрерывность, взаимосвязанность, учебная программа предмета, педагогическая технология, принцип, метод, форма, средство, дифференцированное обучение, научное исследование, демократизация, гуманизация, самообразование, семинар, практическое занятие, лабораторная работа, график, проект, макет, модель.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunida yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalash kabi pedagogik vazifalarni amalga oshirish dolzarb muammo ekanligi alohida qayd etib o'tilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning muhim jihati hisoblangan ta'lim jarayonida differenziallashtirilgan yondashuvni qaror toptirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu texnologiyalarning muhim qismlaridan biri sanalgan differensiallashtirilgan ta'limga alohida e'tibor berilgan bo'lib, unda talabalarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirib o'qitishga o'tish to'liq amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan. Bunday o'qitish talabalarni individual tarzda, shuningdek, tabaqalashtirilgan guruhlariga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirishga erishadi.

Bugungi kunda tabaqalashtirib o'qitishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun ilg'or tajribalar va zamonaviy, samarali pedagogik uslublar, o'quv- metodik materiallarning tabaqalashtirilgan yangi avlodini yaratish, o'qituvchilarning muntazam malakisini oshirib borish, moddiy-texnik bazasini yangilash kabi vazifalarni amalga oshirish zarur.

Bu kabi ishlarni amalga oshirish o'qituvchilardan katta mas'uliyat va ijodkorlikni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy ish rejalari, dasturlar, ko'rgazmali va tarqatma materiallarni o'zlari tayyorlashlari talab etiladi.

Tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- \* talabalarning dastur materiallarini o'zlashtirishga erishiladi;
- \* ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi, ularning fanga qiziqishlari orta boradi;
- \* talabalarning faolligi oshadi;
- \* talabalarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilayotganligi sababli, ularda o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari bo'lmaydi;
- \* iqtidorli talabalarning chuqur bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi;
- \* tabaqalashtirib o'qitish, uni demokratlashtirishga va insonparvarlashtirishga yordam beradi;
- \* talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyati o'sadi.

Tabaqalashtirib o'qitishning ushbu jihatlari talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Ularni mustaqil fikrlashga, o'z ustida muntazam ishlashga o'rgatadi.

Tabaqalashtirib o'qitishni talabalarning aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etish noto'g'ri. Tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etishda talabalarning individualligi, qiziqishlari, iqtidori kabilarga tayanish lozim. Chunki bu jarayonda talabaning individualligini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat vujudga keladi. Talabalarning qiziqishlari, iqtidori, intilish va bilim ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish demokratik yondashuv bo'lib, u talaba shaxsining o'zligini namoyon qila olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Bugungi kunda pedagogika fani oldida differensiallashtirilgan ta'limning ilmiy asoslarini yaratish, talabalarni tabaqalashtirib o'qitish jarayonini nazariy metodik jihatdan ta'minlash, tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliy faoliyatga joriy qilish kabi muhim masalalar ko'ndalang turibdi va ular o'z yechimini topishiga harakat qilinmoqda.

Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- \* o'qituvchilar shaxsiga individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitish sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va amaliyotga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish;
- \* tabaqalashtirib o'qitishning ijtimoiy-iqtisodiy va ta'limdagi o'rnini aniqlash;

\* tabaqalashtirib o'qitish jarayonining pedagogik jihatdan yaxlitligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

\* tabaqalashtirib o'qitishning yo'nalishlari, mazmuni, shakli, vosita va metodlarini anglash;

\* individual yondashuv asosida guruhlangan jamoalarga ta'lim berish jarayonida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish;

\* tabaqalashtirib o'qitish jarayonida o'qituvchilar ish faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos nazariy-metodik keyslarini yaratish;

\* individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitishning tashkiliy shakllarini davlat ilm-fani, ishlab chiqarishini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi va strategiyasini ishlab chiqish;

\* o'qituvchi shaxsiy qobiliyati, iqtidori, qiziqishlarini rivojlantirishga va muayyan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladigan ta'lim-tarbiya nazariyasini yaratish kabilardir.

Tabaqalashtirib o'qitishda talabalar uchun o'quv rejasi erkin bo'ladi. Shunga ko'ra har bir talaba o'zining individual ta'lim yo'nalishini tanlash huquqiga ega bo'ladi. Bu ta'lim sifatini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bunda ta'lim jarayoni faqatgina talabaga ma'lum miqdordagi bilimni o'rgatishga yo'naltirilib qolmasdan, shaxsning rivojlanishi, o'zligini namoyon qila olishi, qobiliyatining o'sishiga hamda tafakkurning rivojlanishiga qaratilishi talab etiladi.

Fanlarni tabaqalashtirib o'qitish masalasini muvaffaqiyatli hal etganda talabalarning mustaqil ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba mustaqil ta'limini tashkil etishda muayyan fan xususiyatlari, o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

\*ayrim nazariy mavzularni qo'shimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish;

\*berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat ) tayyorlash;

\*seminar va amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;

\*hisob-grafik, kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

\*malakaviy bitiruv ishini tayyorlash;

\*amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;

\*maket, model, namunalar kabilarni yaratish;

\*ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarni tayyorlash va boshqalar.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda:

-mavjud o'quv materialni qismlarga bo'lish;

-kuzatilayotgan hodisalarda umumiy o'xshashliklarni asoslash;

-mavzuning asosiy mazmunini aniqlash;

-taqdim etilgan faktlardan xulosa chiqarish;

-xususiyat yoki ketma-ketligiga qarab faktlarni tizimlashtirish;

-muammoga yangi qo'shimcha yechim topish;

-muammoni yechimiga olib keladigan turli yo'l va usullarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Daliliy materiallarni o'zlashtirishni turli laboratoriya ishlari, mashqlarni yechish, darslikdagi mavzu ustida ishlash, tevarak atrofdagi hodisalarni kuzatishda amalga oshirish mumkin.

Keyingi faoliyat uchun shunday usullar orqali material to'plash muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat talabalarda:

\*mustaqil ishlashda sxema va chizmalarni tuzish, yangi ma'lumotlar bilan tanishish;

- \*adabiyot va atrof-muhitdan materiallar to'plash;
- \*tevarak atrofdagi hodisa va dalillarni o'rganish;
- \*biror-bir muammoni manbalar yordamida asoslab berish;
- \*materialning biror bir xususiyatiga qarab guruhlariga ajratib olish, asoslashga tayyorgarlik ko'rish va yechim izlash kabi vazifalarni bajarishni talab qiladi.

Tizimli bilimlarga ega bo'lish, o'rganilayotgan jarayonda turli sabab va munosabatlarni aniqlash, kerakli tushuncha, qonuniyatlarni saralab olish, ketma-ketlikni tartibga solishda:

- ayrim vaziyat va hodisalarning ketma-ketligini anglash;
- o'qituvchining bergan savollariga mustaqil ravishda aniq javob berish;
- oldin o'rganilgan hamda yangi ma'lumot o'rtasidagi farqlarni solishtirish, aloqadorlikni aniqlash;
- ma'lum vaqt davomida kuzatilgan biror bir muammoni yechimini tushuntirib, asoslab berish;
- shu muammo va dalillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash kabilarni bilishi kerak.

Talaba mustaqil ravishda:

- \*mavzuda asosiy, tayanch va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratib olish;
- \*asoslangan ma'lumotlarni mustaqil qayta ko'rib chiqish;
- \*yangi ma'lumotlar topish uchun o'tkazilgan amaliy seminar-mashg'ulotlar bo'yicha hisobot tayyorlash, sxema, jadval, grafiklarni tuzish;

\*mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish asosida materialni o'rganish, asosiysini ajratish, xulosa chiqarish, berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda tatbiq etish kabilarni bilishi zarur.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu talabalardan amaliy ko'nikma, malakalarni talab qiladi. Bular o'z navbatida mustaqil ishlashda tashkil etiladigan:

- \*oldingi darsning ma'lumotlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish;
- \*namunaviy masalalardan farqi bor masalalar yechish;
- \*boshqa fanlardagi ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni izlab, ularga yechim topish;
- \*teorema, qoidalarni qo'llab, mustaqil yangi masala va ifodalarni tuzish;
- \*boshqalardan farqli, yangi masalalarni tushuntirish, murakkab bo'lmagan ma'lumotlarni mustaqil o'rganish;
- \*bir necha muammolarni solishtirish orqali ularning farqi va o'xshashligini asoslab berish;
- \*kamchiliklarni tuzatish, bartaraf etish ustida ishlash;
- \*material, sxema, jadvallarni tayyorlash;
- \*darslarda referat, ma'ruzalarni yozish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlay olgan talabagina irodaviy sifatlar, mustaqillik malakasiga ega bo'ladi. Talabalar o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishga mustaqil tayyorlanishi, yangi mavzuni mustahkamlash va ijodiy mashqlar asosida mustaqil ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi orqali erishiladi. Ularni tabaqalashtirishda mustaqil ishning ahamiyatli jihatlari quyidagilardan iborat:

- talaba fan vazifalarini ongli ravishda uzluksiz, to'liq, tartibli bajarish yo'lida astoydil mehnat qiladi va bilim olishga odatlanadi;
- talaba fan o'quv materiallarini o'zlashtirish yo'lidagi mavjud qiyinchiliklarni yengib, iroda bilan mehnat qilgan holda o'z maqsadiga erishishni o'rganadi;



-talabaniing matematikaga mehr-muhabbati ortadi, ongli intizomi, o'qishga qiziqishi tarbiyalanadi;

-talabaniing psixik qobiliyatlari – tafakkuri, xotirasi, diqqati rivojlanadi, olgan bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi;

-talaba egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganadi;

Uning faolligi, mustakil fikr yuritishi, tadbirkorligi, tashabbuskorligi va ijodkorligi shakllanadi;

Talabaniing ijtimoiy foydali xislati fazilatlarini rivojlanadi, bu esa uning ilmiy, madaniy, siyosiy, axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib kamol topishiga, ulg'ayishiga yordam beradi.

Talabaniing mustaqil fikr yuritishi, o'z o'zini anglashi, ongi, tafakkuri, iroda, hissiyotining shakllanishi mustaqil faoliyat va ijodiy faolligini yuzaga keltiruvchi ko'nikmalarni hosil qiladi, bu ularning ijtimoiy foydali faoliyatini yuzaga keltiradi. Matematika fanini tabaqalashtirib o'qitishda aynan shu jihatlarga alohida e'tibor berish talabalarning fanga nisbatan diqqati va mustaqilligini hamda beriladigan topshiriqlarni bajarishga ma'suliyati, ijobiy munosabatini oshiradi.

Tabaqalashtirish masalasida talabalarning mustaqil faoliyat yuritishga yo'naltirilgan holda quyidagi jihatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

\*Mustaqil faoliyatida ularning o'ziga xos individual xususiyatlari;

\*matematika faniga munosabati, layoqatliligi;

\*boy dunyoqarashi va intellektual xususiyatlari, ijodiyligi;

\*mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanganligi;

\*o'z faoliyatiga ijodiy yondosha bilishi, matematika fani mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil shug'ullana olishi

\*ularning matematikaga oid bilim, ko'nikma va malakalarining mavjudligi, ularni mustaqil ishini qiziqib bajarishi;

\*faolligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini hisobga olish va boshqalar.

Matematikani tabaqalashtirib o'qitishni amalga oshirishda o'qituvchi talabalarning mustaqil faoliyati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, xususan ulardagi psixologik holatlarni bilishi kerak.

Ularning tempramentini hisobga olgan holda bo'sh o'zlashtiruvchi va iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli yo'lga qo'yish muhim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, talabalarni tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati ko'p jihatdan, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirilishiga bog'liq. Ular matematikadan beriladigan topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'nikmasiga ega bo'lishi, ularning darslik, tarqatmali materiallar, kompyuter bilan mustaqil ishlash ko'nikmasi, ijodiy ishlarni mustaqil bajarishi shu sohadagi taraqqiyotning ta'minlanishiga keng yo'l ochadi.

Har qanday mustaqil fikr, mustaqil olingan bilimlardan tug'ilganidek, har qanday chuqur bilim faqat mustaqil o'qish yo'li bilan orttiriladi. Har bir talabaniing kamolatli bo'lishida ularning erkin va mustaqil faoliyati, o'z bilimi, tirishqoqligi muhim kasb etadi.

Shunday qilib, yuqoridagi muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali, tabaqalashtirib o'qitish natijasida talaba mehnatining samaradorlik darajasi ortadi, ilm-fan va ishlab chiqarish malakali kadrlarning samarali ishtiroki evaziga rivojlanadi. Tabaqalashtirib o'qitishning mazmuni, shakli, vositalari, amalga oshirish metodlari, pedagogik hamda psixologik asoslarini aniqlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilash hamda rivojlangan mamlakatlarning talabalariga individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish sohasidagi ilg'or tajribalarni

o'rganish, umumlashtirish hamda tabaqalashtirib o'qitishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagi bayon etilgan fikrlardan tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish tashabbusi qo'llab quvvatlanayotganligini anglash mumkin. Navbatdagi vazifa esa kelajakda uning sifati va samaradorligini oshirish, ijobiy natijasini ta'minlashdan iboratdir.

#### REFERENCES

1. Ochilov.A.E. Differensial ta'limning va mantiqiy rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari. 2020 йил 6/1 сони. декабрь. Нукус. mugallim-uzliksiz-bilim.uz.39-43 b
2. Ochilov.A.E. Matematika fanini o'qitishda differensial yondashuv masalasi. 2021 yil mart sonida Nukus. mugallim-uzliksiz-bilim.uz.54-56 b.
3. Ochilov.A.E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini differensial o'qitishga tayyorlashning tamoyillari va ularning xususiyatlari tahlili. 2021 йил 3-maxsus son. Тошкент. Халқ таълим журнали.39
4. O'quv qo'llanma. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009.- 104 b. Jo'rayev R.H. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumiy o'rta ta'lim 3. maktablarida tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etish muammolari // «Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: ЎзПФТИ. 2003. - Б.3-8.

## ЁШЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Сапаров Бобир Худайбердиевич  
Ўзбекистон Миллий Университети

Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази махсус ўқув цикли бошлиғи

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8227123>

**Аннотация.** Ушбу мақолада ёшларда ватанпарварлик кўникмаларини шакллантиришида инновацион ёндашувлар ҳақида сўз юритилган ва таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** ёшлар, ватанпарварлик, инновация, психологик-педагогик, гиёҳвандлик.

## INNOVATIVE APPROACHES TO THE FORMATION OF PATRIOTIC SKILLS IN YOUNG PEOPLE

**Abstract.** This article discusses and analyzes innovative approaches to the formation of patriotic skills in young people.

**Key words:** youth, patriotism, innovation, psychological and pedagogical, addiction.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ПАТРИОТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У МОЛОДЕЖИ.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются и анализируются инновационные подходы к формированию патриотических навыков у молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, патриотизм, инновация, психолого-педагогическая, наркомания.

Маълумки, жамият ҳаётининг ҳар қандай соҳасида рўй берган ўзгаришлар унинг бошқа соҳаларида ҳам муайян модернизацияни амалга ошириш заруратини юзага чиқаради. Айниқса, анъанавий жамиятдан замонавийсига трансформациялашаётган ўзбек жамиятида бу ҳол яққол кўзга ташланади. Юртимизда рўй бераётган кенг кўламли ислохотлар ва комплекс модернизация жараёнлари барча соҳалар қатори маънавий йўналишида фаолият олиб бораётган мутахассислардан ҳам замон талабларига мос инновацион илғор технологияларга асосланган янгича дунёқараш ва ёндашувни талаб қилмоқда. Деструктив кучларнинг глобал ахборот хуружлари авж олаётган ҳамда уларга илм-фаннинг энг сўнгги ютуқлари жарб қилинаётган бир пайтда маънавий тарғиботнинг ҳам янгича инновацион тезкор ва самарадор усулларини ишлаб чиқишга эҳтиёж ортмоқда. Аввалги бобда кўриб чиқилган бу борадаги илғор хориж тажрибаси ҳам шундан далолат бермоқда. Шундан келиб чиққан ҳолда мазкур бобда ёшларда ватанпарварлик ва миллатпарварлик кўникмасини шакллантиришнинг телесериаллар, видеороликлар, таниқли шахслардан интервью олиш, ўзбек халқининг буюклиги ҳақидаги кўпчиликка маълум бўлмаган фактларни омалаштириш, хусусан, ўзбек фольклёри, ашула ва ракс, тасвирий ва амалий санъат намуналарини интернетда кенг тарғиб қилиш сингари инновацион усуллари таҳлил қилинади. Қолаверса, уларни амалга оширишдаги мураккаб жиҳатлар ҳамда ижобий ва салбий оқибатлар тадқиқига алоҳида диққат қаратилади.

Ватанпарварлик ва ватанпарварлик тарбиясини уларнинг фуқаролик ва фуқаролик таълими билан ўзаро боғлиқлиги нуқтаи назаридан кўриб чиқишга бундай ёндашиш фуқаролик тарбиясининг ижтимоий ва ҳуқуқий устунлигини ватанпарварлик тарбиясининг

маънавий-ахлоқий принципи билан яқинлашиш, интеграция жараёнлари билан боғлиқ. Шу нуктаи назардан, бугунги кунда энг муҳим услубий муаммолардан бири бу «фуқаролик-ватанпарварлик таълими» тушунчасининг предмет-категорик таърифининг етарли даражада ривожланмаганлиги ва «ватанпарварлик» ва «фуқаролик» тушунчалари ўртасидаги алоқаларнинг етарли даражада ўрганилмаганлигидир.

Фалсафий ва психологик-педагогик адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, фанда фуқаролик-ватанпарварлик таълимини ўрганиш учун услубий асослар ишлаб чиқилган, аммо бу муаммо ажралмас педагогик ҳодиса сифатида ўзининг ижтимоий, психологик ва технологик нуктаи назаридан махсус ўрганиш мавзуси эмас эди.

Ватанпарварлик тарбияси фуқаролик тарбияси муаммолари билан биргаликда кўриб чиқилган ишлар, хусусан: замонавий университетда талабаларнинг фуқаролик тарбияси бўйича тадқиқотлар Н.А. Савотина, замонавий дунёда фуқаронинг таълим ва тарбия муаммолари тўғрисида А.С. Гаязов, таълимни инсонпарварлаштириш шароитида университет талабаларини ватанпарварлик тарбиясининг педагогик шартларини аниқлаш тўғрисида, Э.В. Чекунов, замонавий шароитда бўлажак ўқитувчилар фуқаролигини шакллантириш тўғрисида А.К. Нурғалиева ва бошқалар алоҳида аҳамият касб этади. Ватанпарварлик ва фуқаролик тарбиясининг органик алоқаларига ишора қилиб, муаллифлар Ватанга муҳаббат туйғусини асос сифатида шакллантиришни таклиф қилишади, чунки инсоннинг фуқаролик онгининг энг муҳим хусусиятларидан бири бу унинг ватанпарварлик даражасидир. ва чинакам ватанпарварликни ўз Ватанининг тақдири учун фуқаролик масъулиятини англамасдан, жамиятнинг маънавий ва моддий муҳитини ижобий ўзгартиришга қаратилган фаол ижтимоий фаолиятисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Олий таълимнинг, шу жумладан педагогиканинг ҳозирги ҳолати асосан «билим» ёндашувига йўналтирилган олий ўқув юртида мавжуд ўқитиш модели туфайли ўқитишга ва озроқ даражада тарбиялашга қаратилган. Кўпгина ёшларнинг фуқаролик-ватанпарварлик фаолиятида иштирок этиши расмий характерга эга ва уларнинг баъзилари унга нисбатан бефарқ муносабатни намоён этадилар, бу эса таълимдаги «воқеавийлик» ёндашувига эскирган йўналиш билан боғлиқ. Фуқаролик-ватанпарварлик кадриятларини бўлажак мутахассислар томонидан сингдириш ва уларни интериоризация жараёнида шахсан аҳамиятли даражаларда қабул қилиш учун ҳали ҳам етарли даражада ривожланмаган педагогик шарт-шароитлар мавжуд.

Замонавий талабалар ўзгарган ижтимоий-иқтисодий муносабатлар шароитида ўсган авлодни акс эттиради, бу эса ёшларнинг кадрият йўналишларига таъсир кўрсатмаслиги мумкин эмас. Талаба ёшлар вакили бўлган ижтимоий-демографик гуруҳнинг асосий хусусиятларини таҳлил қилиш қуйидаги тенденцияларни ажратиш кўрсатишга имкон беради.

- Талабаларнинг аксарият қисми келажакка бўлган юқори даражадаги ижобий муносабатни, келажакка қатъий ишонч билан, шунингдек, шахсий алоқалар ёки пулни эмас, балки ўз ҳаётини йўлларини муваффақиятли топа олишлари имкониятини бериш воситаси таълим эканлигини аниқ тушуниб этадилар. Улар сифатли таълимни етакчи ижтимоий кадрият деб биладилар, унинг даражасини ошириш коррупцияни йўқ қилиш учун зарур шарт-шароитларни яратади.

- Талаба ёшларнинг ижобий ва салбий хусусиятларини умумлаштириш шуни кўрсатадики, улар бир вақтнинг ўзида алтуризм ва эгоизм, инсонпарварлик ва тажовузкорлик, интеллектуаллик ва маънавий етишмаслиги, онгли ватанпарварлик ва Ватан тақдирига бефарқлик билан ажралиб туради. Бу ҳозирги ёшларнинг интеллектуаллик даражаси ва ахлоқ даражаси бўйича гуруҳларга ажратилишини тушунтиради.

- Гиёҳвандлик ва ёшлар ўртасидаги жиноятчиликнинг ўсиши, умумий маданият даражасининг пасайиши, атроф-муҳитнинг ифлосланиши, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилиши, жамиятда моддий жиҳатдан табақаланишнинг давом этиши каби замонамизнинг долзарб муаммоларини ҳал этишда бефарқ бўлмаган талабаларнинг хиссаси юқори.

- Ёшларнинг катта қисми онгида, уларнинг ҳуқуқлари ва имкониятларини билмаслик сабабли ҳуқуқий нигилизм ҳукмронлик қилмоқда, бу эса ёшларнинг ўз фуқаролик ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя қилиш тўғрисидаги қарама-қарши қарорларида намоён бўлади. Талабаларнинг ахлоқий-ҳуқуқий социализациясини шакллантиришга ёшлар бирлашмалари ва ташкилотлари ёрдам беради.

- Ёшлар муҳитида, қиммат турмуш тарзининг порлашини реклама қилувчи оммавий ахборот воситаларининг салбий таъсири остида, меҳнатга қизиқишнинг пасайиши ва унинг ўрнини ҳедонистик муносабат билан алмаштириш тенденцияси кучаймоқда.

- Ёшларнинг ижтимоий кайфиятига уларнинг меҳнат бозорида рақобатбардошлигининг пастлиги, тажриба, малака ва иш қобилиятининг етишмаслиги таъсир қилади. Ёшлар орасида ишсизлик даражаси юқори даражада қолмоқда.

- Сўнги йилларда ёшларда мамлакатнинг ижтимоий ва сиёсий ҳаётида иштирок этиш эҳтиёжининг ортиши билан боғлиқ ҳолда талабаларнинг сиёсий фаоллигини сезиларли даражада ошириш тенденцияси кузатилмоқда. Бироқ, ёшларнинг катта қисми сиёсатга кучли йўналтирилмаган ва унга қизиқиш билдирмаяпти.

Шахснинг фуқаролик социализациясининг асосий йўналишларидан бири бу шахснинг Ватан билан идентификациясидир. Кўпчилик Респондентлар фуқароликни яшаш мамлакати билан идентификация қилиш сифатида қабул қилишади, гарчи сиёсатшуносликда фуқаролик идентификацияси нафақат маълум бир давлатга мансублик хисси, балки унинг сиёсий қадриятлари билан келишиш, маълум бир муносабат (ҳамдардлик, давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш, норозилик) ҳам ҳисобланади.

Фуқароларнинг ўз-ўзини идентификация қилиши, ҳарбий хизматга муносабат, ёшларнинг миллий ва диний онги каби муаммолар уларнинг ватанпарварлик кайфиятининг даражасини белгилайди.

Бугунги кунда, ёшларнинг маънавий, маданий ва ватанпарварлик салоҳияти кўрсаткичларининг нисбатан ўсиши кузатилмоқда.

Бироқ, ўзларини ватанпарвар деб биладиган бугунги айрим ёшлар учун «ватанпарварлик» тушунчаси ноаниқ, мавҳум, яъни ватанпарварлик улар томонидан шахсга аниқ ҳаракатлар ва хатти-ҳаракатлар шакллари учун алоҳида жавобгарликни юкламайдиган туйғу сифатида қабул қилинади. Ёшлар орасида эготцентризм ва ҳаётга истеъмомчи муносабати руҳи тарқалмоқда. Ўзининг ибтидоийлиги туфайли ёшлар учун тушунарли бўлган оммавий маданиятнинг кенг тарқалиши маънавий қашшоқликка,

ахлоқий таназзулга ва интеллектуал пассивликка олиб келади. Шу нуқтаи назардан, ҳақиқий ватанпарварлик сўзлар эмас, балки мамлакат ҳаёти билан боғлиқлик ва унинг муаммоларини ҳал қилишда ўз фаол иштироки эканлигини тушунтириш учун ёшлар билан самарали мақсадли иш олиб бориш зарур.

Тадқиқотимизда биз унинг экспериментал қисмини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда тизимли ёндашувни қўлладик. Биз замонавий университетда фуқаролик-ватанпарварлик таълими тизимини яратиш тўғрисида гаплашмоқдамиз, у ерда талабалар - бўлажак ўқитувчилар фуқаролик шаклланиш мактабидан ўтишлари ва ўзларининг ватанпарварлик шахсларини аниқлашлари керак, чунки келажакда улар ўз ўқувчиларини фуқаролик ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш учун масъулиятни ўз зиммаларига оладилар. Шу сабабли, педагогика мутахассисликлари талабаларининг яқинлашиб келаётган бундай юксак вазифани бажаришга тайёрлик даражаси уларнинг касбий ваколатининг энг муҳим кўрсаткичидир.

### REFERENCES

1. Павлов В. И. Патриотическое и духовнонравственное воспитание будущих учителей // Сибирский педагогический журнал. – 2011. – № 2. – С. 139–146.
2. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. – М.: Просвещение, 1990. – 140 с.
3. Лутовинов В. И. Гражданско-патриотическое воспитание сегодня // Педагогика. – 2006. – № 5. – С. 52–59.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ



**Йулдошева Дилрабо Фазиловна**

Академический лицей УзГУМЯ кафедра "социально-гуманитарных наук"  
преподавательль высшей категории

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8227204>

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о современных подходах к преподаванию истории.

**Ключевые слова:** эффективное обучение, преподавание истории, эффективное преподавание истории, историческое сочувствие.

### MODERN APPROACHES IN TEACHING HISTORY

**Abstract.** This article provides information on modern approaches to teaching history.

**Key words:** effective teaching, history teaching, effective history teaching, historical empathy.

В изучении, анализе и освещении исторического события, явлений важны объективность, правдивость, справедливый подход. Прежде чем рассуждать об эффективной организации исторической науки, целесообразно изучить понятие “Эффективное образование”, проанализировав мнения отечественных и зарубежных исследователей.

Эффективное обучение-это образовательный процесс, в котором учащиеся имеют высокий уровень способности к самостоятельному обучению, восприятию, пониманию атмосферы урока и приобретению необходимых знаний путем сочетания различных стилей обучения преподавателей или применения их по отдельности.

Кроме того, эффективное обучение-это широкое понятие, которое необходимо оценивать по собственным показателям. Поэтому эффективное обучение-это комплекс различных сложных процессов, организованных для повышения качества образования.

Есть две основные характеристики эффективного обучения. К ним относятся: облегчение учащимся изучения различных фактов, навыков, ценностей и концепций; формирование у учителей способности использовать различные стратегии, методы и технологии обучения по отдельности или в сочетании, а не только один курс в классе;

Согласно другой точке зрения, эффективное обучение можно охарактеризовать как базовую педагогическую квалификацию, необходимую для повышения уровня успеха учащихся. В окружении этих мыслей можно сказать, что учитель, обеспечивающий эффективное образование, определяется как человек, который знает и любит свою профессию и область, знающий, мотивированный, целеустремленный, упорядоченный и

доступный, способный быстро и правильно принимать решения, справедливый и в то же время способный распространять знания среди учащихся и заинтересованный в их мире и будущем.

5. Ximmataliyev D., Umarova G. THE ATTITUDE OF PRIMARY SCHOOL PUPILS TOWARDS READING //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 266-270.
6. Murodiljonovna G. U. et al. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA BO'LGAN MUNOSABATINI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 150-154.

7. Murodiljonovna G. U. et al. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI ANIQ FANLARGA QIZIQISHINI OSHIRISH METODIKASI //Conferencea. – 2023. – C. 163-172.
8. Murodiljonovna G. U. et al. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI MATIMATIKAGA BO'LGAN MUNOSABATINI KUCHAYTIRISH METODLARI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 360-366.
9. Murodiljonovna G. U. et al. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA BO'LGAN MUNOSABATINI SHAKLLANTIRUVCHI METODLARI //Conferencea. – 2023. – C. 75-81.
10. Murodiljonovna G. U., Ximmataliyev D. O. O 'smirlarda vatanparvarlik tuyg 'ularini shakllantirishning usullari va vositalari //Ustozlar uchun" fidoi va jonkuyar pedagoglar jurnali. – C. 13-23.
11. Murodiljonovna U. G. Kichik maktab yoshidagi o 'quvchilarda o 'qishga bo 'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish //Pedagogs" international research journal. – T. 21. – C. 7-10.
12. Murodiljonovna G. U. et al. INKLYUZIV TA'LIM VA UNING BUGUNGI KUNDAGI RIVOJLANISHI //Conferencea. – 2022. – C. 108-111.
13. Umarova G., Ximmataliyev D. FORMATION OF ATTITUDES TOWARDS LEARNING IN YOUNGER SCHOOL-AGE STUDENTS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B1. – C. 184-186.
14. Umarova G. PREPARING FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON THE DEVELOPMENT OF THEIR DIGITAL COMPETENCIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B7. – C. 71-77.
15. Abdullayeva B., Umarova G. ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING DIGITAL COMPETENCIES OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B7. – C. 67-70.

ТИББИЁТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ТИББИЙ  
МАДАНИЯТИНИ БИОЭНЕРГЕТИК БИЛИМЛАР АСОСИДА  
ШАКЛЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Хайдарова Махлиё

Низомий номидаги ТДПУ тадқиқотчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8242577>

**Аннотация.** Мақолада талабалар ҳис-туйғуларини тарбиялаш, ҳиссиётларни ривожланиши, ҳиссиётларнинг инсон соғлиғига таъсири каби масалалар ҳақида фикр юритилди.

**Таянч иборалари:** Ҳис-туйғулар, инсон энергетикасининг, биоэнергетик майдонда, ҳиссиётлар потологияси, ижобий ҳис энергияси Таянч тушунчалар: қизиқиш, қувонч, ҳайратланиш, изтироб, газабланиш, нафратланиш, жирканиш, қўрқув, уялиш, виждон, ахлоқий ҳиссиётлар, агрессив ҳиссиётлар, муҳаббат.

WAYS TO FORM THE MEDICAL CULTURE OF STUDENTS IN MEDICAL  
HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF BIOENERGETIC  
KNOWLEDGE

**Abstract.** The article expressed the opinion about the bioenergetic assessment of the feelings of students of medical higher education institutions.

**Base concepts:** interest, joy, admiration, anguish, anger, hatred, disgust, fear, shame, conscience, moral feelings, aggressive emotions, love, energy of human energy, in the bioenergetic field, potency of emotions, energy of positive emotions.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ НА  
ОСНОВЕ БИОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В МЕДИЦИНСКИХ ВЫСШИХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Аннотация.** В статье высказано мнение о биоэнергетической оценке ощущений студентов медицинских вузов, статья посвящена таким вопросам, как воспитание чувств учащихся, эмоциональное развитие, влияние эмоций на здоровье человека.

**Базовые понятия:** интерес, радость, восхищение, страдание, гнев, ненависть, отвращение, страх, стыд, совесть, моральные чувства, агрессивные эмоции, любовь, энергия человеческой энергии, в биоэнергетическом поле, сила эмоций, энергия положительных эмоций.

Жаҳон таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида тиббиёт ходимларининг биотиббий тадқиқотларда иштирокини таъминлаш, ижтимоий-психологик омилларга мувофиқ инсон саломатлигини аниқлаш, беморларга терапевтик таъсир кўрсатиш мақсадида Тиббиёт Олий таълим ташкилотлари талабаларининг тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Айни вақтда Тиббиёт Олий таълим ташкилотлари талабаларининг тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантириш ҳамда илмий дунёқарашга эга бўлган ва тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантиришга, тиббий касбий таълим эҳтиёжлари ва жамият саломатлигини асраш, йўналтирилган илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Республикамизда сўнгги йилларда халқаро тиббиёт ташкилотлари билан стратегик ҳамкорликни кенгайтириш, Тиббиёт Олий таълим ташкилотлари талабаларининг тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантириш орқали касбий фаолиятда инсон саломатлигига оид тиббий билимлар ва тажрибани самарали қўллаш, жорий клиник муаммоларни ҳал қилишга асосланган модуль тизимини жорий қилиш, Олий таълим ташкилотлари талабаларининг тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантириш ҳисобига бўлажак тиббиёт ходимларининг касбий дунёқарашини кенгайтириш, шунингдек, тиббий компетенцияларини такомиллаштиришнинг меъёрий асослари яратилмоқда “Таълим стандартлари, ўқув дастурлари ва дарсликларни такомиллаштириш, Олий таълим ташкилотлари талабаларининг тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантиришда илғор хорижий технологияларини татбиқ қилиш, педагогик таълимни модернизация қилиш”<sup>20</sup> устувор вазифалар этиб белгиланди. Ўз навбатида, Тиббиёт Олий таълим ташкилотлари талабаларининг тиббий маданиятини биоэнергетик билимлар асосида ривожлантиришга тайёрлашни такомиллаштиришнинг педагогик, дидактик ва методик имкониятлари кенгайтирилди.

Инсон табиатнинг энг мукамал ва шу билан бирга энг мураккаб ҳосилоти бўлганлигидан уни жуда кўп фанлар маълум бир қисмини ўрғанади. Психология, педагогика, физиология, анатомия, биология, тиббиёт ва бошқа кўплаб фан олимлари ўз йўналиши бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб борадилар. Аммо ана шу фанларнинг барчаси битта, яхлит, ўзаро мустақкам ва мураккаб боғлиқликларга эга бўлган ягона организмни ўрғанаётганлиги баъзан эътибормиздан четда қолади. Ўрганиш объекти битта бўлган фанларнинг илмий-тадқиқотлари фақат ўз йўналиши билан чегараланиб қолиши, фаннинг кейинги ривожига баъзан жиддий зарар етказиши мумкин. Агар тиббиёт фақат танани даволаш билан чекланса, психология психик хусусиятларни физиологик жараёнлардан ажратган ҳолда тадқиқ этса, педагогик жараёнда физиологик, биологик хусусиятлар ҳисобга олинмаса, илмий-тадқиқот натижаларининг самарадорлиги пасаяди.

Ҳис-туйғулар инсоннинг ички кечинмалари билан боғлиқ бўлиб, кўпроқ мия эмас, балки қалб иштирокида юз беради деб айтиш мумкин. Биз фикрнинг маълум шаклга эга бўлган нозик қувват деб талқин этган эдик, аммо ўйлаб кўринг инсон ҳис-туйғулари фикр олдида, у билан солиштирганда қанчалик нозикроқ ва шу билан бир қаторда чалкашроқдир. Бизнинг фикрларимиз ҳис-туйғуларимиз олдида анча катта аниқликка эга, ҳис-туйғулар эса бир вақтнинг ўзида бир-бири билан шунчалик уйғунлашиб кетадики, инсоннинг ўзи ҳам ўзининг ички дунёсини тушуниши, нима истаётганлигини англаб етиши, баъзан жуда мушкул бўлиб қолади. Демак, ахлоқий ҳис-туйғулар бу ўта мураккабликка эга бўлган ва нозиклигидан, ҳамда ҳаракатчанлигидан англаб олиш қийин бўлган инсондаги кечинмалардир. Аммо шуни буткул қатъият билан айтиш мумкинки, ахлоқий ҳис-туйғулар ҳам худди фикрларимиз сингари нозик энергия манбаи ҳисобланади. Буни психологлар ва

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида тиббий таълим тизимини янада ислох қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. ПҚ-2956 // Халқ сўзи. - резидента – Т., 2018. – № 270-271 (7198-7199); Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. ПФ-4947 // [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3107036#3109146](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036#3109146)

шифокорлар бир овоздан тасдиқлашлари мумкин. Буни ҳар бир инсоннинг ўзи ҳам ҳаёти давомида кўп маротаба ўз бошидан кечирган. Масалан: сиз бирор ҳодисадан ёки бирор кишидан кучли завқ олсангиз шу заҳоти ўзингизни бир оз кучлироқ, енгилроқ, бардамроқ сезиб қолганлигингизни пайқаганмисиз? Бу ижобий ҳис энергияси ҳисобланади.

Агар сиз тушкунликка тушсангиз ўзингизни оғир, чарчаган ҳолда эканлигингизни пайқай бошлайсиз. Демак, бизнинг ҳамма ҳис-туйғуларимиз маълум кучга ёки бошқача қилиб айтганда энергияга эга. Инсон энергетикасининг баъзи қонунлари билан биз юқорида танишиб ўтган эдик. Ушбу қонунлар ҳис-туйғулар энергиясини иш фаолиятида ҳам тўлақонли ҳокимиятга эга. Биоэнергетик қонуниятлар бу ҳолда универсал сифатида қаралиши керак. Инсоннинг ички муҳитини уйғунлиги айнан унинг ҳис-туйғулари билан боғлиқ. Ҳис-туйғуларнинг ўзгарувчанлигини ҳисобга олсак, ички муҳит уйғунлигини нақадар тез парчаланиб кетишини тасаввур қилиш мумкин. Биз инсоннинг ҳис-туйғуларини бевосита, худди фикр сингари кўра олмасак-да, уни сезамиз. Инсоннинг кўз илғамас самимияти, виждонийлиги, ҳақгўйлиги, меҳри унинг хатти-ҳаракатида, фаолиятида ўз аксини топади.

Биз юқорида айтиб ўтганимиздек, фикрлаш жараёни ва инсон соғлиғи орасида маълум боғлиқлик бор. Худди шундай ҳиссиётлар ҳам инсон соғлиғининг маънавий асосидир десак тўғри бўлади. Ҳиссиётлар инсон соғлиғини белгилашда, унинг тақдирини шаклланишида беқиёс аҳамият касб этади. Шунга қарамай айтиб ўтиш лозимки, бугунги кунда психология фани ҳиссиётларни тарбиялашга керакли бўлган даражада эътибор ажрата олмаяпти. Ҳиссиётлар тарбияси деярли четда қолиб кетяпти. Биз кўпроқ хулқ-атвор, эътиқод ҳақида сўз юритамиз, аммо ана шу хулқ-атвор қандай ҳиссиётларга суянган ҳолда бажарилиши кераклиги ҳақида сўз юритмаймиз. Биз ахлоқий тарбиянинг ташқи элементларига диққатимизни қаратамизу, инсоннинг ички кечинмалари билан қизиқмаймиз. «Инсон қандай ҳис-туйғуларни ва нима учун ривожлантириши керак, бу ҳис-туйғулар инсонга нима тақдим этади-ю, қандай зарар келтиради?» – деган саволларга жавоб қидирмаймиз.

Ҳиссиётларни тарбиялаш, ҳиссиётларни ривожланиши, ҳиссиётларнинг инсон соғлиғига таъсири каби масалалар бугунги кунда психологлар, шифокорлар ва педагогларнинг тобора кўпроқ қизиқтириб бориши бу фанлар ўртасида интегратив жараёни вужудга келтирмоқда. Бу ҳолни вужудга келиши бежиз эмас, албатта. Инсон ўз соғлиғини йўқотишидан аввал, яъни касаллик вужудга келишидан олдин организмнинг маълум тизимлари ўз вазифаларини тўлақонли бажараолмай қўяди ва бунга албатта инсонда маънавий шарт-шароит сабаб бўлади. Бу шарт-шароитларни шифокорлар тилида «ҳиссиётлар потологияси» деб аталади. Бошқача қилиб айтганда ҳар қандай касаллик ҳиссиётлар потологиясидан бошланади. Масалан: оилавий нотинчлик ҳиссиётлар потологиясига олиб келувчи биринчи омиллардан биридир. Уриш, жанжал-тўполон албатта асабийлашиш, нафратланиш, жирканиш каби ҳиссиётларни келтириб чиқаради. Бундай салбий ҳиссиётлар эса ўз навбатида аллергия, астма, асаб ва юрак томир касалликларини келтириб чиқаради. Бу касалликлар кучайишга (фаоллашишга) сўнгра эса сусайишга мойил. Худди бизнинг ҳис-туйғуларимиз сингари ўзгариб туради. Ошқозон, юрак, ўпка, жигар, буйрак умуман инсоннинг ҳамма аъзолари ҳиссиётлар ритмига асосланган ҳолда иш юритади. Албатта, бизнинг ҳиссиётларимиз жуда ўзгарувчан. Аччиқланиш ва қаттиқ



чарчаш, рухий ва жисмоний толиқиш – булар ҳаммаси астенияга олиб келади, бу эса маълумки турли касалликларнинг кенг тарқалган симптомларидан (белгиларидан) бири бўлиб ҳисобланади. Салбий ҳиссиётлар, қоникмаслик, жиззакилик, нафрат, жирканиш каби ҳиссиётлар нафақат асаб тизимига, балки биоэнергетик майдонга ҳам ўз таъсирини ўтказди. Бу ҳиссиётлар энергия алмашинувини бузади, биоэнергетик майдонда салбий кўрсатмаларни (дастурларни) ҳосил қилади. Ушбу кўрсатмалар қулай шароит туғилганда касаллик тарзида юзага чиқиши мумкин. Баъзи салбий кўрсатмалар юзага чиқмасда авлоддан-авлодга ўтиши мумкин. Бу эса кейинги авлодни ҳиссий хусусиятларини ирсий жиҳатдан ноқулай белгилар билан туғилишига асос яратади. Салбий ҳиссиётлар салбий фикрларни вужудга келишига сабабчи бўлади. Демак, психология фани бугунги куннинг шарт-шароитларини ҳам ҳисобга олган ҳолда ҳиссиётлар тарбияси билан шуғулланиши лозим. Бугунги кунда психология фани олдида қуйидаги саволлар ўз ечимини кутиб турибди:

1. Талабаларда ахлоқий ҳис-туйғуларни ривожлантиришнинг самарали методлари қандай?
2. Ахлоқий ҳис-туйғуларни ривожлантиришнинг аҳмияти қандай?
3. Виждон, завқ, ғурур, меҳр-муҳаббат, масъулият каби ҳисларни ривожлантириш қандай билимларга асосланиши керак?

Демак, ушбу саволларга жавоб қидириб, биз қуйидаги хулосаларга келдик.

Биринчидан, талабаларга ахлоқий ҳислар ва салбий ҳислар орасидаги фарқни кўрсатиш, яъни уларни маълум синфларга ажратиш лозим. Бу ҳисларнинг инсон ҳаётидаги ўрни ва аҳамиятини аниқлаб бериш керак.

Иккинчидан, ҳар бир ҳис инсоннинг ички дунёсига қандай таъсир кўрсатишини аниқлаб олиш муҳим. Турли хил ҳис-туйғуларни бошдан кечириш охир оқибати билан танишиб бўлгач эса ана шу ҳис-туйғуларни бошқариш ва энг муҳими керакли меъёрни аниқлашга талабаларни ўргатиш каби вазифаларни бажариш керак бўлади. Албатта ҳис-туйғуларни бошқариш ва уларни тарбиялаш жуда нозик ҳамда мураккаб масала. Шунинг учун бу вазифани амалга оширишда алоҳида тажрибалар ўтказиш ва маълум методларни ишлаб чиқиш талаб этилади. Биз ўз олдимизга алоҳида методлар ишлаб чиқишни эмас, балки психология фанига ҳис-туйғуларни тарбиялашдек долзарб муаммони киритишни ва уларни тарбиялашда биология хусусан биоэнергетика фанининг эришган илмларидан фойдаланишни мақсад қилиб қўйганмиз. Биз юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, биоэнергетик жиҳатдан ҳис-туйғулар ижобий (инсонга куч бағишловчи, унга ички уйғунлик бағишловчи) ва салбий (инсоннинг кучини камайтирувчи, ички муҳитида номуносивликка олиб келувчи) гуруҳларга ажралиши мумкин экан. Аслида, мантиқий нуқтаи назардан барча ҳис-туйғулар ўз ўрнида мавжуд ва керакли. Биз салбий ҳис-туйғуларни умуман ҳис этмасак, ўз навбатида ижобий ҳисларни ҳам тўғри баҳолай олмаган, ижобий ҳисларнинг қадрига ҳам етмаган бўлар эдик.

Ҳозирги даврда инсонни ва асосан ёшларни тўғри яшашга, тўғри фикр юритишга, тўғри ҳис этишга ким ўргатиши керак? Ким ва қайси фан бу масалалар билан шуғулланмоқда? Нима учун психология фанификр тарбияси, ҳис-туйғулар тарбияси борасида асосли илмий-тадқиқот ишлари олиб бормаяпти, бу борада тарбия методларини ишлаб чиқмаяпти? Психология фанида бу йўналишда маълум тавсиялар ишлаб чиқилмаган.

Биз олийгоҳларда талабаларни тўғри ҳис этишга ва фикр юритишга керакли даражада ўргатмаймиз. Ҳозирда ҳар бир инсон бу масалаларни ўзи учун ўзи ҳал этмоқда. Баъзан онгли, баъзан эса онгсиз равишда маълум йўналиш танланади. Бу йўналиш талабаларнинг кейинги ҳаётида ўзини қандай акс эттириши ҳам номаълум. Талабалар қандай ҳиссиётлар фойдали ёки зиён, келажакда салбий ҳиссиётлардан қандай қутулиш керак ва нима учун қутулиш керак эканлигини тасаввур қила олмайдилар. Улар ўз ҳиссиётларини ривожланишини назорат ҳам қилмайдилар. Бу жараёни кўпгина талабалар ўз ҳолига ташлаб қўйганлар. Ҳатто, катта одамлар ҳам ўз ҳиссиётлари ҳақида кам гапирадилар. Бундай шарт-шароитда ёшлар қандай қилиб комилликка интила оладилар?

Мана шу мулоҳазалар бизни ҳис-туйғуларнинг аҳамиятини илмий жиҳатдан таҳлил этишга ундади. Биз ўз маърузаларимизда талабаларга ахлоқий ҳис-туйғуларнинг инсон организмга қандай таъсир кўрсатишини ва ҳиссиётлар ахлоқига амал қилмаслик натижасида қандай ҳолатлар вужудга келиши мумкинлигини кўрсатиб беришга ҳаракат қилдик. Бундан ташқари, биз талабаларга ўзларида ахлоқий ҳисларни қандай қилиб ривожлан-тиришларини ва салбий ҳиссиётлар билан қандай қарши курашиш йўллари белгилаб беришга ҳаракат қилдик. Бизнинг асосий мақсадимиз талабаларда ахлоқий ҳиссиётларга нисбатан тўғри, илмий муносабатни тарбиялаш бўлди.

«Ҳис-туйғулар – кишининг ўз ҳаётида нималар юз бераётганига, нималарни билиб олаётганига ёки нима билан машғул бўлаётганига нисбатан ўзича турли хил шаклда билдирадиган муносабатидир» деб таъриф берилган умумий психология дарслигида<sup>21</sup>. Бирон-бир нарсани идрок этилаётган, тушуниб олинаётган, маълум ёки номаълум нарсаларга нисбатан шахсий муносабат билан биргаликда рўй беради. Ана шу ҳолларнинг барчасида ҳис-туйғуларнинг бошдан кечирилиши хусусида, кишининг алоҳида ҳиссий ҳолати хусусида гапирилади. Шу билан бирга ҳис-туйғуларнинг кечиши ўз ривожланишига эга бўлган, жорий ва ўзгариб турадиган психик жараёндир. Ҳис-туйғулар – шахснинг эмоционал соҳасини ташкил этадики, улар киши хулқ-атворини тартибга солиб туришда иштирок этади. Одамлар ўртасида мураккаб ва кўп қиррали муносабатлар ҳис-туйғулар иштирокида ташкил топади.

Ҳис-туйғулар – воқеликни акс эттиришнинг ўзига хос шакллари билан бирдир. Агар билиш жараёнида нарсалар ва воқеликдаги ҳодисалар акс этса, ҳис-туйғуларда эса субъектнинг ўзига хос эҳтиёжлари билан қўшилиб, ўзи

билиб олаётган ва ўзгартираётган нарсаларга ва воқелик ҳодисаларига нисбатан унинг муносабати акс этади. Барча психик жараёнлар каби

эмоционал ҳолатлар, ҳис-туйғунинг кечиши ҳам мия фаолиятининг натижаси ҳисобланади. Албатта, уларнинг кечишида шартли ва шартсиз рефлекслар ҳам иштирок этади.

Ҳис-туйғу кечинмалари ҳар доим ҳам бир хил тусда бўлавермайди. Ҳиссий ҳолатда, иккита бир-бирига зид ҳис-туйғуларнинг ўзига хос бирикмасини мужассамлаштириш ҳам мумкин; масалан: ишқ-муҳаббат ва нафрат рашқ ҳиссини бир-бирига қўшилиб кетиши (ҳис-туйғуларнинг амбивалентлиги ҳодисаси).

<sup>21</sup> Петровский А.В. ва б. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи.–1992.– 400 б.

Кишининг ҳис-туйғулари рўй беришига кўра мураккаб шартсиз рефлексларга боғлиқ бўлгани ҳолда ижтимоий хусусиятга эгадир. Ҳис-туйғулар – киши шахсининг анча ёрқин кўринишларидан бири бўлиб, у билиш жараёнлари ва хулқ-атвор ҳамда фаолиятни иродавий бошқариш билан биргаликда намоён бўлади.

Ҳис-туйғулар (тор маънода) киши шахсининг йўналтирилганлигида мужассамлашган барқарор эҳтиёжлари объектига нисбатан унинг муносабатини акс эттиради. Психологияда ҳис-туйғулар турларининг ягона таснифи йўқ. Кўпинча қуйидаги турлари алоҳида ажратиб кўрсатилади: маънавий (ахлоқий), интеллектуал (ақлий) ва эстетик (нафосат) ҳис-туйғулари. Маънавий (ахлоқий) ҳис-туйғуларга муҳаббат (кенг ва тор маънода), ҳамдардлик, инсонпарварлик, садоқат ва виждон киритилади.

Шу нарса эътиборга лойиқки халқ табобати қадимги даврлардан бошлаб инсон саломатлигини сақлаш борасида тана соғлиги ва қалб поклигига алоҳида эътибор бериб келган. Замонавий психология ва тиббиёт ҳам соғлиқни сақлаш борасида энг муҳим муаммолардан бири ички уйғунликка эришиш эканлигини таъкидлайди. Агар инсон ўз эътиқодига, ишончига нисбатан нотўғри хатти-ҳаракат қилса, виждон азобига учрайди. Айни ана шу виждонни қийналиши қилинган хатони тузатишга ундайди. Бунда ҳатто инсон ўзини расман оқласа ҳам виждони қийналиши давом этаверади. Бунда ички сиқилиш, таранглик, бесарамжонлик, ҳотиржамликни йўқолиши юзага келади. Буни стресс ҳолати деб ҳам аташ мумкин.

Демак, «Виждон» бекорчи насиҳатгўйлар ўйлаб топган абстракт тушунча эмас. У ҳаракатланувчи психик омилдир. У ҳар доим кундалик кайфиятимизга ва шу орқали соғлиғимизга ўз таъсирини кўрсатади. Шундай қилиб, психик стресслар юзага келтирадиган касалликларни олдини олишда инсоннинг ички поклиги, виждон поклиги катта аҳамиятга эга. Чунки айнан инсон ҳалоллиги қудратли ва сеҳрли таъсир кучига эга. Организмни ҳимояловчи ҳиссиётлар англандан ва англанданмаган ҳолда амалга оширилади ва айнан шу ҳиссиётлар инсоннинг психик ҳолатини яхшилайдди.

Инсон эмоция механизмларини ўзининг олдинги аждодларидан мерос қилиб олган. Шунинг учун ҳам инсоннинг баъзи эмоциялари жониворларникига ўхшаш (ғазаб, очлик, чанқоқлик, кўркув), лекин булар организм талабларини қондиришдаги энг оддий эмоциялардир. Онг ва юксак инсоний талаблар ривожланиши билан инсонда янада мураккаброқ инсоний ҳиссиётлар ривожлана бошлади. Юқоридаги фикрлардан қуйидаги мантиқий фикр вужудга келади. Эмоциялар ҳиссиётлардан фарқли ўлароқ узок эволюцион давр мобайнида вужудга келган ва у фақат инсонга эмас, балки жониворларга ҳам хосдир. Улар физиологик талабларни қондиришга хизмат қилади. Ҳиссиётлар эса эмоциялар асосида идрок иштирокида фақатгина инсонга хос ижтимоий муносабатлар муҳитида ривожлангандир.

Инсон талабларининг эса кўпчилик қисми тарбия асосида шаклланади, улар жамият томонидан ривожлантирилиб борилади (масалан, гигиеник талаблар, маданий талаблар). Ушбу талаблар ҳиссиётларни ривожланишида бевосита иштирок этади. Кўпгина ҳиссиётлар ақлий фаолият билан шундай боғланганки, улар фаолиятсиз мавжуд ҳам бўла олмайди. Инсоннинг эмоционал ҳолатини ва ҳиссиётларини турли-туманлигини кўрсатишда ҳар қандай ҳисоб-китоб, мезонлар ва классификациялар ожиз эканини тан олиш лозим. Уларни қуёш нурларининг рангларига ўхшатиш мумкин. Яъни асосий

рангларни аниқлаб олишгина мумкин бўлади ана шу асосий ранглардан эса беҳисоб равишда турли-туман рангларни комбинациясини олиш мумкин. Ҳис-туйғулар ҳам худди шундай хусусиятга эга, биз уларнинг фақат баъзи асосийларини гуруҳлашимиз мумкин халос. Бизнинг бу гуруҳлашимиз албатта турли хил мезонлар асосида бўлиши ҳам мумкин. Шунинг учун ҳам ҳозирда ҳис-туйғуларни гуруҳлаш бир-биридан фарқ қилувчи бир қанча йўналишларда бормоқда. Демак, инсон ҳиссиётларини танлаб олинган кўрсаткичларга қараб турлича гуруҳларга ажратиш мумкин. Масалан, уларни ёқимли ва ёқимсизлигига қараб гуруҳлаш ёки ижобий, салбий ҳисларга ажратиш ёки бошқа одамларга билдириладиган ва ўзига билдириладиган ҳиссиётлар гуруҳларини ажратиш мумкин. Бу ҳолда бошқа одамларга билдириладиган ҳиссиётларга муҳаббат, миннатдорчилик, ҳасад, нафрат кабилар кирса, ўзига билдириладиган ҳиссиётларга: ўзидан мамнун бўлиш, уялиш, афсусланиш кабилар киритилади. Атроф-оламдаги ҳодисаларга баҳо бериш билан боғлиқ бўлган ҳиссиётлар бор масалан: ачиниш, хафсаласи пир бўлиш, хурсандчилик. Бир қанча ҳиссиётлар ўзини сақлаш инстинкти билан боғлиқ масалан: қўрқув, хавотир, сергаклик ва бошқалар. Оралиқ ҳиссиётлар ҳам мавжуд, улар бир неча гуруҳларга ажратилиши мумкин: масалан, жаҳл ва алам ҳислари – улар инсоннинг ўзига ҳам, бошқаларга ҳам қаратилган бўлиши мумкин

Физиологлар ёқимли ҳиссиётлар кўпинча вегетатив асаб тизимининг парасимпатик бўлимини кўзғалиши билан, ёқимсизлари эса кўпинча симпатик бўлимини кўзғалиши билан боғлиқлигини аниқладилар. Айтиш жоизки, ижобий эмоциялар ҳам, салбий эмоциялар ҳам инсонда фаолият истагини уйғотади, инсонни ҳаракатга келтиради. Ушбу эмоцияларнинг йўқолиши инсондаги фаолиятга бўлган эҳтиёжни йўқолишига олиб келиши, апатия ҳолатини келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин. Бир тасаввур қилиб кўринг, агар инсон ҳаяжонланиш, муҳаббат, нафратланиш, шодланиш, хафа бўлиш кабилардан маҳрум бўлса, яхшилик ва ёмонликни ёлғиз совуқ идрок, ҳисоб-китоб йўли билан ажратиб, кибернетик ускуна сингари хатти-ҳаракат қилса, у қандай кўринишга эга бўлиб қолади?

Умуман биз уни тўлақонли шахс дея олармидик? Бу ҳолда инсон ўз қиёфасини, яъни инсонийлик хислатларини йўқотади. Бундан ташқари инсон ривожланиш, такомиллашиш эҳтиёжини ҳамда қобилятини йўқотиб қўяди.

Инсоний ҳиссиётнинг, эмоционал қобилятнинг йўқолиши инсонийликни йўқолишига олиб келади, физиологик эмоцияларни йўқолиши эса атроф-муҳит билан ҳар қандай алоқани бузилишига олиб келади. Эмоция ҳаётга, бизнинг атрофимизда содир бўлаётган ҳодисаларга қизиқишлар-имизни сақлаб туради.

Инсон ўзининг мукамаллиги ва камолига интилиши билан аҳамиятли ва кадрлидир. Инсоннинг ҳиссиётлари ва идроки бир-бирини тўлдириб, бойитиб боргандагина мукамалдир. Шунинг учун ҳам баркамол инсонни тарбиялаш қандайдир электрон машинани ихтиро қилишдан кўра анча мураккаброқдир.

Кўпинча адабиётларда стрессга, яъни стресс ҳолатига оид маълумотларни учратамиз. Уларнинг баъзиларида стресс ҳолатини ечимини топиш ва ижобий мақсадга эришишнинг психологияси кўрсатилади. Стресс ҳолатидан тўғри чиқиб кетиш ва бу ҳолатдан ривожланиш учун фойдаланиш учун йўл-йўриқлар кўрсатилади. Стресс ҳолатининг назорат қилинмаслиги эса нейробиологик етишмовчиликка олиб келади ва

феъл-атворда ўзгаришлар ҳосил қилади. Назорат қилинган стресслар бундай етишмовчиликни ҳосил қилмайди. Стресс ҳолатини назорат қилишга интилиш келажакда бу ҳолатларни ўзини йўқотиб қўймасликка, стресс ҳолатидан чиқа олиш қобилиятини ривожлантиришга хизмат қилади.

Аммо шуни ҳам айтиб ўтиш лозимки, ҳар бир инсоннинг стресс ҳолатига бардошлилик даражаси турлича. Бу бардошлилик даражаси асаб тизимининг мустаҳкамлиги, чидамлиги ва типлари билан белгиланади.

Қизиқарли ҳолат шундаки, инсон стресс ҳолатининг кўплигидан ҳам стресс ҳолатини умуман йўқолиб қолишдан ҳам руҳий изтиробга тушиб қолиши мумкин. Чунки стресс ҳолати маълум даражада организмни фаоллаштириб туришга ёрдам беради ва унинг бутунлай йўқолиб қолиши инсонда ҳаётини кизиқишни пасайтириб юбориши мумкин. Стресс ҳолатини бошдан кечириб, уни тўғри ечимини топиб, ана шу стресс ҳолатини енгиб чиққан одам эса кейинги ривожланиш учун маълум куч тўплайди, уни ҳаётини зарурат сифатида қабул қилиниши мақсадга мувофиқ, аммо ҳар бир одам ўзининг стресс меъёрини аниқлаб олиши керак.

Бу меъёр шундай даражада бўлиши лозимки, айнан шу ҳолатда инсон ўзини ички муҳитини уйғунлаштира олсин. Бунинг учун эса ҳар бир талаба ўз шахсини яхшироқ ўрганиши ва ўз ички муҳитида уйғунликни сақлашга ҳаракат қилиши лозим.

Талаба ўзининг стресс даражасини аниқлаб олганидагина у стресс ҳолатларини назорат қилиш имкониятига эга бўлади. Шу ҳолдагина талаба стрессни етишмовчилигидан ҳам (дистрессдан), стресснинг ортиқча юкидан ҳам қийналмайди. Шундай қилиб қуйидаги хулосаларни келтириш мумкин:

–зўриқишнинг йўқлиги деградация, атрофияни ва ўзини ҳимоя қилиш қобилиятини пасайишига олиб келади;

–зўриқишнинг кўплиги (ортиқчалиги) функционал ва адаптив (мослашиш) қобилиятини пасайтиради.

Биз биоэнергетик нуқтаи назардан инсоннинг турли-туман ҳис-туйғуларини икки гуруҳга ажратдик:

1. Ахлоқий-бириктирувчи ҳиссиётлар.
2. Агрессив ажратувчи ҳиссиётлар.

Агрессив ҳисларга нафрат, рашк, қасос, қасд, ғазаб, худбинлик кабиларни киритиш мумкин. Бу ҳисларнинг асосида инкор этиш, воз кечиш қабул қилмаслик ётади. Бу ҳислар ҳаётнинг бизга ёқмаган томонларини инкор этишга, яъни реал ҳаётни тан олмасликка ёки ундан юз ўгиришга ундайди. Бу ҳисларга берилган инсон маълум даражада реалликни (ҳақиқатни) инкор этади, қабул қилмайди. Ўз шахсини ана шу ҳаётнинг бир қисми бўлган ҳолатдан ажратган ҳолда қабул қилишга интилади. Бу ҳолатда биоэнергетик майдонда ҳам энергия алмашинуви бузилади. Биоэнергетик майдонга худди шунга ўхшаш салбий энергиялар тортила бошлайди ва натижада ушбу майдон ана шундай кўрсатмаларга бойиб боради. Демак, биоэнергетик майдоннинг янада ифлосланиши юз бера бошлайди. Бундан ташқари ушбу ҳиссиётлар энергетик қувватнинг тарқалишига, яъни кўп қувватни бефойда сарфланишига сабаб бўлади. Натижада инсоннинг биоэнергетик майдони ўз қувватини камайтириб боради ва кучсизланиб қолади. Чунки салбий ҳислар қувватни атрофга ёйилиб кетишига ва қўшимча қувватнинг кириб келмаслигига хизмат қилади. Чунки биз бу ҳолда

реал ҳаётни инкор этаяпмиз, яъни ўзимиз ҳаётий кувватдан воз кечаяпмиз. Бу ҳолатни узок муддатда давом этиши аввал биоэнергетик майдонни, сўнг эса жисмоний организмни емирилишига сабаб бўлади. Шу механизмдан келиб чиққан ҳолда биз бу салбий ҳиссиётларни ажратувчи ҳиссиётлар деб атадик. Улар инсоннинг яхлит биоэнергетик майдондан ажралиб қолишига ва кучсизланишига (муҳофазани кучсизланишига) олиб келади.

Албатта, биз юқорида айтиб ўтганимиздек стресс ҳолатлар ҳам организмни фаолиятини фаоллаштиришга хизмат қилади ва бу тўғри, аммо бу ҳолатни маълум чегаралари ва даражалари мавжуд. Ана шу даража ва меъёрларидан четга чиқиш ҳиссий зўриқишни салбий натижаларга, касалликларга олиб келади. Демак, ажратувчи ҳиссиётлар ҳам ҳаётнинг бир қисми сифатида қабул қилиниши лозим, лекин уларни бошдан кечираётган инсон маълум ахлоқ меъёрларига амал қилиши ва маълум назоратни қўлдан бермаслиги шарт. Инсон бирор шахсдан нафратланар экан бу нафрат куввати (агрессия) нафақат бутун борлиққа, балки ўзига ҳам қаратилган бўлади. Чунки ҳар бир шахс ана шу борлиқнинг бир қисми ҳисобланади. У қандай инсон бўлишидан қатъий назар яхлит биологик дунёнинг маълум қисмини ташкил этади. Биологик борлиқни бирор қисмини ёмон кўраётган, нафрат ҳиссини кечираётган одам нафрат предмети бўлган шахс орқали бутун биологик борлиққа ўз нафратини қаратган бўлади.

Биз ўзимиз ана шу яхлит биологик ҳаётнинг бир қисми бўлганлигимиздан охир оқибатда ўзимизни ҳам ёмон кўра бошлаймиз. Чунки биологик сферага тарқалган агрессия (тажавузкорлик) биологик предметларни танламайди, у радиотўлқинлари сингари сферада ҳар томонга тарқала боради. Натижада, ўз агрессиямиз (тажавузкорлигимиз) маълум вақтдан сўнг ўзимизга қайтиб келади. Чунки биологик даражада ҳамма нарса ўзаро боғлиқ ва тенгдир. Инсон борлиқнинг бир қисми, борлиқ эса катта ва яхлит организмдир, у кўринмас энергетик ишлар билан чамбарчас боғлиқлик ҳосил қилади. Ҳаттоки, коинотнинг энергетик оқимлари ернинг биоэнергетик тизими билан алоқадор ва ўзаро таъсирга эга эканлиги маълум. Ер юзида ва умуман коинотда энергиялар алмашинуви маълум қонуниятлар орқали амалга оширилади ва ўзаро уйғунлик ҳосил қилади. Ана шу уйғун энергия сферасида яшаш учун инсон ҳам ўз фикрлари ва ўз ҳис-туйғуларида уйғунликка эришиши лозим, акс ҳолда инсон ана шу уйғун борлиқ энергетикасига ҳамоҳанг ҳолда ҳаёт кечира олмайди. Бу ҳамоҳангликни бузилиши албатта энергия алмашинувини бузилишига олиб келади. Резонанс ҳолати, яъни бир-бирига мос тушиш ҳолати кучни икки баробар эмас, балки бир неча ўн баробар ошишига олиб келишини сиз яхши биласиз. Демак, инсон энергетикасининг тўлқинлари борлиқ энергетикасининг тўлқинларига мос тушган ҳолда унинг биоэнергетик майдонининг куввати бир неча ўн баробар ошиб боради. Мустаҳкам иммунитетга эга инсон мустаҳкам соғлиқ эгаси эканлигини ҳаммамиз яхши биламиз.

## REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya)” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli qarori.
2. Абу Али ибн Сино. Саломатлик сирлари: Тиббий рисолалар тўплами. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашириёти. 2000. –156 б.

3. Абдуллаев С.С. Ўзбекистонда эътиқод эркинлиги ва ислом.
4. Фалсафа фанлари номзоди илмий дараж. олиш учун тақдим этилган дисс. автореферати.– Т. :2002. –26 б.
5. Абу Али ибн Синонинг моғлиқни сақлашга доир рисоалари. /таржимон У.И.Каримов.–Т.: Фан .1978 . – 132 б.
6. Бойдедаев А. Табиат кучлари ва олам эволюцияси. –Т.:1996.-105 б.
7. Гапиров Б.Т. Талабаларда ахлоқий ўз-ўзини англашнинг ўқув жараёнидаги динамик тараққиёти. Психол.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.–Т.: 1993.– 133 б.
8. Туленов Ж. Ҳаёт фалсафаси.–Т.: Ўзбекистон. 1993 .– 319 б.
9. Қиличева Қ.Ю. Баҳоуддин Нақшбандийнинг таълимий–ахлоқий қарашлари. Пед.фан. ном. илмий дараж. олиш учун ёзилган дис.–Т.2004–18 б.
10. ўсиши (Ўқитувчи учун қўлланма).–Т.:Ўқитувчи .1980.–88 б.
11. Ғозиев Э.Тафаккур психологияси.–Тошкент.: Ўқитувчи.1990.–184 б.
12. Янковская М.Г. Эмоциональные аспекты нравственного воспитания. – М.: Просвещение. 1986. – 160 с.

## SHASHMAQOM. TARIXIY SHAKLLANISH VA TUZILISH ASOSLARI

Bonu Suvonqulova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8242585>

**Annotatsiya.** Maqomchilik mumtoz an'alarini milliy (mahalliy) musiqiy asosda rivojlantirilishi natijasida yuzaga kelgan Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining majmuasidir. Bunda Buxoro va Xorazm maqomlari Shashmaqom tizimi tarzida, ulardan farqli o'laroq Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari esa "tarqoq" tizim shaklida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Shoshmaqom, mumtoz, musiqa, rost, Navi.

## SHASHMAKOM. FOUNDATIONS OF HISTORICAL FORMATION AND STRUCTURE

**Abstract.** It is a complex of Bukharan statuses, Khorezm statuses and Fergana-Tashkent Maqam roads, which arose as a result of the development of the classical traditions of Maqamism on a national (local) musical basis. In this case, the status of Bukhara and Khwarezm is manifested in the form of the Shashmakom system, and, unlike them, the Fergana - Tashkent status paths are manifested in the form of a "scattered" system.

**Key words:** hurry, classical, music, true, Navi.

## ШАШМАКОМ. ОСНОВЫ ИСТОРИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ И СТРОЕНИЯ

**Аннотация.** Это комплекс бухарских статусов, хорезмских статусов и ферганско-ташкентских макаменных дорог, возникший в результате развития классических традиций макамизма на национальной (местной) музыкальной основе. При этом статус Бухары и Хорезма проявляется в виде системы Шашимаком, и, в отличие от них, статусные пути Фергана-Ташкент проявляются в виде «рассеянной» системы.

**Ключевые слова:** спешка, классика, музыка, правда, нави.


O'zbek-tojik xalqlari mumtoz musiqasi – Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat mahobatli turkum tarzida ifoda etilgan edi. Mazkur maqomlar quyidagicha nomlanadi:

1. Buzruk - ma'nosi - «katta», «ulug'», «buyuk»
2. Rost - ma'nosi – «to'g'ri», «chin», «haqiqiy»
3. Navo - ma'nosi - «kuy», «mungli kuy», “ishq kuyi”
4. Dugoh - «ikki o'rin», «ikki joy», «ikki parda»
5. Segoh - «uch o'rin», «uch joy», «uch parda»
6. Iroq – ma'lum arab mamlakatining nomiga nisbat berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shashmaqom deganda eng avvalo tovush- pardalarning olti xil ko'rinishdagi mukammal uyushmasi anglashiladi. Zero, bu parda uyushmalarining har biri tarkibida ohangdosh (muloyim) bo'ldarning umumiyko'rsatkichi (9) ulardagi asosiy tovush-nag'malar soni (8) dan ortiq bo'lgan bu pardalar ijod jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etgan:




### Бузрук мақоми




I II III IV V VI VII VIII (I)

### Рост мақоми




I II III IV V VI VII VIII (I)

### Наво мақоми




I II III IV V VI VII VIII (I)

### Дугоҳ мақоми




I II III IV V VI VII VIII (I)

### Сегоҳ мақоми



I II III IV V VI VII VIII (I)

### Ироқ мақоми



I II III IV V VI VII VIII (I)

Demak, Shashmaqom turkumidagi cholgʻu kuy va aytim (ashula) yoʻllari ushbu olti xil tarzda mukammal uyushgan pardalar tizimi hamda ularga tayangan kuy- ohanglarini maʼlum doyra usullari bilan mushtarak ishlanishi natijasida yuzaga kelgan edi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik boʻlimdan – cholgʻu va aytim (ashula) yoʻllari (turkumlari) dan iborat boʻlib, ularni «ustoz-shogird» anʼanaviy maktabida tahsil koʻrgan kasbiy cholgʻuchi va ashulachi-hofizlargina malakali ijro eta oladilar. Bu yuksak sanʼatni oʻrganish istagida boʻlganlar eng avvalo shogirdlik maqomi odoblariga rioya qilishlari hamda oʻzlarining burch va vazifalarini yaxshi bilishlari talab etilgan. Jumladan, shogird:

- oʻz kasbini sevishi;
- ustozni oldida tavozeʼ bilan turishi;
- ustoziga behuda savollarni bermasligi;
- savol bermoqchi boʻlsa avval ijizat soʻrashi;
- sabr-toqatli boʻlishi;
- ustozining oila aʼzolari va qarindosh-urugʻlariga hurmat bilan munosabatda boʻlishi;
- ustozining dushmani bilan doʻst tutinmasligi;
- ustozining koʻrsatgan yoʻl-yoʻriqlariga amal qilishi;
- ustozining sanʼatiga taqlid qilishi;
- ustozni anʼanalarini davom ettirishi lozim boʻlgan.

Maʼlumki, maqomlar asosan ogʻzaki anʼana tarzida, yaʼni ustozdan shogirdga «ogʻzaki uslub» vositasida oʻtib, yashab keldi. Shunga koʻra, shogirdlar oʻz ustozlari ijrosidagi maqom namunalarini xotiralariga muhrlab, amaliy ijrolar jarayonida oʻrganib kelganlar va ularni ijodiy oʻzlashtirganlar.

#### REFERENCES

1. Акбаров И, Кон Й. Бухарские макоми. (вступит. статья к нотн. изд.) Ўзбек халқ мусиқаси. т.5. – Тошкент: ГИХЛ, 1959.
2. Азимова А. Вопросы синтаксиса восточной монодии. II. – Тошкент: Фан, 1998.
3. Akbarov I., Kon Y. Вухоро мақомлари (nota toʻplamiga kirish maqola) Oʻzbek xalq musiqasi. 5 t. – Toshkent: Oʻzdamnashr, 1959.
4. Визго Т.С.Музыкальные инструменты Средней Азии (исторические очеркы). – Москва: Музыка, 1980.
5. Гафурбеков Т.Б. Творческие ресурсы национальной монодии и их прельомление в узбекской советской музике. – Тошкент: Фан, 1987.

## US WOMEN WRITERS IN 19-20TH CENTURIES

Nazarkhosimova Ozoda

JSPU Foreign language faculty

Practical English Course

2<sup>nd</sup> course student of the faculty of Foreign languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8242589>

**Abstract.** *Literature is a kind of art, a cultural phenomenon, writing, which occupies a certain place in the life of any people, of all mankind. Literature is a reflection of the soul, emotions, experiences of the author, it is the visiting card of the people, the nation. At all times, people wanted to touch the sublime, they strove for knowledge, turned to the works of great writers, poets, playwrights. We comprehend the spirit of the times in literature, we draw from it the patterns of movement, the problems of development, we learn how the people lived and live, we learn their mentality. Literature can be epistolary, scientific, artistic. And the genres are different: fiction, detective stories, children's literature, dramaturgy, classics, mysticism, poetry, journalism, religion and spirituality, fantasy, humor and satire and others. In this article you will read about US women writers in 20 th century and their talent for language skills, developed fantasy.*

**Key words:** *Literature, women, journalism, religion, fantasy, humor, poem, prose, poetry, book, memories, contribution, writer.*

## ЖЕНЩИНЫ-ПИСАТЕЛЬНИЦЫ США В 19-20 ВЕКАХ

**Аннотация.** *Литература - это вид искусства, культурное явление, письменность, которая занимает определенное место в жизни любого народа, всего человечества. Литература - это отражение души, эмоций, переживаний автора, это визитная карточка народа, нации. Во все времена люди хотели прикоснуться к возвышенному, они стремились к знаниям, обращались к произведениям великих писателей, поэтов, драматургов. Мы постигаем дух времени в литературе, мы черпаем из нее закономерности движения, проблемы развития, мы узнаем, как жили и здравствуют люди, мы изучаем их менталитет. Литература может быть эпистолярной, научной, художественной. И жанры разные: художественная литература, детективы, детская литература, драматургия, классика, мистика, поэзия, журналистика, религия и духовность, фэнтези, юмор и сатира и другие. В этой статье вы прочтете о женщинах-писательницах США в 20 веке и их таланте к языковым навыкам, развитой фантазии.*

**Ключевые слова:** *литература, женщины, журналистика, религия, фэнтези, юмор, стихотворение, проза, поэзия, книга, воспоминания, вклад, писательница.*

A woman must master the art of seduction, because she is the keeper of the hearth, the continuer of the family and species. In addition to the art of seduction, the writer must also have a talent for language skills, a developed fantasy ... They read because women have no equal in the art of seduction. Because the area of feelings is the subject of the liveliest interest of any normal person. Because stories “about love” resonate in the soul of any person, regardless of gender, age and nationality. At first let us remember about following earlier women writers in the US:

Louisa May Alcott (born Louisa May Alcott; 1832 - 1888) was an American writer who became famous for her 1868 novel Little Women, which was based on memories of her growing up in the company of three sisters. The book was written at the request of Boston publisher Thomas

Niles, who asked Alcott to write a "book for girls". Meg was based on her older sister Anna, herself as Jo, and Beth and Amy were based on her younger sisters Elizabeth and May, respectively. The success of the book prompted the writer to compose several novels related to this work: in 1869 a sequel was published called "Good Wives", which is often published together with the first part of the novel and tells about the youth of the March sisters and their marriage; in 1871, the book "Little Men" was published, also autobiographical, telling about the writer's nephews; finally, in 1886, The Joe Boys was published. In addition, many of Olcott's later stories and novellas echoed Little Women. Unlike Jo March, her literary incarnation, Louisa May Alcott never married. Louisa May Alcott's "Little Women" and "The Good Wives" are, without exaggeration, some of the best-known classic American literature for young adults. These sincere, touching books about the childhood and youth of four sisters, published one after another in 1868-1869, have gone through an incredible number of editions, and are very popular today; based on them, stage and cinematic versions were created, in one of which the role of Joe is played by the famous actress Katharine Hepburn.

Anna Bradstreet (eng. Anne Bradstreet, 1612-1672) - the first American poetess. Bradstreet's only lifetime book of poems, The Tenth Muse Newly Appeared in America, was published without an author's name in London (1650). The edition of "Selected Poems" prepared by her, including the most famous - the poem "To My Dear and Loving Husband", was published in America after her death (1678). The religious poems of Bradstreet enjoyed a certain popularity among the Puritan pioneers who copied them, but later they were forgotten and printed only in the middle of the 19th century. J. Berryman's poem Tribute to Anna Bradstreet (1953), highly appreciated by American critics, is dedicated to the poetess. She herself spoke of poetry: "the place of my solitude." Her book of poetry, published without her knowledge in 1650 in London by her half-brother (under the pretentious title of The Tenth Muse Newly Appeared in America: The Delightful Fruits of Versatile Mind and Learning), caused a sensation in both England, New and Old. The "scientific" poetry of A. Bradstreet, included in this volume, reveals the author's good orientation in philosophical systems, her inquisitive intellect and confident command of the techniques of versification; it is solid, monumental and secondary, which is why it is perceived today as a skillful imitation of contemporary English poets. She wrote a lot, and not only prose and poetry, she also found time to reflect her thoughts in the form of aphorisms, quotes, catchphrases, here is one of them: "If there were no winter, spring would not seem so beautiful to us; if there were no poverty, wealth would not be so desirable."

Harriet Elizabeth Beecher Stowe (born Harriet Elizabeth Beecher Stowe; 1811-1896) was an American writer, author of the famous novel Uncle Tom's Cabin. In her literary works, she acted as a benefactor of women's education and the destruction of slavery. In response to the curses and accusations that fell on Beecher Stowe for this preaching of the liberation of the Negroes by the slave owners and their friends, she published the "Key" ("Key to Uncle Tom's Cabin"), in which she clearly proved that the plot for the novel directly taken by her from life, often even to the smallest detail. Beecher Stowe's poems are predominantly written on religious themes. She also wrote quotes and aphorisms. Here is one of them: "The most bitter tears over the grave pour over unspoken words and unfinished deeds." Harriet Beecher Stowe is an American writer and educator. U.S. President Abraham Lincoln called her "the little woman who started the big war." The problem of the liberation of the Negroes, of the choice of a peaceful or hostile path, is also

discussed in another book by the author, whose name is "Dred, the story of the damned swamp." In other novels, the writer also dealt with social issues, women's education, women's equality.

Emily Elizabeth Dickinson (born Emily Elizabeth Dickinson; 1830-1886) was an American poet. During her lifetime, she published less than ten poems (most sources give numbers from seven to ten) out of one thousand eight hundred written by her. Dickinson's poems have no analogues in contemporary poetry. Their lines are short, titles are generally missing, and unusual punctuation and capitalization are common. Many of her poems contain the motif of death and immortality, the same plots permeate her letters to friends. Currently, Emily Dickinson is regarded by critics as one of the greatest American poets. by illness. Emily was very educated and well-read. She studied English, Latin, literature, history, botany, geology, psychology and arithmetic. Emily's poems have attracted many composers, including Samuel Barber, Elliott Carter, Aaron Copland, Andre Previn, Michael Tilson Thomas, Ned Rorem, Osvaldo Golikhov. Dickinson spoke beautiful English, a rich and vivid imagination, which may be why the poems of the poetess are unforgettable, impressionable, full of feelings.

*A flower follows the sun with its gaze, and in the evening, noticing nearby  
With the eyes of a flower,  
It grumbles, bending low: "Why are you sitting close to me?" "Because life is sweet!"  
We are all flowers, and You are the light!  
Forgive us if we did not have enough days to love you, -  
We are in love with your sunsets, In your flights and agates,  
And at midnight ahead!  
I especially like the following creation of the American poetess.  
Success is tempting for those who are not fed up with it.  
The nectar will soon be appreciated by the One Who is tormented by Thirst.  
In the purple Army, who managed to take away the Flag from the enemy,  
No Victory price.  
Can't know better  
Than that defeated soldier who was slain in battle  
And I heard the sound of victorious trumpets, Falling into a mortal sleep.*

Edna St. Vincent Millay (eng. Edna St. Vincent Millay, 1892-1950) - American poetess and playwright, one of the most famous poets of the United States of the XX century. Born into a family of a nurse and a teacher, she grew up without a father, her mother traveled a lot with her daughters from city to city in search of work, taught them independence and love of literature. Edna's literary talents (or, as she preferred to call herself as a child, "Vincent") were revealed at a college in Camden, Maine, she began to print from the age of 15. In 1912, Millay's poem "Renascence" won fourth place in the US Poem of the Year competition, causing a scandal because everyone considered it deserving of first place; the winner admitted that he received the prize with displeasure, and the runner-up gave his award to Edna. After this story, Millay became a celebrity, and a wealthy woman, Caroline Doe, paid for the education of the poetess at Wasser College. After graduating in 1917, Edna moved to New York. In New York, Millay lived in Greenwich Village and led a free, bohemian life. Her fame grew. In 1923, her collection Harp Weaver and other poems won the Pulitzer Prize, the first time a woman had been awarded the prize for poetry. Millay is a master of the sonnet, ballads, in her form she was guided by classical traditions; echoes of the topic

of the day (the place of a woman in society, etc.) were also reflected in her work. Her reputation was negatively affected by patriotic poems written during the Second World War; Los Angeles Times critic Merle Rubin noted that "she seemed to provoke more American critics with her pro-democracy poetry than Ezra Pound with her pro-fascism poetry." Nevertheless, in 1943, during the war, Millay received the Robert Frost Medal for outstanding contributions to poetry.

Marianne Moore (Marianne Craig Moore, 1887-1972) is an American poet, one of the leading representatives of modernism, the winner of many awards (including the National Book Award and the Pulitzer Prize in 1951), who wrote in a peculiar, vivid manner that combined accuracy and richness with abundant citation and a rare ability to "put a variety of ideas into one, compact image. T.S. Eliot called Moore's work "a particle of that very rare substance that is called non-ephemeral modern poetry." Moore gained fame and popularity in the literary circles of New York, where she repeatedly took on the role of hostess at the mayor's receptions. She often attended boxing matches and baseball games, and was a big fan of Muhammad Ali, for whose album (I Am the Greatest!) She wrote the intro on the cover. Moore continued to publish in publications such as The Nation, The New Republic and Partisan Review. Each of these writers is unique in their own way, each of them, undoubtedly, left her own handwriting in the history of the development of American literature in the 20th century. Each of them and many others deserve to be called the "Pride of American Culture and Literature". A woman writer is always interesting, always a mystery. After all, every woman is first and foremost a person. This topic is very deep and extensive, so I want to continue my research in this area.

#### **REFERENCES**

1. Showalter, E., 1971. Women and the literary curriculum. *College English*, 32(8), pp.855-862.
2. Aaron, J., Ardis, A.L. and Armstrong, T.D., 2004. *The Cambridge history of twentieth century English literature (Vol. 1)*. Cambridge University Press.
3. Fayzullaeva, U. and Parmonova, N., 2021. THE EVOLUTION OF FEMALE WRITERS IN THE 20TH CENTURY: FROM THE LATE 19TH CENTURY TOWARDS 21ST CENTURY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(02), pp.75- 83.
4. Swuste, P., Van Gulijk, C. and Zwaard, W., 2010. Safety metaphors and theories, a review of the occupational safety literature of the US, UK and The Netherlands, till the first part of the 20th century. *Safety science*, 48(8), pp.1000-1018.
5. Orlova, A.M. and Rudometova, N.A., 2017. DEVELOPMENT OF THE IMAGE OF A STRONG WOMAN IN ENGLISH LITERATURE OF THE 20TH CENTURY. *Актуальные проблемы изучения иностранных языков и литератур: сб. ст. молодых ученых: в 2 ч./отв. ред., p.118.*
6. Clay, C., 2017. *British Women Writers 1914-1945: Professional Work and Friendship*. Routledge.
7. Berberich, C., 2016. *The image of the English gentleman in twentieth-century literature: Englishness and nostalgia*. Routledge.

## ADJECTIVE WORD GROUP AND ITS DEGREE

Nazarkhosimova Ozoda

JSPU Foreign language faculty

Practical English Course

2<sup>nd</sup> course student of the faculty of Foreign languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8242597>

Variance inflation coefficients range from one to ten. The numerical value for VIF indicates the percentage by which the variance (i.e. the standard error squared) is inflated for each coefficient (in decimal form). For instance, a VIF of 1.9 indicates that the variance of a particular coefficient is 90% larger than what would be expected in the absence of multicollinearity — in the absence of correlation with other predictors. The exact size of a VIF that must exist before causing problems is debatable. What is known is that as your VIF increases, your regression results become less reliable. In general, a VIF greater than 10 indicates a high degree of correlation and should raise concern. Certain authors advocate for a more conservative level of 2.5 or greater.

Occasionally, a high VIF is of no concern. For instance, you can obtain a high VIF by including products or powers of other variables, such as  $x$  and  $x^2$ , in your regression. If you have a high VIF for dummy variables that represent nominal variables with three or more categories, this is typically not a problem.

	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
VARIABLES	Model 1	Model 2	Model 3	Model 4	Model 5	Model 6
AGE	0.0933***	0.0922***	0.0898***	0.0905***		

	(0.0171)	(0.0201)	(0.0170)	(0.0185)		
<b>YOS</b>	-0.0410	0.0876	0.0604		0.0365	0.0365
	(0.166)	(0.159)	(0.162)		(0.191)	(0.191)
<b>COO</b>	-0.257	-0.160	-0.168	-0.147	-0.221	-0.221
	(0.229)	(0.271)	(0.238)	(0.242)	(0.400)	(0.400)
<b>KLS</b>	0.277*					
	(0.140)					
<b>UNIP</b>	-0.101	-0.0309	-0.0176		0.359	0.359
	(0.227)	(0.226)	(0.229)		(0.269)	(0.269)
<b>INT</b>	- 0.0134***	- 0.0130***	-0.0131***	- 0.0139***	- 0.0147**	-0.0147**
	(0.00398)	(0.00442)	(0.00418)	(0.00428)	(0.00707)	(0.00707)
<b>PUNC</b>	0.238	0.256	0.256	0.343*	0.762***	0.762***
	(0.207)	(0.243)	(0.226)	(0.195)	(0.248)	(0.248)
<b>logWage</b>	0.991	0.526	0.463	0.829	2.954***	2.954***
	(0.678)	(0.725)	(0.697)	(0.782)	(0.856)	(0.856)
<b>KLW</b>		0.0615				
		(0.139)				
<b>KLL</b>			0.147			
			(0.112)			
<b>Constant</b>	-15.69	-8.703	-7.833	-12.92	- 43.75***	-43.75***
	(9.731)	(10.44)	(10.03)	(11.35)	(12.50)	(12.50)
<b>Observations</b>	34	34	34	34	34	34
<b>R-squared</b>	0.777	0.746	0.762	0.740	0.500	0.500



<b>Robust standard errors in parentheses</b>				
*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1				

**Figure 4. Regression results.**

#### IV. CONCLUSION

In order to check the relationship between variables, OLS method has been used and results have been obtained. In the regression results, I have developed 6 models to determine statistically significant variables for the employer satisfaction level. According to the results of correlation matrix and VIF test, we ran different regression models. In the first three models' language skills questions have been used separately. In the last three models some variables have been excluded to check.

The results show that age and Korean language speaking skills, internship period have statistical significance in the first three models, however age and Korean language skills have positive relationship with employer satisfaction which means over years they may learn more about culture and head of the company and increase employers' satisfaction. Internship period has a negative relationship with employer satisfaction. It can be explained that expectation of employers from those who had an internship is high, however if employees do not meet their expectations, employers may get unsatisfied from employees.

Except speaking other language skill elements such as writing and listening are not statistically significant to dependent variable. When I excluded the age variable which is highly correlated with dependent variable, another variable also became significant. They are wage and punctuality. They both have positive relationship with dependent variable. Korean employers that pay high salaries to foreign graduates are satisfied from their employees. Punctuality is also appreciated by Korean employers. But the country of origin, university prestige years of schooling do not have statistical significance with dependent variables.

#### REFERENCES

1. Azevedo, A., Apfelthaler, G., & Hurst, D. (2012). Competency development in business graduates: An industry-driven approach for examining the alignment of undergraduate business education with industry requirements. *The international journal of management education*,10(1), 12-28.
2. Al-Sarayreh, Khaled and Qudah, Mohammad (2009). Bureaucratic values of administrative staff at the University of Mutah and their relationship to job performance from the standpoint of administrative leadership. *Jordan journal of science in education*. 5 (3), 233-247.
3. Andreia (2012). The perceived leadership style and employee performance in hotel Industry. *A dual approach. Review of International Comparative Management*, 2, V(13), 295, 296, 299.
4. Bridgstock, R. (2009). The graduate attributes we've overlooked: Enhancing graduate employability through career management skills. *Higher education research & development*,28(1), 31-44.
5. Cumming, J. (2010). Contextualised performance: Reframing the skills debate in research education. *Studies in higher education*,35(4), 405-419.

6. Cunningham, W. V., & Villaseñor, P. (2016). Employer voices, employer demands, and implications for public skills development policy connecting the labor and education sectors. *The world bank research observer*, 31(1), 102-134.
7. Choi, H. Y., (2013). Legal issues related to long-term hiring of foreign workforce. *Korean journal of labour law*, Tom 48, pp. 419-455.
8. Erkutlu, H. (2008). The impact of transformational leadership on organizational and leadership effectiveness: The Turkish case. *Journal of management development*, 27(7), 708–726.
9. Frankham, J. (2017). Employability and higher education: The follies of the ‘Productivity Challenge’ in the Teaching Excellence Framework. *Journal of education policy*, 32(5), 628-641.
10. Faroqui, S. & Nagendra, A. (2014). The impact of person organization fit on Job Satisfaction and Performance of the Employees. *Procedia economics and finance*, 11, 123, 125, 127.
11. Grandey, A.A., Wen Chi, N. & Diamond, J.A. (2013). Show me the money! Do financial rewards for performance enhance or undermine the satisfaction from emotional labor. *Personnel psychology*, 66, 569-612.
12. Jisun, J. & Lee, S. J., (2016). Influence of university prestige on graduate wage and job satisfaction: the case of South Korea. *Journal of higher education policy and management*, 38(3), pp. 297-317.
13. Kelley, C. & Gaedeke, R. (1990). Student and employer evaluation of hiring criteria for entry-level marketing positions. *Journal of marketing education*, (Fall), 64-71.
14. Kang, D. G., (2017). Economic activity and effects of immigrants. *Policy Report Migration Research and Training Center*
15. Kermani, Z.Z. (2013). A study if the linking between job satisfaction and customer satisfaction: A case study of Iran insurance; Karman; Iran. *Journal of marketing development and competitiveness*, 7(4), 104-105.
16. Levenburg, N. (1996). General management skills: Do practitioners and academic faculty agree on their importance? *Journal of education for business*, Volume 72, No. 1, p47-51. Cited in Tanyel, et al (1999).
17. Mason, J.C. (1992), “Business schools: Striving to meet customer demand”. *Management Review* , Volume 81, No. 9, pp10-14. Cited in Quek (2005).
18. McQuaid, R. W., & Lindsay, C. (2005). The concept of employability. *Urban Studies*, 42(2), 197-219.
19. OECD. (2012). *Better skills, better jobs, better lives: A strategic approach to skills policies*, OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264177338-en>.
20. Osmani, M., Weerakkody, V., Hindi, N. M., AlEsmail, R., Eldabi, T., Kapoor, K., & Irani, Z. (2015). Identifying the trends and impact of graduate attributes on employability: a literature review. *Tertiary education and management*, 21(4), 367-379
21. Piriyanthanalai, W. & Muenjohn, N. (2012). Is there a like? Employee satisfaction and service quality. *World journal of management*, 4, 82-92 .
22. S.K.V., L., (2000). “The demand for business and management education in Hong Kong beyond 1997”

23. Tanyel, F. Mitchell, M.A, & McAlum, H.G. (1999). The skill set for success of new business school graduates: Do prospective employers and university faculty agree?. *Journal of Education for Business*, September/October, pp 33-37.
24. Thornburg, (1997). "The new crop: Recruiting today's graduates *HR Magazine* Volume 42, ( No. 1), pp 74-79. Cited in Tanyel, et al (1999).
25. Tymon, A. (2013). The student perspective on employability. *Studies in Higher Education*,38(6), 841-856.
26. Vischer, J. (2007). The effects of the physical environment on job performance: Towards a theoretical model of workspace odel. *Journal of stress and health*, 23, 175-184.
27. Webster, C. & Taylor, S. (1990). Toward bridging the gap between marketing programs and business firms. *American marketing association educators' proceedings*, 6, (Summer), 360-365.
28. Wahyudi, A. Haryono, T. Riyani, A.L. &Harsono, M. (2013). The impact of work ethics on performance using job satisfaction and affective commitment as mediating variable: Evidences from lecturers in central Jave. *Issues in Social and Environmental accounting*, 7(3). 168-172.
29. Wang, G. (2012). The influence of internal service quality on employee job satisfaction at Taiwan listed international tourist hotels: Using organisational Culture as the moderator. *World transactions, on engineering and technology education*, 10(3), 174-183.
30. Yoon, J., Park, S., & Kim, D.J., 2020. Assessing the effects of higher-education factors on the job satisfaction of engineering graduates in korea. *sustainability*, Tom 12pp. 1-10..

## QADRIYATLI MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHPEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Madina Raximova Xasanovna**

Osiyo xalqaro universiteti magistri

[madi.psixolog@gmail.com](mailto:madi.psixolog@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8254820>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada qadriyatli muloqot madaniyatini shakllantirishning ustuvor vazifalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* Qadriyatli muloqot, qadimiy feodal madaniyat, ta'lim va tarbiya vazifalari, konstruktiv muloqot, ijtimoiy jamoalar.

## FORMATION OF VALUABLE COMMUNICATION CULTURE AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*Abstract.* This article focuses on the priority tasks of forming a culture of valuable communication. Reasonable opinions and comments are used throughout the article.

*Key words:* Valuable communication, ancient feudal culture, educational and educational tasks, constructive communication, social communities.

## ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТНОЙ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Аннотация.* В данной статье акцентируется внимание на приоритетных задачах формирования культуры ценностного общения. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии.

*Ключевые слова:* Ценностное общение, античная феодальная культура, воспитательно-воспитательные задачи, конструктивное общение, социальные общности.

Insoniyat qadim zamonlardan so'z va nutqdan foydalanib keladi. Jamiyat taraqqiy etgan sari, muomala, madaniyat va muloqot san'ati ham rivojlanib borgan hamda qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Qadriyatli muloqot madaniyati deganda umuminsoniy muloqot, ya'ni insoniy qadriyatlarga asoslangan vaqt va makonga nisbatan qadriyatga ega bo'lgan munosabatni tushunamiz. Bular sivilizatsiya, vatanparvarlik, tinchlik, urf-odatlar, o'zaro hayrihohlik sifatida namoyon bo'lib keladigan qadriyatlardir.

Qadriyatli muloqot madaniyati insonning boshqa vaqt va makonga nisbatan insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan konstruktiv muloqotda ishtirok etishga tayyorligini ifoda etadi.

Qadriyatli muloqot umuman, madaniyat, ijtimoiy jamoalar, alohida shaxsda insoniyatning yashashi, birga bo'lishi, rivojlanishi va o'zaro munosabati uchun zarur bo'lgan qadriyatdir.

Hayotning qadri, jamiyatni rivojlantirish qadriyati bilan muloqot madaniyatining o'zaro bog'liqligi uning qadriyat ekanligini ifodalaydi. Qadriyatli muloqot madaniyatining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati milliy g'oyalar asosida rivojlantirish zarurligini belgilaydi. Ushbu vazifani hal etishda esa muhim rolni umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'ynaydi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda, qadimiy feodal madaniyatining kirib kelishi bilan muloqotga ehtiyoj yanada sezila boshladi. Bu esa uyg'onish davri madaniyati paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

O'z davrining, ilg'or jamoatchilik vakillari muloqotning alohida xususiyatlari mavjudligi va undan ko'proq foydalanishga harakat qildilar. Shunday qilib, faylasuflar haqiqiy bilim olish, e'tiqodlarni rivojlantirish muloqot orqali amalga oshib borishini payqashdi. Ular in'ikos va boshqa madaniyatni assimilyatsiya qilish uchun muloqotning ma'nosiga ahamiyat berishdi. O'sha davridagi muloqot mohiyatining evolyutsiyasini tushunish uchun ayniqsa L. Feyvorax falsafasiga alohida e'tibor berib o'tishimiz lozim. Faylasuf shunday fikr bildiradi: "Odamga qiziqish muloqotga murojaat qilishga olib keldi". L. Feyvorkning o'z qarashlarida o'zini anglash uchun muloqot zarurligi, muloqot odam va atrof - olamning haqiqiy mohiyatni o'rganish usuli ekanligini e'tirof etadi. Boshqa tomondan, bugungi kunda jamiyat umuminsoniy qadriyatlarning barcha boshqa qadriyatlarga - individual va jamoaviy munosabatlarga nisbatan ustuvorligi nafaqat yaxshi istak va chiroyli ibora, balki aksiologik imperativ tomonidan amalga oshirilgan degan xulosaga keladi. Qadriyatli muloqot madaniyatining o'ziga xosligi «Qul tigin» yodgorliklarda ham o'z aksini topgan. «... oltin, kumush, ichkilik ipakni shuncha hisobsiz berayotgan Tabg'ach xalqi so'zi shirin, debosi (ipak kiyimlik va kiyim) nafis ekan. Shirin so'zi, debosi bilan aldab yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaqin qo'shni bo'lgandan so'ng yovuz ilmni u yerda o'rganar ekan» degan so'zlardan anglashiladiki, muloqotda xushmuomalalik, shirin so'z orqali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga hamda "yovuz ilmni" ya'ni, turkona bo'lmagan bilimni (chet tili) ham o'rganib olinganligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, muloqot insonning psixologik rivojlanishidagi muhim omil hisoblanadi.

Bizningcha, muloqot - ruhiy jarayonlar, holatlar va inson xulq-atvorida paydo bo'ladigan, mavjud bo'lgan va hayot davomida namoyon bo'ladigan qadriyat deb ta'riflash mumkin. Pedagogik adabiyotlarda muloqot, avvalambor, uni pedagogik amaliyotda qo'llash nuqtai nazaridan o'rganiladi. Muloqot ta'lim va tarbiya vazifalarini amalga oshirishning asosiy vositasidir. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda pedagogik muloqot o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ularning birgalikdagi faoliyatining maqsadi va mazmuni asosida vujudga keladigan aloqani o'rnatish va rivojlantirishning ko'p qirrali jarayoni sifatida qaraladi.

Muloqot muammolarini qadriyatli yondashuv nuqtai nazaridan hal qiladigan faylasuflar, psixologlar o'qituvchilarning bir qator tadqiqotlarini tahlil qiladi. Zamonaviy ta'lim maktab o'quvchilari tomonidan qadriyatlarni o'zlashtirishni targ'ib qilishning asosiy maqsadlaridan birini belgilaydi. Shu munosabat bilan o'quvchilar qadriyatlar, ayniqsa, bugungi kun qadriyatlari bo'yicha harakat qilishlari, inkor etilmaydigan qadriyatlar asosida muloqot qilishlari kerak. Faqatgina muloqotda qadriyatlarni egallash mumkin. O'z navbatida, ushbu jarayonda muloqot o'zi qadriyatga aylanadi. Chunki muloqot tufayli qadriyatlar umumiy ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois muloqot qadriyat muammosi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Muloqotga qadriyat sifatida yondashgan bir qator tadqiqotchilar muloqotni to'g'ridan-to'g'ri qadriyatlar bilan bog'laydilar. Shunday qilib, tabiat, inson, inson sivilizatsiyasi, dunyo madaniyati, erkinlik va shaxs huquqlari, muloqot va hamkorlik kabi qadriyatlarni shakllantirishda, erkin va mas'uliyatli shaxsning muloqot qadriyatlarini ichki qadriyat sifatida amalga oshirish sharti sifatida jamiyatning keyingi bosqichi uchun eng katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash muhimdir.

Ma'lumki, inson hamkorlik jarayonida muloqotning o'zi va boshqa shaxs qadriyatiga ega bo'ladi. Muloqot nafaqat uning ziddiyatli birligida (birlik - izolyatsiya), balki har qanday faoliyat uchun shart bo'lgan qadriyat sifatida ham tan olinadi. Shuningdek, ba'zi tadqiqotlarda

insonparvarlik g'oyasi, sevgi, ezgulik, muloqot, baxt, qadr-qimmat kabi tushunchalar orqali insonning hayot, idrok, go'zallik, mehnat, Vatan kabi tushunchalar bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatini ochib beradi. Umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan bunday ko'p qirrali muloqot universal muloqot hisoblanadi. Chunki, "Shaxs munosabatlari rivojlanishining universalligi uning dunyo bilan aloqalarining universalligi shartidir. Muloqot shakllarining rivojlanishi va kommunikativ o'zaro aloqalar tizimlari sivilizatsiya taraqqiyotiga hamroh bo'ladi va kelajakka qarab harakat universal muloqot sxemalarini yaratish zarurligini anglamay iloji yo'q bo'lib chiqadi. Madaniyatni anglash va boshqa madaniyatning qadriyat dunyosiga kirib borish doirasi bo'yicha ma'lum bir madaniyatning rivojlanishini baholash mumkin".

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida qadriyatli muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi hamkorlik faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida juda ko'plab faylasuf, psixolog, pedagog olimlar tomonidan tahlil qilingan, turlicha yondashuvlar asosida ochib berishga harakat qilingan. Umumiy holda qadriyatli muloqot faoliyat jarayonida - bu muayyan insoniy qadriyatlarga asoslangan, masalan, to'g'riso'zlik, xushmuomalalik, hamdardlik, o'zaro hurmatga asoslangan va natijada pozitiv javob beradigan muloqot jarayoni. Shunday qilib, qadriyatli muloqot o'quvchi shaxsining asosiy axloq qoidalari yoki axloq qoidalariga mos keladigan asoslarni yoki qabul qilinadigan aloqa tamoyillarini belgilab, ushbu tushunchaning qadriyatli muloqot jarayoni, qadriyatli muloqotli faoliyat, qadriyatli muloqot muhiti, qadriyatli muloqot natijaviyligi kabi aspektlari farqlanadi.

Ta'lim jarayonida har bir pedagog qadriyatli muloqotning o'ziga xos aspektlarini tushuntirishi, amal qilishi, faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini o'rgatib borilsa hamkorlik qilish ko'nikmasi, insonparvarlik, vatanparvarlik, shaxs qadr-qimmatini anglaydi.

Ta'lim jarayoni o'quvchini aqliy va hissiy imkoniyatlarini ham tarbiyalab boradi.

Ma'lumki, mantiqiy aql o'quvchi shaxsining aql-idrok kuchini anglatrsa, hissiy aql atrofdagi odamlarni tushunishning empatik qobiliyatiga asoslanadi. Bu odamlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati ham hisoblanadi. Qadriyatli muloqot qilish ko'nikmalari o'quvchining shaxs sifatida qadr-qimmatini ham ifoda etadi.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.:O'zbekiston,2012.–46 b. 2. "Ta'lim
2. to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonuni-637-son 23.09.2020
3. Aminova F. Muloqot matni yaratish ko'nikmalarini shakllantirish (Monografiya) //
4. Toshkent, "Fan" – 2006 y. 100-b.
5. Asmolov A.G. Sistemno-deyatelnostniy podxod v razrabotke standartov novogo
6. pokoleniya//Pedagogika. 2009.№ 4. S.18-22

## ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНИКАМ О ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ

Тилавова Матлаб Мухамедовна

Доцент Бухарского Государственного Университета

Ядгарова Мадина Миржамаловна

Магистр Международного Университета Азия

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8264072>

*Аннотация.* Цель статьи - раскрыть основы формирования представлений здорового образа жизни у детей старшего дошкольного возраста, представить опыт работы дошкольного учреждения по использованию оздоровительной технологии «Здоровье – в наших руках».

*Ключевые слова:* здоровый образ жизни, оздоровительная технология, валеология, дошкольное учреждение.

## INTRODUCING PRESCHOOLERS TO A HEALTHY LIFESTYLE

*Abstract.* The purpose of the article is to reveal the basics of forming ideas of a healthy lifestyle in older preschool children, to present the experience of a preschool institution using the wellness technology "Health is in our hands".

*Key words:* healthy lifestyle, wellness technology, valeology, preschool institution.

Современные условия жизни и профессиональной деятельности представляют высокие требования к состоянию здоровья, психической устойчивости, физического развития личности. Эффективность профессиональной творческой деятельности полностью обусловлена здоровьем человека. Поэтому идеи ценности здоровья как основы всех дальнейших успехов в развитии человеческой личности, самопознания и самосовершенствования должны сегодня доминировать и быть главным в работе с детьми дошкольного возраста.

Условиями целостного развития ребенка является использование в ДОУ здоровьесберегающих и здоровьесформирующих технологий, реализуемых в комплексе через создание безопасной развивающей среды, экологически благоприятного жизненного пространства, полноценного медицинского обслуживания, питания, оптимизации двигательного режима, системного подхода к формированию у детей ценностного отношения к собственному здоровью и мотивации относительно здорового образа жизни, соблюдение гармоничных, доброжелательных отношений между педагогом и воспитанниками, самими детьми.

На протяжении всего дошкольного возраста происходит зарождение и развитие различных личностных новообразований индивида. Среди личностных новообразований главное важное место выделяется процессу формирования и развития личностных ценностных ориентаций и мировоззренческих ценностей детей. В дошкольном детстве у детей зарождаются и закладываются первые представления о здоровье и долголетии, формируются двигательные навыки и умения, формируется основа для духовного, физического, психического здоровья детей [23].

В Государственной требовании Узбекистана и в программе «Первый шаг» указывается, что улучшение качества дошкольного образования является необходимым условием для развития личности. Основными задачами дошкольного образования является

сохранение и укрепление физического, психического и духовного здоровья ребенка. На сегодня сеть дошкольных учебных заведений не в полной мере удовлетворяет образовательным потребностям населения.

Н.А. Андреева [5] в своих трудах отмечает, что представления дошкольников о здоровом образе жизни связаны с формированием осознанности по отношению к нему. Такое «отношение» она трактует как «активную направленность ребенка на свое здоровье, основанную на определении его высокой объективной значимости в обществе и субъективного личностного смысла» [5, с. 4]. Когда родители или воспитатели ставят цель – сформировать у детей 5-6 лет ценность здоровья и ценностное отношение к нему, а также целенаправленно формируют у них элементарные знания и навыки для здорового образа жизни, то в данном педагогическом процессе обучения и воспитания родители и воспитатели должны сформировать необходимую компетентность детей в образах «Я-физическое», «Я-социальное» «Я-психическое», опираясь на ДОУ.

Полученные знания, приобретенный опыт детей, их эмоциональные представления по поводу укрепления, формирования, сохранения и восстановления своего здоровья влияют на формирование их жизненной компетентности в «Образе Я-социальное», «Образе Я-психическое», «Образе Я-физическое», «Образе Я-духовное».

В педагогике выделяют средства формирования представлений о здоровом образе жизни детей, к которым относятся:

- социальные и бытовые условия жизни детей, которые влияют на формирование, укрепление, сохранение, воспроизведение здоровья;

- основа, фундамент для формирования и развития навыков и оздоровительного поведения детей.

Среди возможных педагогических, психологических, природных, социально-бытовых, экологических условий важными являются научно-обоснованные условия, которые выражаются в правильно организованном, индивидуально-дифференцированном естественных ритмах жизни дошкольников. Организация режимных моментов в жизни дошкольников, обеспечение их всем необходимым, выполнение родителями и воспитателями основных требований воспитания, развития, обучения, формирование потребностей у детей 5-6 лет, несет информацию всем системам внутренних органов детей. Так реализуется работоспособность организма малышей. Работоспособность малышей, выражающаяся в физическом развитии, эмоциях, в психическом развитии, зависит от потенциала организма и восстанавливается, и истощается детьми;

- режимные моменты питания являются важным условием формирования представлений о дошкольниках и в целом их здоровья.

Питание обеспечивает детей необходимой энергией. Еда для детей является основой для развития организма и мозга, который является главным «рулевым» всех органов и систем организма, психологических процессов, эмоциональной сферы;

- напряжённой и урегулированной деятельности ЦНС, мыслительных процессов и процесса воли;

- формирование у детей культурных и гигиенических навыков, а также, профилактика вредных привычек, к которым относится обгрызывание ногтей, сосание грязных пальцев рук, вытирание носа рукой и многие другие. Сформированность



культурных навыков, такие как мытье рук, чистка зубов, пользование салфеткой и т.д. помогает детям избежать занесения различных инфекций. В образовательных организациях важна чистота помещения, проветриваемый воздух, что является важным условием для сохранения здоровья детей [24];

-важным условием формирования представлений о ЗОЖ является двигательный режим детей: двигательная активность.

Уровень обеспечения представлений о ЗОЖ у двигательной активности дошкольников положительно влияет на дальнейшее функциональное и структурное развитие организма детей. При этом, посредством двигательной активности у детей происходит интеллектуальное, физическое, психическое, сенсорное развитие, повышая социально-адаптивные возможности организма детей;

-психическое состояние дошкольников является важным показателем, который характеризует понятие здоровья.

Психическое состояние зависит от особенностей нервной системы детей, уровня развития психологических процессов, эмоционального благополучия [36];

-безопасность жизнедеятельности детей, которая заключается в том, что родители и воспитатели создают безопасную среду обитания для жизнедеятельности детей в дошкольных организациях и дома.

Дети должны знать элементарные правила безопасности жизнедеятельности, а также соблюдать эти правила. Детей важно научить правильно решать опасности, которые могут возникнуть в их жизни. С этой целью в условиях дошкольной организации воспитатели проводят занятия, беседы, родительские собрания ит.д. [18].

Важнейшим фактором, оказывающим всестороннее влияние на укрепление детского организма, является физическая культура. Актуальной задачей является привитие детям стойкого интереса к занятиям физическими упражнениями, обучение их доступным двигательным умениям. Усиливается интерес и внимание к организации физической культуры во дворах жилых домов. Родители проявляют большую заинтересованность в том, чтобы в режиме ежедневно предусматривалась их двигательная активность. Более полное использование всех возможностей физической культуры достигается совместной работе дошкольного учреждения и семьи.

## REFERENCES

1. Mirzaeva D. КОНЦЕПЦИЯ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАБЛЮДЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
2. Мирзаева Д. Ш. Развитие творческих способностей будущих воспитателей дошкольных учреждений //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1408-1413.
3. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна. "ПРИМЕНЕНИЯ АРТПЕДАГОГИКИ И АРТ-ТЕРАПИИ В ПРАКТИКЕ РАБОТЫ С ЛЮДЬМИ, ИМЕЮЩИМИ ПРОБЛЕМЫ В РАЗВИТИИ." *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.2 (2022): 44-49.
4. Мирзаева, Д. Ш., & Хамраева, А. Э. (2022). АРТПЕДАГОГИКА В СИСТЕМЕ ВОСПИТАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA*

*ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(2), 87-91.

5. Shavkatovna M. D. Art Therapy as a Means of Adaptation of Young Children to Pre-School //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 192-196.
6. Tilavova, M. M., & Tursunova, N. I. TEXNOLOGIYA DARSLARINI MILLIY O‘QUV DASTURI ASOSIDA TASHKIL QILISH. *BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR*, 89.
7. Tilavova M. M. Theoretical Grammar Of English And The Main Domains Of Language In It //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – C. 320-330.
8. Tilavova, M. M. (2022). EFFECTIVENESS OF STATE YOUTH POLICY IN OUR COUNTRY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 1, 277-286.

## FUNDAMENTAL BILIMLAR VA FUNKSIONAL SAVODXONLIK

Kudratova Aziza Ismatillayevna

Samarqand viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8264096>

**Annotatsiya.** Maqolada fundamental bilimlar va funksional savodxonlik tushunchasi, jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirishning zaruriy shartlari, huquqiy-meyoriy asoslari, ta'lim sifatiga ta'siri, mamlakatimizning xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishdan ko'zlangan maqsad, umumiy o'rta ta'limda funksional savodxonlikni shakllantirish omillari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, ta'lim sifati, funksional savodxonlik, PISA xalqaro baholash tadqiqoti, hayotiy ko'nikmalar, kasbiy rivojlanish ehtiyoji.

## FUNDAMENTAL KNOWLEDGE AND FUNCTIONAL LITERACY

**Abstract.** The article describes the concept of functional literacy, the necessary conditions for the formation of functional literacy in society, the legal and regulatory framework, the impact of functional literacy on the quality of education, the purpose of our country's participation in the PISA international assessment study, the factors for the formation of functional literacy in general secondary education.

**Key words:** Education, quality of education, functional literacy, international PISA assessment, life skills, professional development needs.

## ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ЗНАНИЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ГРАМОТНОСТЬ

**Аннотация.** В статье описаны понятие функциональная грамотность, необходимые условия формирования функциональной грамотности в обществе, правовые и нормативные основы, влияние функциональной грамотности на качество образования, цель участия нашей страны в международном оценочном исследовании PISA, факторы для формирования функциональной грамотности в общем среднем образовании.

**Ключевые слова:** Образование, качество образования, функциональная грамотность, международная оценка PISA, жизненные навыки, потребности в профессиональном развитии.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'ylab "sifat inqilobi" yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e'tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshladi. Sifat raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ldi.

Sifatga e'tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo'lingan [5]:

1. XX asrning 60-yillari – bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil – mahsulot sifati.
2. XX asrning 70-yillari – mahsulot sifatidan ishlab chiqarish texnologiyasi sifatiga o'tish bosqichi.
3. XX asrning 80-yillari – sifatni boshqarish tizimi bosqichiga o'tish davri.
4. XX asrning 90-yillaridan boshlab ta'lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati – asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi hamda innovatsiyalarga liderlik qilishga bo'lgan intilish XX asrning ikkinchi yarmida mehnat bozori, biznes, yuqori texnologik ishlab chiqarish sohalari tomonidan ta'lim oldiga turli yo'nalishdagi bilimlarga ega, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan, muammolarni anglab turli hayotiy vaziyatlarda yechimini topib, innovatsion loyihalar yarata oladigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yildi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'sha asrning 70-yillariga kelib, "savodxonlik" tushunchasi kengayishini taqozo etdi va 1965-yilda Tehronda bo'lib o'tgan Butunjahon ta'lim vazirlari kongressida "funktional savodxonlik" atamasidan foydalanish taklif qilindi va unga "insonning munosabatlarga kirishish, tashqi muhitga moslashish va unda faoliyat yuritish qobiliyati" kabi ta'rif berildi [6]. Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim va umr davomida o'qishning yangi sohalarini yaratdi.

Funktional savodxonlik – bu insonning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida fundamental bilimlarni o'zlashtirish va qo'llay olish ko'nikmalari negizida shakllanadigan qobiliyatdir. Shakllanishi uchun maqsad, mazmun va natijaviylik komponentlari, muhit hamda rivojlanish ehtiyoji katta ahamiyat kasb etadi. Bugungu kunda zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kishilar uchun raqamlashtirish va globallashtirish erkinlik va zavq beradigan ishga aylanadi.

Ilmiy-texnikaviy rivojlanish bosqichida funktsional savodxonlik o'quvchilar qobiliyati va shakllanadigan bilim, ko'nikma, malakalari hamda ularni doimiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlari kabi ikkita jihatga bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi P.Atutov [7]. A.Tangyan esa jamiyatning rivojlanishi jarayonida shaxsning bilim va ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyojini minimal funktsional savodxonlik deb ta'riflagan [8].

"*Funktional savodxonlik*" tushunchasi keng bo'lib, o'z ichiga o'qish savodxonligi matematik savodxonlik tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi moliyaviy savodxonlik, global muammolarni anglash savodxonligi, XXI asr kompetensiyalariga egalik darajasi, sog'lik sohasidagi savodxonlik, diniy savodxonlik, oilaviy munosabatlar savodxonligi, iqtisodiy va siyosiy masalalar savodxonligi, ijtimoiy munosabatlar savodxonligi, ekologik savodxonlik, huquqiy savodxonlik, ilmiy va texnologik savodxonlik, kompyuter savodxonligi va b. qamrab oladi.

Umumiy tahlillar asosida "insonning funktsional savodxonligi u yashayotgan zamon va makon bilan bog'liq bo'lib, tez o'zgarayotgan dunyoda moslashish, doimiy ravishda rivojlanish va unda munosib faoliyat yuritish uchun fundamental bilimlarni duch kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda qo'llay olish darajasi" kabi ta'rifni kiritishni joiz deb bildik.

Maktab o'quvchilarida funktsional savodxonlikni rivojlantirish bosqichlarini pedagog olim L.Perminova o'rganar ekan, ilmiy izlanishlarida quyidagi mezonlarni ishlab chiqdi:

- fundamental bilimlar bazasi shakllangan bo'lishi;
- ularni fanlararo qo'llay olishlari, ya'ni amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari;
- o'zlarining ishlarini taqdimot qila olishlari (maktab, tashkilot, ijtimoiy institutlar);
- qaysi kasb egasi bo'lishlarini tasavvur qila olishlari;
- kommunikativlik, hamkorlikda ishlay olishlari;
- o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lishlari kerak [8].

Agar ta'lim jarayonida ushbu mezonlar ishlasa, o'quvchilarni funktsional savodli, deb hisoblashimiz mumkin bo'ladi. Lekin ularning ishlashi uchun qanday komponentlar ta'minlanishi lozimligini aniqlash kerak.

Ilmiy adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot natijalari ifodalangan manbalar tahlili asosida o'quvchilarda funksional savodxonlik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonida shakllanadi, degan xulosaga keldik. Bunda funksional savodxonlik shakllanish bosqichlari:

- Kompetensiya - o'quvchining bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish layoqati [7];

- Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim - o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni [4];

- Kompetentlilik - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati [10];

- Funksional savodxonlik - o'quvchining o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash, o'z g'oyalarni taqdim etish qobiliyati hamda kelajak hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishga tayyorligi darajasi [3].

Olingan bilimlarning amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlaydigan o'qitish jarayoni ta'lim oluvchilar hayotining keyingi bosqichlarida bilim olish zaruratini his qilish, rivojlanish, jamiyatning munosib fuqarosi bo'lish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori asosida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi va mamlakatimiz ta'limining fundamental bo'g'ini, umumiy o'rta ta'lim sifatini baholashga qaratilgan PIRLS (boshlang'ich sinf bitiruvchilarining o'qish savodxonligini baholash), TIMSS (matematika va tabiiy fanlarning o'qitish sifati monitoringini amalga oshirish), PISA (15 yoshli o'quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy muammolar yechimini topishda qo'llay olish ko'nikmalarini aniqlash) xalqaro baholash tadqiqot dasturlarida ishtiroki belgilandi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktab o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish va baholashni xalqaro dasturlar asosida amalga oshirish hamda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish, 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifalari kun tartibiga qo'yildi [2].

Mamlakatimiz ishtiroki belgilangan ikkita tadqiqotda o'quvchilarimizning matematik savodxonligi baholanadi. Bular Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiativasi (IEA) tomonidan o'tkaziladigan TIMSS va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkaziladigan PISA tadqiqotlari.

TIMSS dasturi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganadi [11]. PISA dasturi esa shu

bilimlarini 15 yoshli o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo'llay olishlarini baholaydi.

Shuni aytish joizki TIMSS va PISA dasturlari bir-biri bilan o'zviy bog'liq. Chunki fundamental bilimlar bo'lsa, ularni hayotda tatbiq qilish mumkin va, aksincha, berilayotgan bilimlarga ehtiyoj bo'lsa, ular o'zlashtiriladi.

Izlanishlar, tahlillar va xulosalari asosida I.Aleksashina o'zining ishlarida fundamental bilimlarni va funksional savodxonlikni qiyoslar ekan, funksional savodxonlik shakllanishida fanlar integrallashuvi katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [12].

### 1.2-jadval.

#### I.Aleksashinaning fundamental bilimlar va funksional savodxonlikka bergan qiyosiy tahlili

<b>Fundamental bilimlar</b>	<b>Funksional savodxonlik</b>
- ilmiy bilimlarning u yoki bu sohasini modellashtiradi	- real hayotiy vaziyatlarni modellashtiradi
- chiziqli-mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi	- ko'pqirrali tafakkurga tayanishni nazarda tutadi
- tushunchalar induktiv metodni qo'llash asosida shakllanadi	- tushunchalar deduktiv metod asosida shakllanadi
- o'quvchilar bilimlarini aniq fan negizida nazariy shaklda olishadi	- bilimlar fanlar integratsiyasi asosida berilib, real hayot bilan bog'langanligi uchun o'quvchilar tajriba-tadqiqotlar o'tkazib, o'zlarining hayotiy ko'nikmalarini shakllantiradilar

Ushbu qiyosiy tahlilga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, ta'limning rivojlanish trayektoriyasi bevosita fundamental bilimlar mustahkamligi va funksional savodxonlik shakllanganligi bilan belgilanadi.

Mamalakatimizning ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi quyidagi muammolar yechimini topishga imkon beradi:

- ta'lim tizimidagi bo'shliqlarni aniqlash;
- sifatli ta'limni taqdim qilish yo'llarini izlash;
- belgilangan davriylik asosida davlatlarning ta'limiy yutuqlari, o'zgarish dinamikasini kuzatish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish konsepsiyalarini ishlab chiqish;
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash;
- investitsiyalarning oqimini ko'paytirish;
- raqobatbardosh kasb mutaxassislarini tayyorlash.

Fikrimizcha, barqaror rivojlanadigan davlatni qurish va tadqiqotda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida katta islohotlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda:

- tadqiqotlarda ishtirok etgan hamma davlatlar faoliyatini tahlil qilish;
- yetakchilik qilgan davlatlar ta'lim tizimini o'rganish;
- o'quv dasturlari, darsliklar mazmunini qayta ko'rib chiqish;

fanlar integratsiyasini ta'minlaydigan qo'shimcha adabiyotlar fondini oshirish.

Sifatli ta'limni tashkil etish, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsad qilar ekanmiz har bir pedagog o'ziga quyidagi savollarni berishi va ularga javob topa olishi lozim deb hisoblaymiz:

- O'quvchilarim olgan bilimlarini sinfdan tashqarida qo'llay olishadimi?
- Fanimni o'zlari uchun kerak deb o'rganishlariga ularga nima xalaqit qiladi?
- Nima qilsam o'quvchilarim meni darslarimga qiziqib keladilar va o'zlarining fikrlarini erkin bayon qiladilar?
- O'quvchilarim XXI asrda munosib yashashga tayyormi?
- Nima uchun o'qitayapman?

Chunki ta'limning bugungi kundagi maqsadi faqat bilim berish emas, balki o'sib kelayotgan avlodda tez o'zgarayotgan dunyoda moslashish, doimiy ravishda rivojlanish va unda munosib faoliyat yuritish uchun fundamental bilimlarini duch kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarni shakllantirishdir.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8-dekabr "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997- sonli Qarori. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenining 2019-yil 29-aprel "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. 29.04.2019 y. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.
3. Oliy ta'lim Davlat ta'lim strandarti. –T. 2021. <https://lex.uz/docs/5705038>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprel "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi № 187-sonli Qarori. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Кулемин Н.А. Квалиметрический мониторинг в системе общего образования // ж. Педагогика. 2001. – №3. – С. 16–20.
6. UNESCO. Revised Recommendation concerning the International Standardization of Educational Statistics. General Conference of UNESCO. Paris, 27.09.1978. URL: [http://portal.unesco.org/en/ev.php-RL\\_ID=13136&URL\\_DO=DO\\_TOPIC&URL\\_SECTION=201.html](http://portal.unesco.org/en/ev.php-RL_ID=13136&URL_DO=DO_TOPIC&URL_SECTION=201.html).
7. Атутов П.Р. Концепция политехнического образования в условиях технологического этапа научно-технического прогресса// ж. Предпринимательство и занятость / – 1999. –№10–11, – с. 26–29.
8. Тангян С.А. «Новая грамотность» в развитых странах // ж. Советская педагогика. – № 1. 1990. – С. 3–17.,
9. Перминова Л.М. Формирование функциональной грамотности учащихся: основы теории и технология. – Санкт-Петербург, 1998. – 49 с.
10. Образовательная система «Школа 2100». Педагогика здравого смысла: сб. мат-лов / поднауч. ред. А. А. Леонтева. – М.: Баласс, Издателский дом РАО, 2003. – 368 с.
11. <https://www.oecd.org/pisa/>

12. Алексашина И.Ю., Абдуллаева О.А., Киселёв Ю.П. Формирование и оценка функциональной грамотности учащихся. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург. 2019. – 160 с.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI SHAKLLANTIRISHGA QO'YILADIGAN LINGVODIDAKTIK TALABLAR

Sa'dullayev Farhod Eshturdiyevich

Osiyo xalqaro universiteti, 1- bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8264132>

**Annotatsiya.** *Shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan milliy metodikani davr talablari asosida yangilashni, uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlari kabi boshlang'ich ta'lim oldiga ham kompetensiyaviy yondashuv bilan bog'liq talay vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Mana shunday vazifalarning biri esa boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini mukammallitirish bilan bog'liqdir. Maqolada darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishga qo'yiladigan lingvodidaktik talablar, o'quvchilardagi ushbu ko'nikmalarni qanday rivojlantirish to'g'risida ayrim fikrlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich sinf, o'quvchi, ona tili, didaktik tamoyil, metod, usul, kitobxonlik madaniyati, dars, nutq.*

### LINGUODIDACTIC REQUIREMENTS FOR THE FORMATION OF LINKAGE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Abstract.** *Updating the National methodology aimed at ensuring the spiritual maturity of the individual on the basis of the requirements of the period, as well as other stages of continuing education, the talay tasks associated with a competency approach to primary education were transversal. One such task involves perfecting the speech of elementary students. The article covers in its lessons the linguistic requirements for the formation of linkage speech of Primary School students, some ideas on how to develop these skills in students.*

**Key words:** *primary class, student, native language, didactic principle, method, method, reading culture, lesson, speech.*

### ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ФОРМИРОВАНИЮ СВЯЗНОЙ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** *Обновление национальной методики, направленной на обеспечение духовного совершенствования личности на основе требований эпохи, поставило перед начальным образованием, как и на других этапах непрерывного образования, ряд задач, связанных с компетентностным подходом. И одна из таких задач связана с совершенствованием речи младших школьников. В статье освещены лингводидактические требования к формированию связной речи младших школьников на их уроках, некоторые моменты о том, как развивать эти навыки у учащихся.*

**Ключевые слова:** *начальный класс, ученик, родной язык, дидактический принцип, метод, метод, культура чтения, урок, речь.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning jahon miqyosida "O'qish va uni tushunish sifati" yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot dasturini o'rganish bo'yicha ta'lim muassasalari oldiga qo'ygan ko'rsatmasi ayni maqsad ijrosiga qaratilgandir. Shu maqsadda 2021 yildan mamlakatimizning PISA va PIRLS nazorat dasturlarida ishtirok etishi rejalashtirilishi ta'lim sifatini jahon standartlariga javob bera oladigan darajaga ko'tarishni, o'qitish shakllari, metodlari va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan fan o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligi, o'quv materialini rejalashtirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini puxta egallashlariga, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish va uyushtirish mahoratiga chambarchas bog'liq. Zero, didaktik jarayon uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning "o'qish va mehnat jarayonida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish" maqsadi o'quvchilarning bog'lanishli nutqi hamda matnni adekvat anglash ko'nikmalarini shakllantirishga erishish yo'llarini belgilashni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quv materiali, tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatishni ta'minlashi, o'quvchilarning o'qimishlilik darajasi, savodxonligi va vaqt kabi didaktik omillarni hisobga olishi lozim.

O'quvchilar nutqini shakllantirish ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u tilning o'ziga xos xususiyatlari, ma'no tovlanishlari va badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Og'zaki nutq adabiy tilning orfoepik; yozma shakli esa orfografiya va uslub kabi me'yorlariga mos holda shakllantirishni taqozo etadi. Nutq madaniyatini tarkib toptirishda adabiy til me'yorlariga amal qilinishi, xususan, muayyan tildagi so'zlar, ularning qurilishi, yasalishi va o'zgartirish modellari, so'z birikmalari hamda gapni nutqda to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish tushuniladi. Bu borada metodist olim A.Hamroev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o'z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi – gapiruvchi va qabul qiluvchi – tinglovchi ishtirok etadi".

Haqiqatan ham, so'z, so'z birikmasi va gap subyektlar nutqiy jarayonining muhim qurolidir. Talaffuz xususiyati so'zlovchining, eshitilishi tinglovchining muayyan maqsadiga, ya'ni fikrini uzatishga xizmat qiladi. Verballik jonli nutq ifodasi bo'lsa, vizuallik yozma nutqqa xos muhim xususiyatdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida grammatik mashqlarning muntazam ravishda tashkil etilishi o'quvchilarda so'z tanlash, ularning ma'nolarini anglash va farqlash orqali yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning nutqiy faoliyati ularning so'zlarni nutq maqsadiga muvofiq tez va to'g'ri tanlay olishi orqali faollashib boradi. Grammatik tushunchalarning muntazam va izchillikda singdirilishi o'quvchilar nutqiy faolligini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda nutqiy qobiliyat shaxsning til qonuniyatlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga kuchli ta'sir etadigan hissiy-irodaviy jabhalaridan biri sifatida ona tili ta'limidagi ahamiyat qaratilishi zarur bo'lgan dolzarb masaladir.

A.G'ulomovning qayd etishicha, "So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi".

Soʻzlovchining nutqiy qobiliyati tanlangan obʻekt boʻyicha soʻz tanlashida, ularni grammatik jihatdan toʻgʻri muvofiqlashtirishida namoyon boʻladi. Bola oʻzi qoʻllayotgan soʻz maʼnosini toʻgʻri anglab yetsa va uqsagina, nutqida undan unumli va ijodiy foydalana biladi. Ona tilini oʻqitishda nazariy bilimlar va ular asosida shakllantiriladigan koʻnikma-malakalarga alohida eʼtibor qaratiladi. Biroq diqqatdan chetda qolgan nutq qobiliyati masalasi ham borki, u alohida yondashuvlarga ehtiyoj uygʻotadi.

Til sohasi taʼlim-tarbiya bilan chambarchas bogʻliq, chunki u bilim olish va bilim berishning muhim qurolidir. Bunda til haqida bilim berish; oʻzlashtirilgan bilimlar asosida nutqiy koʻnikmani tarkib toptirish; hosil boʻlgan koʻnikmani malakaga aylantirish muhim bosqichlardir. Nutqiy koʻnikmaning asosini xotiradagi soʻz zaxirasi tashkil qiladi. Bolalarda nutqiy material 1 yoshdan – 4–5 yoshgachalik davrida xotirasidagi soʻz, jumla yoki tayyor matnlar asosida toʻplanib boradi. Professor R.Tolipovanning fikricha, “Bu material muayyan obraz yoki vaziyat bilan bogʻliq ravishda bola nutqida avtomatik namoyon boʻladi”.

Ona tili taʼlimida tinglab tushunish, oʻqish, gapirish va yozish kabi nutqiy faoliyat turlari boʻyicha oʻquvchilarda nutqiy koʻnikma hosil qilish maqsadi orqali tegishli mashqlarni ogʻzaki va yozma shaklda oʻtkazish nazarda tutiladi. Bunday mashqlar amaliyot bilan bogʻliq materiallar asosida olib borilishi zarur. Amalda sof grammatik mashqlarga nisbatan nutqiy mashqlarga koʻproq eʼtibor qaratish, yaʼni bolalarga fikrini ravon, izchil, aniq, tushunarli va xatosiz ifodalash yoʻl-yoʻriqlarini oʻrgatish orqali mavjud koʻnikmalar malakaga aylanishiga erishilishi belgilangan.

Ona tilidan oʻrganiladigan bilim, hosil qilinadigan malakalar oʻquvchilarda nutq va nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Boshlangʻich sinf ona tili predmeti amaliy oʻquv predmeti boʻlganligi tufayli vaziyatli nutq tuzish malakalarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Boshlangʻich sinflarda ona tili va oʻqish taʼlimi oʻzining oʻrganish obʻektiga ega boʻlib, oʻquvchilarga tegishli bilim va maʼnaviy-axloqiy tarbiya berish, shuningdek, muayyan koʻnikma va malakalarni shakllantirishasosida bir-birini toʻldiradi. Ona tili va oʻqish darslari oʻquvchilarning bogʻlanishli nutqini rivojlantiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi, adabiy til meʼyorlariga muvofiqligini, savodxonligini taʼminlaydi. Oʻqish darslarida, asosan, oʻquvchilarning ogʻzaki nutqi ustida ishlanadi. Shunga koʻra oʻrganiladigan oʻquv materiallari – badiiy asarlar oʻquvchilarga til meʼyorlariga muvofiq keladigan, leksik-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy qurilmalar namunasi beradi. Oʻquvchilar ogʻzaki qayta hikoyalashda ulardan aynan, baʼzan ijodiy nusxa koʻchiradilar, fikrlashga, oʻqiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladilar.

Ona tili darslarida esa oʻrganilgan matnlarning lisoniy tahlillari amalga oshiriladi. Shu jarayonda matn fonetik, leksik, soʻzning morfemik tarkibiga koʻra, morfologik, sintaktik jihatdan oʻrganiladi. Oʻquvchi tahlil jarayonida tilning ijtimoiy vazifa bajarishini elementar darajada ilmiy anglay boshlaydi. Shunday ekan, oʻqituvchi taʼlim jarayonining boshqaruvchisi sifatida didaktik jarayonga masʼuliyat bilan yondashishi, oʻquv materiallari ustida ishlashning zamonaviy, oʻquvchilarni oʻynab turib oʻylashga, oʻylab turib mustaqil fikr yuritishga undovchi metod, usul va vositalarni tanlay bilishi, ularni darsda maqsadga muvofiq qoʻllay olishi lozim. Bu esa, oʻquvchilarning til qoidalarini egallash, tasviriy ifodaviy vositalar orqali fikrini ifodalash yoʻllarni oʻrganish, turli tayanch tushunchalardan ijodiy foydalanish kabi yozma nutq koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda tilning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati ortib borishi ona tilini o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, grammatik hodisalarni tahlil qilish jarayonida mulohaza yuritishi, mustaqil fikrlarini asoslovchi dalillarni keltira olishi, umumlashma xulosa chiqara olishlarini ta'minlovchi metodik ta'minotga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Shu bois bugungi kunda nutqiy malakalar deb yuritilayotgan nuqtai nazarlar o'tmish ajdodlarimizning badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, ularda nutq va notiqlikning talablari to'g'ri va o'rinliso'zlashni olqishlash, o'ylab, so'ng mushohada qilish orqali fikr aytishning ahamiyati o'z ifodasini topgan.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, "Odam ibtidosidan bo'lmish quvvatlar, masalan, so'zlash quvvati, tanlash quvvati, xayol quvvati, sezish quvvatlaridir. Bulardan so'zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli yoki foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi"<sup>1</sup>. Demak, shaxsda axloqiy sifatlar hamda badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar nutq o'stirish bilan bog'liq maqsadli ishlarni taqozo etadi.

So'z va so'z san'atining mavqei yuqori darajadiligini e'tirof etgan Kaykovus Unsurulmaoliy nutqning tushunarli va sodda bo'lishi zarurligini, bunda tinglovchilarni hisobga olish, til boyligidan o'rinli foydalanishni maslahat beradi. Nutqning mazmundor va ta'sirchan, izchil va mantiqli, nafis va ko'rkam, jo'shqin va kishilarni hayajonga solishi, biror faoliyatga safarbar etishi, dag'al va qo'pol so'zlardan saqlanish joizligini uqtiradi. U nutqda aks etishi muhim bo'lgan kategoriyalarni quyidagilarda deb biladi:

"So'z to'rt nav bo'ladi: birinchisi bilishga, aytishga hojati yo'q so'zlar; ikkinchisi bilishga va aytishga zarur bo'lgan so'zlar, uchinchisi bilishga zarurati yo'q, ammo aytsa bo'ladigan so'zlar; to'rtinchisi bilsa bo'ladigan, ammo aytishga hojati yo'q so'zlar... Bu to'rt so'zni bayon qildim. Bularning yaxshisi ham bilish, ham aytish zarur bo'lgan so'zdir"

Mutafakkir, shuningdek, savodxonlik va nutqiy malakaga tinimsiz mashq tufayli erishish mumkinligini bayon etar ekan, bu haqda shunday yozadi: "Ey farzand, agar dabir va kotib bo'lsang, nutqingni yaxshi egallagil, xatni chiroyli yozgil va ko'p yozishni odat qil, toki mohir bo'lg'aysan".

Ko'rinadiki, ravon va tushunarli nutq sohibi bo'lish, fikrni og'zaki va yozma ifodalash san'ati hamma vaqt o'tmish ajdodlarimiz diqqat-markazida bo'lgan. Aynan mana shunday qarashlar ilm-fan tezkor sur'atlar bilan odimlayotgan bugungi kunda ham ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda til qonuniyatlariga alohida e'tibor berishni, o'quvchilarning amaliy nutq faoliyatini milli o'quv dasturi talablari asosida shakllantirish dolzarbligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirishda leksik, fonetik, morfologik, sintaktik kabi til birliklarining o'zaro bog'liqligiga amal qilgan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi zarur:

- gapni o'rganishda uning tarkibidagi leksik birliklarning ma'nosini aniqlash;
- so'z ma'nosini izohlashda uning fonetik tarkibini tahlil qilish;
- fonetik tarkib tahlilini adabiy-orfoepik talaffuz bilan bog'lash;
- talaffuz va imloning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish va h.k.

"Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi mashq materiallari va topshiriqlariga differensial yondashish nazarda tutilishi, ya'ni turli darajada o'zlashtiradigan o'quvchilarga mustaqil bajarishlari uchun qobiliyatlari darajasida shartli belgilar bilan ko'rsatilgan mashqlar

kiritilishi zarur. Tadqiqot davomida olib borgan izlanishlarimizda tilning murakkab hodisa ekanligi uni yod olish yo'li bilan o'zlashtirib bo'lmashligini ko'rsatdi. Shu bois til hodisalarini tushunish orqali o'zlashtirishga erishish zarur degan xulosaga kelindi. Demak, ona tili ta'limi va boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish o'qituvchidan chuqur nazariy bilim, yuqori pedagogik tayyorgarlik va mahoratni talab etadi.

O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish boshlang'ich sinflarning til ta'limida hamisha dolzarb masala hisoblangan. Negaki, o'z ona tilini mukammal egallamasdan turib yuksak madaniyat egasi bo'lib yetishish mumkin emas.

Nutqiy aloqa materiali til sanalsa, aloqa shakli nutqdir. O'zbek tilining izohli lug'atida nutq atamasi ma'nosi "[arabcha – so'zlash, nutq; gapirish qobiliyati]1. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shujarayonning hosilasi; 2. Amaldagi, so'zlashish jarayonidagi til; 3. Tilning aloqa-aralashuv maqsadi va sharoitiga qarab lisoniy vositalaridan muvofiq'ini tanlab ishlatish bilan farqlanuvchi turi, uslub. 4. Jamoa oldida aytiladigan, o'qiladigan va'z" ekanligi qayd etilgan.

Psixolog E.G'ozievning ta'rificha, nutq "axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish kabi aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iboratdir. Agarda til aloqa vositasi (quroli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonining o'zidir".

Metodist olim T.Ziyodova ta'rificha, "Nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. U nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutqning vazifasi – ong, xotira va tafakkurning uyg'unlikdagi faoliyati mahsulini barcha uchun tushunarli, adabiy me'yoriy shaklga kiritish, uni moddiylashtirish (axborotga aylantirishdan) va tinglovchiga yetkazishdan iborat".

Bizningcha, nutq tilning barcha qonun-qoidalari va mexanizmlariga tayanilgan holda fikrni ma'no va mazmun jihatidan axborotlarga aylantirib beruvchi tizimli jarayondir.

O'quvchilar nutqini rivojlantirishda lug'aviy me'yorlarning yetarli darajada o'zlashtirilishiga erishish zarur. Bu hol ona tili darslarida fonetika, morfologiya, leksikologiya hamda uslubiy normalarni puxta o'rganish orqali egallanadi. Masalan, fonetika bo'limida tovushlarning hosil bo'lishi, o'zgarishi, orttirilishi yoki tushish hodisasi imkoniyatlarini belgilash; morfologiya bo'limida so'zlarning turkumlarga ajratilishi, so'z yasalishi, turlanish va tuslanish; leksikologiyada so'zning etimologiyasi, leksik va grammatik ma'nolari, ma'no ko'chish yo'llarini bilish tilni nafaqat lisoniy material, balki nutq hamda nutqiy jarayon sifatida o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bularning barchasi bolada iroda sifatlarini tarkib toptiradi, maqsadga intilish, mustaqil ishlashga qiziqtirish kabi o'quv faoliyatini tashkil etish orqali nutq takomiliga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Bekniyozova N.I. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'g'atish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 160 b.
2. Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda so'z ustida ishlash metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Istiqol, 2013. – 136 b.
3. Valiyev E., Nurmamatov A. O'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda mustaqil ishlardan foydalanish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 6. – B 21-28.

4. Divanova M.S. O'quvchilarning mantiqiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari / Boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish. – Toshkent: O'zPFITI, 2016. – 156 b.
5. Jumaeva F. Ta'lim sifatini ta'minlashda didaktik o'yinlarning o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2017. – № 4. – V. 20-23.
6. Yuldasheva Sh. Interfaol diktant – savodxonlikni baholashning elektron tizimi // Til va adabiyot ta'limi. –Toshkent, 2019. – № 1. – B. 35–36.
7. Yo'ldoshev N. Mustaqil ta'lim va tafakkur // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2006. – № 10. – B. 10-11.
8. Najimova A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutq o'stirish / Til va adabiyot ta'limining dolzarb muammolari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, TDPU, 2013. – 124-b.
9. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2006. – 216 b.

## NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING O‘RNI

**Dilobar Imamkulovna Gulamova**

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8264168>

**Annotatsiya.** Evfemizmlar xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq sanaladi. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida uning yangi-yangi shakllari yuzaga keladi. Nutqda bunga o'xshash oz-ko'p turg'unlikka ega bo'lgan "o'rinbosar" ifoda okkazonal individual-kontekstual birlik bo'lib, ma'lum so'z yoki iborani biror-bir maqsad bilan almashtirish, tub mohiyatni ifodalovchi so'zni yumshatish va "qog'ozga o'rash" vazifasini bajaradi<sup>22</sup>.

**Kalit so'zlar:** Til, nutq, fikr, nutq madaniyati, ta'lim-tarbiya.

### ЭВФЕМИЗМЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧЕНИКОВ

**Аннотация.** Конкурентоспособная рыночная экономика требует воспитания предпринимателя, человека с высоким творческим потенциалом, человека, способного пережить любую сложную ситуацию собственным умом, независимым творческим мышлением, сильным национальным духом. Поскольку политика нашего государства основана на обеспечении благополучия и счастья личности, то воспитание личности не может быть организовано ни для какой другой цели, кроме указанной выше. «Школа – это вопрос жизни и смерти, вопрос будущего. Это не может решить только государство, правительство или губернаторы. Этот факт необходимо учитывать».

Таким образом, хотя наша главная цель состоит в том, чтобы «развить навыки самостоятельного мышления учащихся», нам необходимо взглянуть на обучение на родном языке, один из основных инструментов, с совершенно иной точки зрения, чем обычно.

**Ключевые слова:** обучение родному языку в школе, цель обучения родному языку, прагматическое ценностное присвоение, независимое мышление.

### EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH CULTURE

**Abstract.** A competitive market economy requires the education of an entrepreneur, a person with high creative potential, a person who is able to survive any difficult situation with his own mind, independent creative thinking, and a strong national spirit. Since the policy of our state is based on ensuring the well-being and happiness of the individual, the education of the individual cannot be organized for any other purpose than the one indicated above. "School is a matter of life and death, a matter of the future. This cannot be decided only by the state, government or governors. This fact must be taken into account".

So, while our main goal is to "develop students' independent thinking skills", we need to look at native language learning, one of the main tools, from a completely different perspective than usual.

<sup>22</sup> Га й бу л ла е ва Н. И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): филол.фанлари бўйича фалс.доктори (PhD) диссертатореферати.–Бухоро, 2019.

**Key words:** *mother tongue, teaching at school, purpose of mother tongue teaching, pragmatic value appropriation, independent think.*

Evfemizmlar xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq sanaladi. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida uning yangi-yangi shakllari yuzaga keladi. Nutqda bunga o'xshash oz-ko'p turg'unlikka ega bo'lgan "o'rinbosar" ifoda okkazonal individual-kontekstual birlik bo'lib, ma'lum so'z yoki iborani biror-bir maqsad bilan almashtirish, tub mohiyatni ifodalovchi so'zni yumshatish va "qog'ozga o'rash" vazifasini bajaradi<sup>23</sup>.

Evfemizmlar ham til boyligimizning, nutqimiz ko'rkining ko'rinishlaridan biridir. Barcha xalqlarda ayrim narsa va hodisalarning nomini aytish go'yo ta'qiqlangandek bo'ladi. Masalan, kishilarga nisbatan *o'lmoq* so'zini aytmalikka harakat qilinadi. "Ta'qiqlangan" so'z *tabu*, ta'qiqlash esa *tabulashtirish* deyiladi. Ta'qiqlangan so'z o'rnida qo'llangan so'z, birikma va iboralar *evfemizm* deb yuritiladi. *Evfemizm* grekcha *euphemismos* – "yaxshi", *phemi* – "gapiraman" demakdir. Masalan, *o'lmoq* so'zi o'rnida qo'llangan *vafot etmoq, foni duniyoni tark etmoq, o'tmoq, joni uzilmoq* kabi so'z va iboralar evfemizmdir. Evfemizmning "ta'qiqlangan" so'z o'rnida ifodalagan ma'nosi uning ko'chma ma'nosi hisoblanadi. So'zlovchining evfemizmlarni qo'llashi uning nutq madaniyati, muloqot odobi yuqoriligidan dalolat beradi.

Turli kasalliklar, jismoniy kamchiliklar, jonivorlar, voqea-hodisalar xalq orasida evfemik nom bilan yuradi. Masalan, *gepatit* so'zi o'rnida qo'llangan *sarg'ayma* so'zi, *qizamiq* so'zi o'rnida qo'llangan *gul* so'zi, *ko'r* so'zi o'rnida qo'llangan *ko'zi ojiz* birikmasi, *chayon* so'zi o'rnida qo'llangan *gajak, eshak, oti yo'q* so'z va birikmalari, *ilon* so'zi o'rnida qo'llangan *arg'amchi* so'zi shunday evfemik vosita hisoblanadi.

Mohir so'z san'atkorlari o'z asarlarida evfemizmlarni ko'p qollashadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning roman va hikoyalarda, hajviy asarlarida evfemizmlarning juda ajoyib namunalarini ko'rish mumkin<sup>24</sup>.

«Yaxshi gapirmoq», «silliq so'zlamoq» ma'nolarini beruvchi **evfemizm** atamasi muloqot jarayonida so'zlovchining nutqini qo'pol, madaniyat doirasidan tashqaridagi so'zlarni qo'llashdan yoki tinglovchining «ko'ngliga tegishi mumkin» bo'lgan noqulay so'zlarni ishlatishdan saqlash bilan bog'liq, ammo bu evfemizmlar qo'pol, noqulay ma'noni beruvchi so'z ifodalagan mantiqni bermaydi degani emas. Zero, evfemizm ifodaga ijoviy yondashuv orqali yuzaga keladi. Va yana nutqda evfemizmlardan foydalanish kishining madaniyatlilik, farosatlilik darajasini ham belgilovchi me'yorlardan biridir.

Evfemizmlar ekspressiv rangdorlik bilan bog'liq bo'lgan lug'aviy birikmalardandir. Ta'kidlaganimizdek, aytilmoqchi bo'lgan fikrni yumshoq va odobli qilib ifodalash evfemizm sanaladi. Ya'ni evfemizmlarda qo'pol, beadab, taqiq so'z yoki ibora madaniy shaklda pardali qilib aytiladiki, bu hol, bir tomondan, nutq madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilning badiiy tasvir vositalari bilan ham aloqadordir. Chunki badiiy tasvirdagi personaj nutqi uning ong va madaniyat darajasini ifodalab

<sup>23</sup> Г а й б у л л а е в а Н. И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): филол.фанлари бўйича фалс.доктори (PhD) диссертатореферати.–Бухоро, 2019.

<sup>24</sup> Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи масалалари. – Т.: Фан, 1975.



turadi. Evfemizmlardan muayyan kasb egalari, ayniqsa, yozuvchi va shoirlar ko'proq foydalanadilar. Ammo shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'zini madaniyatliman deb hisovlagan yoki shunday hisovlanishni istagan har bir kishi evfemizmlardan to'g'ri va o'rinli foydalanishga harakat qilmog'i zarur.

Evfemizmlarning ma'nosi shartli bo'lib, faqat kontekstdagina reallashadi: "gul chiqmoq" evfemistik iborasining qizamiq, qizilcha (kasalik nomi) ma'nolari faqat kontekstda bilinadi. Ko'rinadiki, evfemizmlar ko'pincha so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi asosida vujudga keladi: "mo'ysafid" - aroq, "qizil" - vino, "eshak" - chayon, "holva" - qiz bola kabi. Evfemizmlar turg'un (o'z) va shartli (ko'chma) ma'noli bo'ladi. Shartli evfemizmlarda emotional-ekspressivlik kuchli ifodalanadi. Xotin-qizlarning fiziologik holatini ifodalovchi bo'g'oz, qornida bolasi bor kabi so'z va iboralarni ishlatish ancha noqulay. SHuning uchun ularning o'rnida ikki qat, og'ir oyoq, homilador, boshi qorong'i, farzand kutyapti, yukli kabi evfemizmlarni ishlatish nutqni madaniylashtiradi, so'zlovchini ham, tinglovchini ham noqulaylikdan qutqaradi.

Evfemizmlarni yumshoq ma'noli sinonim so'z, ibora yoki gap deb atash mumkin. Bir tushunchani ifodalovchi turg'un va shartli evfemizlar ham, ibora yoki evfemistik gaplar ham o'zaro sinonim bo'lib kela oladi: (*bo'yida bor – homilador; Sherzod telefon o'g'risi – Sherzod Farruxning telefonini so'roqsiz olgan*).

Evfemizmlarning asosiy ko'pchiligini frazeologik evfemizmlar tashkil etadi. Frazeologik evfemizmlar ham kishilarni turli noxushlik va noqulayliklardan xoli qiladi: *Bovosi rahmatlik ham sal shunaqangi qo'li egriroq edi.* (A. Qodiriy)

Evfemizmlar og'zaki va yozma nutqni rang-barang, ravon va jozibali qiladi. Ana shu jozibadorlik va ta'sirchanlik ularni uslubiy figura bo'lib kelishini ta'minlaydi. Chog'ishtiring: *o'pdi–labini labiga qo'ydi, lablari qovishdi, labidan bol totdi; pora berdi – tomog'ini moyladi, cho'ntagini to'ldirdi; o'g'irladi –hazm qildi, o'ziniki qilib oldi, o'zlashtirdi, egallab oldi; ichdi–tomog'ini ho'lladi, nafsini qondirdi; so'kdi– yetti pushtini halolladi* va hokazo.

Nutqda evfemizmlarni qo'llash xalqimizning qadim tarixi, urf-odatlarini, umuman, ruhiyati bilan bog'lanadi. Masalan, «o'lmoq» fe'lining evfemizmlari paradigmatic qatorini hosil qilsak, undan o'rin olgan, o'rin olayotgan birliklar talaygina ekanligini, mazkur evfemizmlarning ba'zilarini hozirgi kunda arxaik xarakter kasb etganligini kuzatishimiz mumkin. «O'lmoq» fe'lining o'rnida qo'llanuvchi evfemizmlarning ba'zilariga diqqatimizni qarataylik.

1. «...Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx mirzo jardi kabutar va kabutarxona bila uchub, **shunqor bo'ldi**. O'ttiz to'qquz yoshar erdi...» [Bobur Z.M. Boburnoma. –Toshkent: Yulduzcha, 1989.]

2. «...Sarvi gulning soyasida **so'ldi** gul, netmak kerak?» (Rivoyatdan)

3. «.. (Farhodning) fano bodasidin **paymonasining to'lg'oni** va ul paymonani ajal soqiylari ilgidin sipqora ichgani va sog'olmas maydin jonon yodi bila mast bo'lub **jonidan kechgoni**» [Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.]

4. «*Qilib jononi otin tilga ta'lim,*

*Tutub jonon otin, **jon etti taslim**.*»[ Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. ]

Demak, «o'lmoq» fe'lining o'rnida qo'llanuvchi evfemizmlar uyasidan quyidagilar o'rin oladi: «shunqor bo'lmoq», «so'lmoq», «paymonasi to'lmoq», «jonidan kechmoq», «jon taslim etmoq», «dunyodan o'tmoq», «joni uzilmoq», «vafot etmoq», «qazo qilmoq», «jon bermoq», «dunyodan ketmoq», «tiriklikni tark etmoq», «fanodan baqoga ketmoq», «fanodan baqoga rixlat etmoq», «shahid bo'lmoq», «ruhi uchmoq», «yo'qolib qolmoq», «chirog'i o'chmoq», «jonini

egasiga topshirmoq», «ko‘z yummoq», «egamning marhamatiga bormoq», «oyoq cho‘zmoq», «oyoq uzatmoq», «yostig‘i qurimoq», «tashlab ketmoq» va boshqalar. Bu sirani yana bemalol davom ettirish mumkin. Mazkur evfemizmlar orasidan «shunqor bo‘lmoq», «fanodan baqoga ketmoq», «fanodan baqoga rixlat etmoq», «shahid bo‘lmoq», «egamning marhamatiga bormoq» kabilar arxaik xususiyatga ega bo‘lib, ularni jonli so‘zlashuvda emas, faqat badiiy asarlar tarkibida uchratamiz.

Shuningdek, «so‘lmoq», «jon taslim etmoq», «qazo qilmoq», «chirog‘i o‘chmoq», «yostig‘i qurimoq» kabi evfemizmlar badiiy nutqqa xos bo‘lsa, «yo‘qolib qolmoq», «qatorimizdan kam bo‘lmoq», «ko‘zimizni yoshlab ketmoq», «yolg‘on dunyodan chin dunyoga ketmoq» kabi evfemizmlar shevalarda ko‘p uchraydi<sup>25</sup>.

Ta’kidlash joizki, A.J.Omonturdiyev evfemizm hodisasini chuqur tadqiq qilib, “Bir so‘z lug‘ati”ni yaratdi, unda “o‘lmoq” tushunchasining 300 dan ortiq evfemik vositalari misollar asosida izohlab berdi. Olim “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”da esa 50 ga yaqin mavzuni asos qilib olib, har bir mavzuning 30-40 dan 500 tagacha evfemik vositalarini aniqlab, misollar asosida yoritdi<sup>26</sup>.

Va yana kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, oddiy so‘zlashuv nutqimizda tez-tez ishlatiladigan, qo‘pol yoki ishlatilishi noqulay hisovlanmagan «yiqilmoq», «engilmoq», «yiqitmoq», «engmoq» kabi qator umumiste‘mol so‘zlarimizning ham maxsus soha egalari nutqida evfemizmlari mavjudki, bu so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosiga o‘sha soha egalari nuqtayi nazaridan yondashsak, buning tabiiy hol ekanligini anglaymiz.

Misollarga murojaatni Said Ahmad ta’biriga ko‘ra: “o‘z ona tilini benihoya yaxshi biladigan, bilgandayam butun ranglari bilan, ohanglari bilan biladigan, shu bois (asarlarini) sof o‘zbekcha bitadigan, (to‘g‘rirog‘i) o‘zbek tilini kuylatadigan, o‘zbek tilining jami jilvalarini oftovga solib ko‘rsatgan” Tog‘ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasidan keltiraylik. Qissada kurashchilar nutqiga xos talaygina evfemizmlar borligini ko‘ramiz. Chunonchi, asarda kurashda *yiqlish*, *engilish* so‘zlari umuman qo‘llanilmaydi, ammo aynan shu so‘zlarning ma‘nosini beruvchi *yag‘irini er ko‘rmoq*, *elkasi erga tegmoq*, *orqasi erga tegmoq*, *kuragini er o‘pmoq*, *yag‘rinini er iskamoq*, *yulduz sanamoq* kabi evfemizmlar yoki *yiqitmoq*, *engmoq* lug‘aviy birliklari o‘rnida *terib tashlamoq*, *mom qilmoq*, *yulduz sanatmoq* kabi evfemizmlar ishlatilgan.

1. «*Shu Bakrboyning Samarqandda o‘qiyotgan Jonibek uli kelgan. Yaxshi olishi bor-da. O‘tgan yili kelganda Sariosiyoni **mom qilib edi.***» (Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. –Toshkent: Sharq, 2009.)

2. «*Regardan O‘tan polvon chiqib, Surxondaryoning suyangan tog‘larigacha **terib tashladi.***» (38-bet)

3. «*Bo‘ri polvon O‘tan polvonni cho‘nqaymagan **olib urdi.*** Surxondaryoning shon - sharafini ko‘tardi.» (39-bet)

4. *Oqibat... Bo‘ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta **yelkasi yer ko‘rdi.***

5. *Kimsan Bo‘ri polvon **elkasi erga tekkizgan*** Ismoil polvon! (53-bet)

<sup>25</sup> Йўлдошева Д., Жўраева С. Эвфемизмлар нутқ маданиятимизни ошириш манбаларидан бири// «Тилшунослик ва методика масалалари» илмий мақолалар тўплами. V жузв. –Тошкент: Фан, 2012.

<sup>26</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006.

6. *Sport ustasi Maksim polvon yulduz sanadi. Ha-l-o-o-ol.*

Yoki asarda *qariqiz* soʻzi mutlaqo ishlatilmaydi, ammo uning maʼnosini beruvchi *bir tengi yoʻq, tengi topilmagan* kabi evfemizmlar ishlatiladiki, bu oʻsha qizning holatida boʻlgan kitovxonning ham «koʻnglini ayaydi».

Asarda faqat kurashchilar nutqiga xos boʻlgan evfemizmlardan tashqari «xotin olmoq» birligi oʻrnida «begona qilmaslik» (*Boʻri polvon Suluvni begona qilmadi*) (64-bet) yoki bugungi kunda biz yoshlarning nutqida uyat, noqulay sezilmaydigan «sevmoq» lugʻaviy birligi oʻrnida «koʻz ostiga olmoq» (*Boʻri polvon ana shu qizni koʻz ostiga oldi*), «koʻngliga oʻtirmoq» (*Suluv Boʻri polvon koʻngliga oʻtirib qoldi*) kabilar ham ishlatilganki, bu tilimizning jozibadorligi yozuvchi mahoratiga asos boʻlganligidan dalolatdir.

Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanadi. Yangi odob-axloq, yangicha dunyoqarash normalari asosida evfemik vositalarning yangi formalari oldingisiga nisbatan yanada qulay, soʻzlovchi va tinglovchi uchun yanada yoqimliroq boʻlgan vositalar shakllanadi. Biroq, inson oʻz ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik goʻzal, nozik, beozor maʼno ifodalamasin, u tabu tushunchaning mohiyatini xotiradan butunlay bartaraf qilolmaydi. Masalan, *nomusini yoʻqotmoq, bokiraligidan kechmoq, nomusini badnom etmoq, qizligini topshirmoq* evfemalari orqali anglashilgan tushunchani yopolmaydi. Shu bois, tabu tushunchalarni evfemalashtirishga moyillik, talab, ehtiyoj borgan sari kuchayib boraveradi. Bu jarayon evfemik maʼno qatlamining – evfemik sinonimlarning shakllanishiga sabab boʻladi<sup>27</sup>.

Bunday misollarni Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» tarixiy romanining har bir sahifasida, har bir personaj nutqida uchratish mumkin. Masalan,

*Soʻzdan soʻz chiqib Oftob oyim Toʻybekadan soʻradi:*

–*Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingmi?*

–*Nax siz yosh mehmonni koʻrmabsiz, dunyoga kelmabsiz, dedi Toʻybeka oʻngu ters osh chaynab,–bir chiroylilik, bir aqllik, tagʻin oʻzi hammadan yuqorida oʻltiradir: hali yigirmaga ham bormagandir, moʻylabi ham endigina chiqa boshlagan... Nax bizga kuyav boʻladigan yigit ekan, –dedi va Kumushga qarab kulib qoʻydi.* (35-bet.)

Eʼtiborqarataylik. Oftob oyim «erkaklar» soʻzi oʻrnida «mehmonlar» soʻzidan, Toʻybeka «yosh erkak» soʻzi oʻrnida «yosh mehmon» soʻzidan, «Kumushga er boʻladigan» birikmasi oʻrnida «nax bizga kuyav boʻladigan» birligidan foydalanadiki, shu oʻrinda hatto Toʻybekadek omi, xizmatkor ayolning nutqida ham oʻzbekona hayoga oʻralgan evfemizmlardan oʻrinli foydalanilgan. Yoki,

*Oftob oyim yugura-yugura qat-qat koʻrpachalar solib, kuyavini oʻltirishga taklif etdi....Soʻngra Toʻybekani choy qaynatishga buyurib oʻzi kuyavi bilan surashdi:*

–*Otangiz, onangiz salomatlarmi?*

–*Shukur, sizga salom aytdilar.*

–*Hasanali otam sogʻmi, nega siz bilan kelmadi?....* (142-bet.)

Oftob oyim Hasanaliga nisbatan ishlatilishi lozim boʻlgan «qul» izohlovchisi oʻrnida «otam» soʻzidan foydalanmoqda.

*(Yusufbek) hoji Zaynabga qarab oldi.*

<sup>27</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили симасиологияси. – Т.: Мумтоз сўз, 1992.–288 б.

–*Bolam, Zaynab, –dedi, – biz Marg‘ilondagi opang ko‘chini olib kelmakchi bo‘ldiq... Sen shunga nima deysan?* (306-bet.)

Yusufbek hoji Kumushga nisbatan ishlatilishi lozim bo‘lgan «kundosh» izohlovchisi o‘rnida «opang» so‘zidan foydalanmoqda.

*Fotiha o‘qulib kuyav qayin onaga uzr aytdi:*

–*Avvalo sizlar kelguncha qaytarman, deb ertalab bir gunoh qildim. Undan keyin mehmonxonadan qo‘zg‘alolmay ikkinchi uyatka qoldim...*

*Oftob oyim:*

–*Bolamiznikini aybi yo‘q.*

*O‘zbek oyim:*

–*Qimiz kirguzib qayin onangning og‘zini ho‘llamaganingda nax baloga qolib eding, bolam.* (325-bet.)

Otabek «hurmatsezlik» so‘zi o‘rnida «gunoh», Oftob oyim «kuyov» so‘zi o‘rnida «bolamiz», O‘zbek oyim «ichirmoq» so‘zi o‘rnida «og‘zini ho‘llash» evfemizlaridan o‘rinli foydalanganiki, bu asarning qimmatini hamon oshirib kelmoqda.

Xullas, evfemizlar xalqimiz uchun nutq madaniyatini oshirish manbalaridan, ko‘rkam hamda jozibador nutq irod qilish vositalaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi.

Xullas, til xalq va millatning ko‘zgusi, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib qoluvchi ijtimoiy hodisadir. U har bir xalq va millatning yashash tarzini, ijtimoiy munosabatlardagi o‘rnini, turmushini, urf-odatlarini o‘zida namoyon etadi. Tilshunosligimizda nutq madaniyatiga erishish uchun qo‘llaniladigan vositalarning mavjudligi e‘tiborga molik. Ayniqsa, ochiq aytilishi no‘rin, noqulay, madaniyatsizlik, axloqsizlik hisoblangan birliklarni nutqda yumshatish, madaniyroq tusga kiritishga asoslangan evfemizlar nutqni boyitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, nutqimizda evfemizlarni qo‘llash – madaniyatlilik, sharqona lutf qilish belgisi. O‘zbeklar nutqida evfemizlarning ko‘p qo‘llanilishi xalqimizning madaniyatlilikidan, halimligidan dalolatdir.

## TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Omonova Maftuna Soatmurodovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8264187>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada har qanday tilni o'rganish nutqiy faoliyatning 4 ta asosiy amali vositasida amalga oshirilishi va ulardan tinglab tushunishning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** til, nutqiy faoliyat, ko'nikma, zamonaviy metodologiya, tinglab tushunish, ekstralingvistik, lingvistik, psixologik.

### DEVELOP LISTENING COMPREHENSION SKILLS

**Abstract.** In this article, the study of any language will be carried out through 4 main actions of speech activity and will talk about the importance of listening and understanding from them.

**Keywords:** language, speech activity, skills, modern methodology, listening comprehension, extralinguistic, linguistic, psychological.

### РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о том, что изучение любого языка осуществляется с помощью 4 основных практик речевой деятельности и что из них важно понимать на слух.

**Ключевые слова:** язык, речевая деятельность, навыки, современная методика, понимание на слух, экстралингвистическое, лингвистическое, психологическое.

Ma'lumki har qanday tilni o'rganish nutqiy faoliyatning 4 ta asosiy amali vositasida amalga oshiriladi. Bular gapirish, o'qish, yozish va tinglab tushunish jarayonlari bo'lib, xususan, chet tillarini o'rganishda nutq faoliyatining mazkur turlarini o'rgatish muhim hisoblanadi, chunki ular orqali ma'lumot beriladi va olinadi. Ma'lumot olish tinglab tushunish va o'qish orqali amalga oshsa, ma'lumot berish gapirish va yozish orqali amalga oshadi. Til ko'nikmalarining har biri bilan ishlash, ularni shakllantirish va integrallashtirish zamonaviy metodologiyaning asosi hisoblanadi. shu nuqtayi nazardan olib qaralganda tinglab tushunish ko'nikmasining muhimligini talablarga tushuntirib, ular bulan bu borada ishlash juda ham muhim hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tilida tinglab tushunishni shakllantirish va uni rivojlantirish bo'yicha bir qancha metodlarni amalda qo'llash mumkin, bularning aksariyati boshqa ko'nikmalar bilan integrallashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Nutq faoliyatining shakli ikkita ya'ni og'zaki va yozma nutq. Og'zaki nutqni o'rgatish tinglash va gapirishni o'rgatishni, yozma nutq esa o'qish va yozishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. "Tinglab tushunish nutq faoliyatining bir turi bo'lib, u retseptiv nutq faoliyatiga kiradi. Tinglab tushunish so'zlovchining nutqini radiodan, magnitafondan, kompakt diskdan va muloqot paytida tinglab tushunib, ma'lumot olishidir. U ba'zi adabiyotlarda audirovaniya deb ham yuritiladi. U murakkab nutq faoliyatidir, chunki tinglovchi tezda shaklni qabul qila olishi, xotirada saqlab qolishi zarur, aks holda uni qaytadan ko'rib, o'qib, tushuna olishi uchun manbaa, sharoit, vosita yo'q. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalarda tinglab tushunish gapirishga qaraganda kam taraqqiy etgan. O'quvchi o'qiganda, ko'rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko'p ma'lumot olarkan. Sababi uni ustida kam ishlaganidadir, murakkabligidadir. Tinglab

tushunish gapirishning ajralmas qismidir. Tinglab tushunish va gapirish og‘zaki nutqni tashkil qiladi”. Nutqni tinglash qobiliyati quyidagi komponentlardan iborat: A) fonematik tinglash qobiliyati, B) fonetik tinglash qobiliyati, C) intonatsion tinglash qobiliyati. Fonematik tinglash qobiliyati fonemalarning fonologik ya’ni ma’no ajratuvchi xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Fonetik tinglash qobiliyati esa nutq tovushlarining fonetik xususiyatini farqlash uchun xizmat qiladi, ya’ni ma’no ajratmaydigan nutq tovushlarini to‘g‘ri tinglay olish qobiliyati deganidir. Intonatsion tinglash qobiliyati jumla va gaplardagi ohangni to‘g‘ri ilg‘ay olish uchun xizmat qiladi. Ushbu qobiliyat turi ham yuqoridagilari kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Metodist-olim T. Sattarov oliy ta’lim muassasalarida tinglab tushunishni o‘rgatishning lingvistik va psixologik xususiyatlarini o‘rganib chiqqan va tinglab tushunish qiyinchiliklarini quyidagi omillarga bog‘lagan:

1. Tinglovchining individual yosh xususiyatlari;
2. Idrok qilish sur‘ati;
3. Sharoit;
4. Tezlik;
5. Ma’lumot miqdori, hajmi;
6. Idrok qilish tayanchlari;
7. Toliqish

Yoqubov I. tinglab tushunishga muhim nutq faoliyati turi sifatida baho bergan va tinglab tushunishni o‘qitishda 3 turdagi qiyinchiliklarni ta’kidlab o‘tgan:

1. Ekstralingvistik
2. Lingvistik
3. Psixologik

Ekstralingvistik qiyinchiliklar quyidagilar: - tinglanilayotgan nutqning mehanikligi, ya’ni mehanik qurilma yordamida qo‘yib eshittirilishi; - nutqning tembri, tezligitinglanilayotgan sharoit, vaziyat; - talabaning diqqati; - nutqning necha marta tinglanilishi; - tinglab tushunish jarayonida tayanch vositalar, mazmunli rasmlarning bo‘lishi va boshqa shu kabi omillar. Lingvistik qiyinchiliklar tilga oid qiyinchiliklar bo‘lib Rogova G. bunday qiyinchiliklarni 3 turini izohlab beradi: - fonetik qiyinchiliklar ya’ni bir-biriga yaqin tovushlarni tinglab tushunish va farqlashda uchrovchi qiyinchiliklar; - leksik qiyinchiliklar ya’ni bir-biriga talaffuzi yaqin so‘zlarni tinglab tushunish bilan bog‘liq qiyinchiliklar; - grammatik qiyinchiliklar, ya’ni grammatik qoidalar bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklar (ingliz tili analitik til ekanligidan kelib chiqadi) Psixologik qiyinchiliklar o‘rganuvchining individual xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Psixologik nuqtai nazardan nutqni tinglab tushunishda o‘rganuvchilarning xotirasi muhim rol o‘ynaydi. Nutq tinglanganda, undagi ma’lumot xotirada saqlab qolinsa, uni qaytadan tinglashga shart emas va topshiroqlarni bajarish ham bir muncha osonlashadi.

Tinglab tushunishni rivojlantirish uchun ba’zi usullar mavjud. Tinglashdan oldin yozma topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalarni tushunib yetganiga ishonch hosil qiling, shunda ular nima qilish kerakligini tushunib olish kerakligiga shunchaki chalg‘itmaydi. Tinglov paytida kamida yozishni davom eting. Esingizda bo‘lsa, asosiy maqsad ishlab chiqarish emas, tushunishdir. Tinglovda yozish kerak bo‘lsa, o‘quvchilarni ushbu asosiy maqsaddan chalg‘itishi mumkin. Agar tinglovdan so‘ng yozma javob berilishi kerak bo‘lsa, bu vazifa ko‘proq talabga javob berishi mumkin. Matn orqali tinglovchilarni boshqarish uchun tadbirlarni tashkil qiling. Asosiy g‘oyani,

mavzuni va sozlamalarni tanlash va tinglash faoliyati bilan global faoliyatni birlashtiring. O'quvchilarning diqqatini butun tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan matn elementlariga qaratishi uchun savollardan foydalanish zarur. Tinglov jarayoni boshlanishidan oldin talabalar tinglashdan so'ng og'zaki yoki yozma javob berishlari kerak. Javoblarni tinglash talabalarning xabarining muhim qismlarini tushunishiga yordam beradi. Namunaviy-tinglash faoliyati turlari: Ma'lumotlar bilan tinglash; grafik va jadvallarni to'ldirish; xaritada marshrutni ta'qib qilish; ro'yxatdagi narsalarni tekshirish; gapni tinglash; muayyan ma'nolarni izlash uchun; to'ldiruvchi mashqlarni bajarish; rasmiy va norasmiy ro'yxatlarni ajratib ko'rsatish. Effektiv til o'qituvchilari o'quvchilarga turli vaziyatlarni, kirish turlarini va tinglash maqsadlari bilan shug'ullanish uchun tinglash xulq-atvorini qanday o'zgartirishlari mumkinligini ko'rsatadi va o'rgatadi. Ular tinglovchilarga tinglash strategiyasini ishlab chiqish va har bir tinglash uchun tingli strategiyalar mos kelishiga erishishga yordam beradilar.

### REFERENCES

1. K.A. Krilova "Chet tili darslarida tinglashni o'rgatish texnikasi. Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish metodikasi Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish bosqichlari"
2. 2.Madina Shirova (Uzbekistan, Karshi) Tinglab tushunishni rivojlatiruvchi method va mashqlar
3. 3.Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
4. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.
5. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. *Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions*, 271-273.
6. Makhmudov, K. (2020). Integrating a Mother Tongue while Teaching a Foreign Language: Problems and Solutions. *Literature and History*, (1), 89-91.
7. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257.
8. 8.Amanova Nodirabegim Furkatovna. (2022). effective method of teaching. conference zone, 53–55. Retrieved from
9. <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/124>

## TIL BIRLIKLARINING NUTQIY FAOLIYATDA REALLASHUVI TADQIQI

Malikova Iroda

Samarqand davlat chet tillar instituti

E-mail: malikovairoda71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8265139>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola til birliklarining nutqiy faoliyatda reallashuvi tahliliga bag'ishlangan. Tilni sistema sifatida o'rganish kerakligi haqida gap boradi. Nutq faoliyatida til birliklarining nutqiy faoliyatda reallashuvi tahlillar orqali ko'rsatilgan. Nazariy fikrlarga asoslangan holda nutq faoliyatida til birliklarining vertikal va gorizontaal harakati tadqiq qilingan.

**Tayanch so'z va iboralar:** nutq faoliyati, vertikal harakat, gorizontaal harakat, paradigmatica, sintagmatika, presuppozitsiya, konventsiya.

## ИССЛЕДОВАНИЕ РЕАЛИЗАЦИИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу реализации языковых единиц в речевой деятельности. Говорят, что язык следует изучать как систему. Реализация языковых единиц в речевой деятельности показана посредством анализа. На основе теоретических соображений изучено вертикальное и горизонтальное перемещение языковых единиц в речевой деятельности.

**Ключевые слова и выражения:** речевая деятельность, вертикальное движение, горизонтальное движение, парадигматика, синтагматика, presupпозиция, условность.

## RESEARCH OF IMPLEMENTATION OF LANGUAGE UNITS IN SPEECH ACTIVITY

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of the realization of language units in speech activity. It is said that the language should be learned as a system. The realization of language units in speech activity is shown through analysis. Based on theoretical considerations, the vertical and horizontal movement of language units in speech activity has been studied.

**Key words and word expressions:** speech activity, vertical movement, horizontal movement, paradigmatic, syntagmatic, presupposition, convention.

Til birliklarining fonetik darajada nutqqa ko'chirilishi, nutq tovushlarini turli matnlarda va nutq faoliyatida hosil qilishdan iborat. Til sistemasi ishlashi natijasida, nutq faoliyatida mahsuli tarzida fonemalar tovush va harfga aylanadi. Til birliklarining nutqqa qanday ko'chirilishini tushunish uchun artikulyar imo-ishoralar, akustik xususiyatlar va fonetik o'zgaruvchanlik kabi fonetik xususiyatlar muhim vazifa bajaradi.

Bu haqida F. do'. Sossyur shunday deydi: ...miya nutq organlariga obrazga mos keladigan ichki turtki (impuls)ni uzatadi. Shundan keyin tovush to'lqinlari A ning og'zidan V ning qulog'iga taraladi, bu esa sof fizik jarayondir. Keyin muloqot jarayoni V da davom etadi, biroq teskari tartibda: quloqdan miyaga o'tish – akustik obrazning tegishli tushuncha bilan psixik bog'lanishi. V ham, o'z navbatida, gapira boshlaganda, nutqning bu yangi harakati davomida birinchi harakat paytidagi yo'l aynan takrorlanadi, nutq V ning miyasidan A ning miyasiga yetgunga qadar o'sha bosqichlarni bosib o'tadi. Buni biz quyidagicha ifodalashimiz mumkin:





[1:14-15].

Nutq faoliyati jarayonida, rasmda ko‘rib turganimizdek til ma‘nolar tashuvchi belgilar sistemasidir. Xususan, tilshunoslikda “til va nutq” dixotomiyasiga asoslangan tadqiqot ishlari anchagina bo‘lishiga qaramay, til belgilarining nutqqa ko‘chirilishi bilan bog‘liq muammolar endigina o‘rganilmoqda. Bu sohada izohlanishi lozim bo‘lgan masalalar hali ko‘p [2:10].

Nutq faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va til birliklarining amalga oshirilishiga ta‘sir qiladigan assimilyatsiya, eliziya yoki unlilarning qisqarishi kabi fonologik jarayonlar ishtirok etadi.

Til birliklarining morfologik qatlamda, morfemalarning nutq faoliyatida birlashishi va o‘zgarishi kabi morfologik jarayonlar natijasida hosil bo‘ladi. Til birliklarining morfologik jihatdan qanday amalga oshirilishini tushunish uchun affiksatsiya, birikma yoki morfofonemik almashinish kabi morfofonologik jarayonlar paradigmatic munosabatni sodir qiladi.

Ikki va undan ortiq til birligining bir paradigma qatorida birlashishi uchun ular orasida substansiya va ma‘no (funksiya) tomonidan ma‘lum o‘xshashlik, farq, ziddiyat bo‘lishi shart. Masalan, otlarning egalik affikslari orasidagi paradigmatic bog‘lanishni ko‘raylik. Paradigma qatorida olti affiks bo‘lib, ularning har biri “narsa-buyumning shaxsga qarashlilik” ma‘nosi mavjudligi tufayli o‘zaro o‘xshash. Ayni vaqtda ularning har biri o‘zining xususiy ma‘nosiga egaligi, yani ma‘lum predmetning birlik yoki ko‘plikdagi shaxs turlaridan aynan biriga qarashlilikni ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi va shu jihatdan o‘zaro ziddir:

[-im ]	[-imiz ]
[-ing]	[-ingiz]
[-i ]	[-lari ]

Masalan, [-im] affiksi ayni bir paytning o‘zida qolgan besh morfema bilan (kuchli va kuchsiz holatlarda) oppozitiv munosabat hosil etadi [3:35].

A.Hojiyev morfemalarni ikki turga - o‘zak va affiks morfemalarga bo‘linishini to‘g‘ri ta‘kidlaydi [4:159]. Rus tilshunosligida ham morfema, asosan, o‘zak va affiks morfemalarga bo‘lib o‘rganilmoqda. Lingvistik manbalarda bu haqda mukammal ma‘lumotlar beriladi.

O‘zak morfema tushunchasi mashhur tilshunos N.S.Trubetskoyning lingvistik ta‘limotida ham o‘z maqomiga ega. Olim morfemalarni quyidagi turlarga bo‘ladi: 1) o‘zak morfema; 2) prefiksial morfema; 3) sufiksial morfema; 4) fleksion morfema; 5) tutashtiruvchi (coenuhutelbhaa) morfema; 6) so‘z – morfema [5:75]. Ana shuning o‘zi ham o‘zak morfema tushunchasidan voz kechib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Til sistem xarakterga ega bo‘lgani uchun, fonologik va morfologik jarayonlar o‘zaro bir-biriga ta‘sir qiladi. Til birliklarining turli sintaktik qatlamda nutqqa ko‘chirilishini tushunish uchun so‘z tartibi o‘zgarishi, kelishik yoki harakat kabi sintaktik jarayonlar paradigmasini idrok

qilishimiz kerak. Til birliklarining nutqda amalga oshishiga sintaktik omillar, nutq cheklovlari va matnial ma'lumotlarning ta'siri katta rol o'ynaydi.

Kommunikativ o'zaro ta'sirlarda til birliklarining amalga oshirilishini shakllantiradigan presuppozitsiya, implikatura yoki nutq aktlari kabi pragmatik omillarni juda muhim. Nutq faoliyatida til birliklarining voqelanishini sotsiolingvistik nuqtai nazardan o'rganish, ijtimoiy va matnial omillar til o'zgarishiga ta'sir qilishi orqali sodir bo'ladi.

Fonetika nutq tovushlarining fizik xususiyatlariga, ya'ni ularning artikulyatsiyasi, akustik xususiyatlari va idrokiga e'tibor qaratadi. U fonema va allofonem kabi til birliklarining o'ziga xos artikulyar va akustik xususiyatlar orqali qanday amalga oshirilishini o'rganadi. Fonologiya ma'lum bir tildagi nutq tovushlarining tashkil etilishi va shakllarini o'rganadi. Unda til birliklarining qanday namoyon bo'lishi nutq tovushlarining tarqalishi va joylashishini tartibga soluvchi fonologik qoidalar, fonotaktika va fonologik jarayonlar orqali o'rganiladi.

Morfofonologiya morfologiya va fonologiyaning o'zaro ta'sirini o'rganadi. U til birliklarining morfofonologik qoidalar orqali qanday namoyon bo'lishini, jumladan, morfemalarning birikishi yoki o'zaro ta'sirida yuzaga keladigan fonologik o'zgarishlarga bog'liq.

Nutq sistemasi birliklari aslida turli tipdagi til birliklari tabiatida mavjud bo'lgan o'zaro birika olish imkoniyatining millionlab kishilar tomonidai yuzaga chiqarilishi natijasida voqe bo'ladi [6:218].

Nutq sistemasida sintaksis grammatik jumalarni shakllantirish uchun so'z va so'z birikmalarining joylashishini tartibga soluvchi qoidalar va tamoyillarni o'rganadi. Unda so'z, so'z birikmasi kabi birliklarining qanday amalga oshishi va birikishi orqali mazmunli va to'g'ri shakllangan sintaktik munosabatlar yaratilishi tekshiriladi.

Sintaktik munosabatlar til birliklarining nutq faoliyatida sintaktik tarzda namoyon bo'lishi orqali voqelanadi. U gap yoki nutq ichidagi til birliklarining tashkil etilishi va amalga oshirilishini belgilovchi so'z tartibi, kelishik, harakat va o'zgarishlar kabi turli sintaktik jarayonlarni belgilaydi.

Nutqiy faoliyatda semantika til birliklarining ma'nosini va ularning umumiy ma'noga qanday hissa qo'shishi, til birliklarining semantik xususiyatlar, leksik tanlovlar va konseptual tasvirlar orqali amalga oshirilishini asoslaydi. Nutqiy faoliyatda pragmatika til birliklarining matnda qanday namoyon bo'lishini va u muloqotda til birliklarining amalga oshirilishi va talqin qilinishiga matn, so'zlovchi niyatlari, presuppozitsiyalar, implikaturalar va nutq aktlari kabi pragmatik omillar ta'sir qilishini o'rganadi.

Nazarimizda, nutqiy faoliyatda ijtimoiy lingvistika til birliklarining turli ijtimoiy va madaniy matnlarda voqelanishi va namoyon bo'lishini o'rganadi. U til o'zgarishi, jumladan, dialektlar va ijtimoiy o'ziga xosliklari til birliklarining voqelanishi va ishlatilishiga ta'sir qiladi.

Nutqiy faoliyatda variatsionistik sotsiolingvistika til birliklarining yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va geografik joylashuvi kabi ijtimoiy omillarga qarab qanday amalga oshirilishi va turlicha namoyon bo'lishini tekshiradi.

Ko'rinadiki, nutqiy faoliyatda psixolingvistika til ishtirok etadigan kognitiv jarayonlarga bog'liq. U nutqiy faoliyatda til birliklarining amalga oshirilishi va voqelanishi, jumladan leksik foydalanish, sintaktik rejalashtirish va nutq faoliyati jarayonlarini muvofiqlashtirishni o'rganadi.

Bundan tashqari, har bir sohadagi eksperimental tadqiqotlar va empirik tadqiqotlar til birliklarining nutq faoliyatida qanday voqelanishi va namoyon bo'lishi haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

